



“TAMADDUN NURI” JURNALI

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali:

<https://t.me/tamaddunnuri>

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega.

Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



Impakt faktor-9.347

Atoqli

ma'rifatparvar, serqirra iste'dod sohibi,

professor

Abdurauf Fitratning 140 yilligiga bag'ishlangan

FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI

mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy

anjumani materiallari

TO'PLAMI

Beruniy-Toshkent-2026

Ushbu to‘plamga “Tamaddun nuri” jurnali tashabbusi bilan atoqli ma’rifatparvar, serqirra iste’dod sohibi, professor Abdurauf Fitratning 140 yilligiga bag‘ishlangan “FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI” mavzusida bo‘lib o‘tgan Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari kiritilgan.

Maqolalarda filologiya ilmining turli sohalariga oid ilmiy kuzatishlar jamlangan bo‘lib, mazkur sohaga oid barcha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

Munavvara Qurbonboyeva

“Tamaddun nuri” jurnali bosh muharriri,
Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

To‘plab nashrga tayyorlovchilar:

Anvar Allambergenov

“Tamaddun nuri” jurnali bosh muharrir o‘rinbosari
Muqaddas Qurbonboyeva

“Tamaddun nuri” jurnali bo‘lim muharriri

Taqrizchilar:

Roviyajon Abdullayeva

filologiya fanlari doktori
O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti
professori

Farhod Kenjayev

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
O‘zR FA O‘zbek tili adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi

Anjuman materiallari to‘plami “Tamaddun nuri” jurnali tahrir hay’ati a’zolarining 2026-yil 2-mart kungi 4-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan

MUNDARIJA

<i>Umud Bekmuhammad</i>	JADID NAMOYANDALARI FITRAT VA BEKJON RAHMONNING FAN VA JAMIYATDAGI HAMKORLIK ALOQALARI	6
<i>Tojiyeva Mushtariy Xolmo‘minova, Boltaboyev Hamudulla Ubaydullayevich</i>	FITRAT VA CHO‘LPON IJODIDA G‘OYAVIY MUSHTARAKLIK VA UNING BADIY TALQINLARI	12
<i>Ortiqov Azim Tolib o‘g‘li</i>	ABDURAUF FITRATNING “CHIN SEVISH” DRAMASIDA MILLIY UYG‘ONISH G‘OYASINING BADIY IFODASI	15
<i>Tojimatov Rasuljon G‘anijonovich, Holmurodova Nigora G‘anijonovna</i>	TAQLID SO‘ZLAR USLUBIYATI	18
<i>Mamadaliyeva Manzura Zoir qizi</i>	BADIY MATNNI SOTSIOPRAGMATIK TADQIQ OBYEKTI SIFATIDA O‘RGANISH TAMOYILLARI	21
<i>Anvarjonova Sadiya Alisher qizi</i>	MAQOLLARNING MILLIY KO‘RINISHLARI	24
<i>Муслимова Рано Муратовна</i>	АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ГЛОБАЛИЗАЦИИ	27
<i>Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna</i>	PHRASEOLOGY IN BELLES-LETTERS	30
<i>Hamrayeva Shahlo</i>	ONA TILI TA‘LIMIDA WEB 2.0 VOSITALARI ORQALI RAQAMLI KONTENT YARATISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	32
<i>Berdiyeva Zulayxo Ochilovna</i>	SOBIR O‘NAR HIKOYALARIDA PORTRET RUHIY TASVIR VOSITASI SIFATIDA	36
<i>Majidova Mahbuba Abdurazzoqovna</i>	ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA MA‘SHUQA OBRAZINING BADIY TALQINI	38
<i>Makhmudova Sabohat Adilbekovna</i>	CONTEXTUAL MEANING AND IMPLICATURE TRANSFER IN HUMAN AND AI-GENERATED ACADEMIC TRANSLATIONS	43
<i>Muhammadqulova Nodira Nurilla qizi</i>	HIKOYALARDA DAVR VA QAHRAMON TALQINI: MA‘NAVIY EVRILISHLAR TAHLILI	50
<i>Ҳикматов Ҳикмат Султонович</i>	ЗУЛЛИСОНАЙНЛИК АНЪАНАСИНING ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ	54

<i>Giyosova Xilola Normaxamat qizi</i>	ABDURAUF FITRAT “SHARQ” SHE’RINING NASHRLARARO QIYOSIY-TEKSTOLOGIK TAHLILI	57
<i>Ummatkulova Charos</i>	CHET TILI IXTISOSLIGI TALABALARI OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI BAHOLASH MEZONLARI VA TAMOYILLARI	60
<i>Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi</i>	XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “SHIRIN QOVUNLAR MAMLAKATI” ROMANIDA JAMIYATDAGI ILLATLARGA QARSHI KURASHISHNING NAMOYON BO‘LISHI	64
<i>Abdukarimova Charos Yaxshiboy qizi</i>	FITRAT- MA’RIFATPARVAR ZIYOLI	69
<i>Allambergenov Anvar</i>	MAQSUD QORIYEV IJODIDA TARIXIY SHAXS OBRAZI TALQINI	71
<i>Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna</i>	FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHI	75

Aburauf Fitrat hayoti, faoliyati, ilmiy va badiiy ijod namunalari tahlili hamda ularning o'rganilishi masalalari

JADID NAMOYANDALARI FITRAT VA BEKJON RAHMONNING FAN VA JAMIYATDAGI HAMKORLIK ALOQALARI

*Umid Bekmuhammad,
Xorazm Ma'mun akademiyasi katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvari Fitrat va uning Xorazmlik do'sti Bekjon Rahmon o'rtasidagi ilmiy, ijodiy va jadidchilik harakatidagi ma'rifiy aloqalari tahlil etiladi. Ularning o'zbek adabiyoti, ilm fani, matbuotiga qo'shgan hissasi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Buxoro, Xorazm, Istanbul, Boku, jadidchilik, xonlik, amirlik, respublika, davlat boshqaruvi, fan, jamiyat.

Abstract: This article analyzes the scholarly, creative, and educational ties between Abdurauf Fitrat, a prominent representative of the Jadid movement, and his Khorezmian associate, Bekjon Rakhmon. The study highlights their contributions to the development of Uzbek literature, science, and the press within the framework of the Jadidist enlightenment movement.

Key words: Bukhara, Khorezm, Istanbul, Baku, Jadidism, khanate, emirate, republic, public administration, science, society.

Аннотация: В данной статье анализируются научные, творческие и просветительские связи между представителем джадидского движения Абдурауфом Фитратом и его хорезмским соратником Бекжоном Рахмоном. Освещается их вклад в развитие узбекской литературы, науки и печати в контексте джадидизма.

Ключевые слова: Бухара, Хорезм, Стамбул, Баку, джадидизм, ханство, эмират, республика, государственное управление, наука, общество.

Buxoro jadidchilik harakatida Fitratning, Xorazmdagi bu jarayonda esa Bekjon Rahmonlarning katta nufuzi bo'lgan hamda ushbu olim, ijodkor va siyosatchi shaxslarning faoliyatlari ilmu fan, jamiyatdagi jarayonlarda bir-biriga bog'liq holatda kechgan. Ular nafaqat Istanbulda bir davrda o'qigan, balki keyinchalik Bokuda o'tkazilgan qurultoy, ilmiy konferensiyalarda ham birga qatnashishgan. Shu bilan birga Fitrat Buxoro, Bekjon Rahmon Xorazm xalq respublikasida nozirlik vazifasida bir davrda faoliyat ko'rsatishgan. 1925-yildan keyingi O'zbekiston SSR davridagi ilm-fan, adabiyot, matbuotdagi, jamiyatdagi jarayonlarda ham ularning o'zaro do'stona, ilmiy aloqalari bo'lib, bu tarixning yorqin sahifalarini tashkil etadi. Ularning do'stu qardoshlig'i esa Istanbul universitetida o'qigan davrlarga borib taqaladi.

Ma'lumki, Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi do'stona aloqalar ildizlari tarixning olis davrlariga borib taqaladi. Ayniqsa 20 asr boshlarida Usmoniylar davlatidagi yuksak ta'lim tizimi ko'plab turkistonlik yoshlarni o'z bag'riga chorlagani ham tarixiy haqiqat. Tabiiyki Turkistonlik talabalarning Istanbuldagi o'qish jarayonida o'zlarining salohiyati, iqtidorini yuzaga chiqarishda turk ta'limi tizimining o'rni katta bo'lgan.

Fitrat, G'ozim Olim Yunusov, Hamza Hakimzoda, Bekjon Rahmon, Usmonxo'ja Po'latxo'ja o'g'li, Mazhar Mahzum, Ota Xo'ja Po'latxo'jayev singari ma'rifatga intilgan yoshlar Istanbulda faoliyat ko'rsatish jarayonida "Yosh turklar" ta'sirida kamol topishdi. Natijada aynan ana shu shaxslar Turkistondagi jadidchilik harakatining namoyandalari bo'lib yetishgan. Biz ushbu maqolamizda ana shu siymolar orasidan faqat ikki nafarininggina faoliyatiga to'xtalib o'tamiz. Ya'ni Fitrat va Bekjon Rahmonlarning faoliyati va taqdiriga.

Dastlab Fitratning Istanbuldagi faoliyatiga to'xtalishdan oldin, ushbu shaxs kamolotga etishishida katta o'rin tutgan Buxorodagi oilasiga to'xtalsak.

Ma'lumki, Fitrat so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "tug'ma tabiat", "aqlu farosatli", "dono" degan ma'nolarga ega. Aynan ushbu ma'noyu mazmunga ega so'zni o'ziga taxallus sifatida qo'llagan Abdurauf Abdurahimboy o'g'lining fe'l atvori va insoniy sifatlarida ham yuqoridagi kabi xislatlar mujassam bo'lgan.

Buxorolik savdogar Abdurahimboy va ilmu ma'rifatli Bibijon (to'liq nomi Nastarin) oilasida 1886-yilda tug'ilgan Abdurauf vaqt o'tib Fitrat nomi bilan tanildi.

Buxorolik ushbu ma'rifatli oilada Abduraufning ikkita ukasi-Abdurahmon va singlisi Mahbubaxonlar ham bir-biriga mehru oqibatli bo'lib voyaga etishgan. Odoibu axloq, xushmuomilalik, mehnatsevarlikni asos qilib olgan bu oila farzandlari o'z davrining maktablarida tahsil olib-Abdurahmon Kogon shahridagi bosmaxonada ishlagan bo'lsa, Mahbubaxon shoira sifatida Buxoroda tanilgan.

Tarixdan ma'lumki, savdogarlar o'z kasbiy faoliyati orqali oilasi, shuningdek jamiyat, davlatning to'kin sochinligi, iqtisodiy taraqqiyoti uchun xizmat qilibgina qolmagan. Savdogarlar o'zi mansub bo'lgan millat, davlatning madaniyatini o'zi savdo qilish uchun borgan boshqa o'lka xalqlariga ham tarqatgan. Shu bilan birga boshqa davlatlarda ko'rgan kechirganlari, o'lka xalqlarining urf-odat, madaniyatlarining ijobiy jihatlari o'z vatanlarida targ'ib ham qilganlar. Ya'ni, savdogar iqtisodchigina emas, ma'naviyat va ma'rifat sohibi, madaniyat targ'ibotchisi ham bo'lgan.

Bunday xislatlar Fitratning savdogar otasi Abdurahimboyda ham mujassam bo'lgan. Abdurahimboy Eron, Rossiya, Kavkaz o'lkalarida ko'rgan-kechirganlari, u yerdagi xalqlarning urf odati-yu, madaniyatini, hattoki eshitgan ertak afsonalarini ham o'z oilasi davrasida, farzandlariga hikoya qilib bergan.

Natijada Abdurahimboyning ana shu ta'siri sabab, uchala farzandi ham ma'rifatli, ilmu zakovatli shaxs bo'lib voyaga etishdi.

Fitrat 28 yoshida 1914-yilda yozgan "Oila" nomli didaktik-pand-nasihatnoma tarzidagi asarida, sharq oilasidan kelib chiqqan holda insonning taqdiri, kelajak hayotidagi yutug'i va muvaffaqiyatsizligi, baxtli yoki baxtsizligi, kasb tanlashi, hattoki kayfiyati uning oilaviy muhiti bilan bog'liqligini g'oyatda tushunarli qilib yozgan.

Tabiiyki, oila haqidagi bunday keng qamrovli bilim, 28 yoshli yigit hayotida Fitratning o'zi tug'ilib o'sgan xonadonda, ota-onasining ta'sirida shakllangandi.

"Aqliy tarbiya, ya'ni odam aqlini tarbiyalash bu odam zehni, aql-idrokini kamolga yetkazishdir. Odam aqlining kamoli nimada? Yaxshi bilmoq, yaxshi o'rganmoq va mukammal fikr qilmoqdir. Odam ish qilishdan oldin uni xayoliga keltiradi, o'ylaydi, fikr etib keyin amal qiladi. Ana shu tafakkurni, zehn harakatini "muhokama" deydilar. Odam aqlining kuchi va zakovati bilan to muhokama etib qaror qilmasa, bir ishni boshlab yoki biror ishni to'xtata olmaydi" deya yozadi Fitrat yuqoridagi asarida (1.14).

Ana shu fikrlardan ham ko'rinadiki, Fitrat voyaga etgan oilada har bir qilinadigan ish aqlu zakovat bilan muhokama qilinib borilgan va bunda ma'rifatli savdogar otasining o'rni katta bo'lgan.

"Farzandni jisman, aqlan va axloqan kamolga yetishtirib hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi axloq bilan chiqarish zarur. Shuni e'tiborga olib olimlar tarbiyani uch qismdan iborat deb biladilar. Bular: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ular bir-birlariga shunday bog'liq va yaqinki, biriga zarar tegsa, boshqalarida ham nuqson paydo bo'ladi. Biriga foyda tegsa, boshqalari ham undan bahramand bo'ladilar. Masalan, birovning badani bemorlik natijasida zaif bo'lsa, aksaran fikri ham zaif bo'ladi, har ishda chuqur andishaga bora olmaydi, biror chora qilmoqchi bo'lsa ham darrov ko'ngli soviydi. Axloqan ham o'zgarib o'z fazilatlarini yo'qotadi, tez ranjiydigan, murosasiz va ayb qidiruvchi bo'ladi. Fikri zaif bo'lgan odam o'z ishlari ustida o'ylamaydi, zarar va foydasini andisha nazaridan o'tkaza olmaydi" deya Fitrat oila davrasida bolaga har tomonlama yetuk tarbiya berish kerakligiga e'tiborni qaratadi.

Fitratning nazarida "tarbiyaning har bir qismi tug'ilishdan etti yoshgacha avval ota-ona zimmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxirigacha odamning o'z boshiga tushadi".

Tabiiyki, ota-onasining sharqona tarbiyasi, o'zining aqlu idroki bilan 28 yoshida "Oila" nomli g'oyatda keng qamrovli asarni yozgan Fitratning shu kabi yuksakliklarga parvoz qilishida uni voyaga yetkazgan xonadonning o'rni katta bo'lgan.

Oilaning to'ng'ich farzandi Abdurauf Fitrat dastlab Buxorodagi maktab, so'ngra "Mir Arab" madrasasida tahsil oladi. Islomiy e'tiqodli bo'lgan Abdurauf Fitrat 1907-yilda dindagi beshinchi shart bo'lgan-hajga borish niyatida Afg'oniston, Turkiya, Hindiston orqali Arabistonga borib o'z maqsadiga yetishish sharafiga muyassar bo'ladi. Shuningdek o'z davrining ilg'or shaharlari bo'lgan Moskva,

Peterburg shaharlariga ham safarga borib keladi. Shu tariqa dunyo ko‘rib, ilmni oliy maqsad deb bilgan Fitrat 1909-yilda Turkiyaga yo‘l oladi.

Ma‘lumki, Qrimlik Ismoil Gasprinskiy tomonidan Rossiya imperiyasi tarkibidagi turkiy musulmon xalqlar yashaydigan o‘lkalarda asos solgan jadid maktablari 1884-yildan boshlab tashkil qilina boshlangandi. Zamonaviy ta‘lim beradigan ushbu maktablar Buxoroda ham 1908-yildan o‘z faoliyatini davom etdirgandi.

Bu paytda Mir Arab madrasasini tugallash arafasida turgan Fitrat o‘z maslakdosh do‘stlari bilan jadidchilik g‘oyalari asosidagi “Tarbiyai atfol” jamiyatini tashkil etgan va ushbu tashkilot Buxorolik eng iqtidorli yoshlarni Istanbulga o‘qishga yuborish harakatini boshlagandi.

Istanbulga shu davrda Turkistonning turli hududlaridan o‘qishga borganlar soni o‘sha paytda 30 kishi bo‘lib, ular orasida Fitratdan tashqari G‘ozi Olim Yunusov, Hamza Hakimzoda, Bekjon Rahmon, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, Mazhar Mahzum, Ota Xo‘ja Po‘latxo‘jaev singari zakovatli yoshlardan iborat edi. Vaqt o‘tib aynan ana shu yoshlar Turkistondagi jadidchilik harakatining yetakchilari, adabiyot, san‘at, madaniyat sohalarining namoyondalari bo‘lib el yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shishdi.

Tabiatan iqtidorli bo‘lgan Fitratning Turkiyadagi ijodi talabalik davridayoq o‘zbek adabiyoti, ilmu faniga istiqbolli ijodkorning yetishib kelayotganidan darak berardi. Jumladan Fitratning 1909-yili Istanbulda “Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadida xususida qilgan munozarasi” nomli kitobi bosilib chiqqani uning keng dunyoqarashi, aqlu salohiyatini ko‘rsatib turardi. Aslida Fitrat “Munozara...” ni o‘z yurtida nashr etilishini istagan, ammo Buxoroda bosilishiga amir ruxsat bermagach, Istanbulda nashr qilingan edi. Forscha yozilgan ushbu asarni Hoji Muin o‘zbekchaga aylantirdi va “Turkiston viloyatining gazetisi”da bostirdi (1911-yil). 1913-yilda esa asar alohida kitob holida nashr etiladi va unga Turkiston jadidlaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy kirish so‘zi yozdi.

Kitob Buxoro amirligida ijtimoiy ongning jonlanishiga katta turtki bo‘lib, hatto hukumat tomonidan ta‘qib qilinayotgan jadid maktablarining ko‘plab ochilishiga, maktab-ta‘lim ishlarining taraqqiy qilishiga yordam berdi. Negaki, asardagi “Islom mamlakatlari nega vayrona va xarobazor qolishi kerak. Buning sababi nimada?”, “Bu bechoralarning nega yeyishga noni yo‘q?” kabi jiddiy savol va mulohazalar xalq ongiga, jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyatga ta‘sir qilmasdan iloji yo‘q edi.

Fitrat shu davrda Usmoniylar davlatidagi “Yosh turklar” harakati ta‘sirida Istanbuldagi buxorolik yoshlar yordamida “Buxoro ta‘limi maorif jamiyati”ni tashkil etishga boshchilik qiladi. Ushbu jamiyat Turkistonlik yoshlarning Usmoniylar davlatiga kelib o‘qishi borasida salmoqli ishlarni qilib, ta‘limning zamonaviy holatda taraqqiy etishini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygandi.

Shu bilan birga Fitrat Istanbuldalik paytida adabiyotning barcha janrlarida qalam tebratdi va o‘z orzu-armonlari, ezgu tilaklarini targ‘ib qila boshladi. 1910-yilda “Sayha” (“Bong”) nomli she‘rlar to‘plamini nashr qildirishga erishdi. Ushbu she‘riy to‘plam ham fors tilida edi. Shuningdek adib “Hind sayyohining qissasi”ni ham forschada yozdi va 1912-yilda nashr etdirdi.

“Munozara” va “Sayyohi hindi” asarlari yoshlar dunyoqarashining keskin o‘zgarishi va ularning jadidlar safiga kelib qo‘shilishiga sababchi bo‘lgan. Ushbu asarlardagi g‘oyalar ta‘limni va Turkistondagi boshqaruv usulini ham isloh etishdek ezgu orzularni o‘zida aks etdirgandi. Umuman olganda, Osiyo va Yevropa qit‘alari joylashgan hududdagi talabalik Fitratning dunyoqarashiga katta ta‘sir ko‘rsatib, Buxorodagi ta‘lim, umuman tuzumni isloh qilish eng dolzarb ish ekanligini anglab etdi.

Fitrat Istanbuldan 1913-yilda vataniga qaytgach, Buxoroning turli hududlarida-Shahrisabz va Karkida o‘qituvchilik qilib, asarlarida aks etdirgan nazariyalarni hayotga joriy etish, jadidchilik g‘oyalarini keng targ‘ib qilish bilan shug‘ullandi. Shu bois tez orada “Yosh buxoroliklar” harakatining mafkurachisi va g‘oyaviy rahbarlaridan biriga aylandi. O‘zining salohiyati, notiqligi bilan Buxoro va Samarqanddagi qizg‘in adabiy jarayon, madaniy, maorif ishlariga va siyosiy harakatlarga faol aralashib ketdi. Jadidchilarning bir guruhi maorif-ma‘rifat orqali xalq ahvolini yaxshilashga intilishsa, ikkinchi guruhi davlat tizimini isloh etish, qayta qurish orqaligina xalq va yurt ahvolini yaxshilash mumkin, degan siyosiy yo‘ldan yurishga borishga intildi.

Umuman olganda buxorolik jadidlar ta‘lim, matbuot bilangina cheklanib qolmasdan, qishloq xo‘jaligida soliqlarni kamaytirish, davlat amaldorlarining o‘zboshimchaligini cheklash, tuzumni isloh qilishni hayotiy zarurat, davr talabi darajasiga ko‘tardilar.

Bu davrda Fitrat tomonidan yaratilgan publitsistik maqolalarda ana shu g'oyalar aks etgan bo'lib, "Oila" (1914), "Rahbari najot" (1915), "Begjon" (1916), "Mavludi sharif" (1916), "Abu Muslim" (1916) asarlarining ham ma'noyu mazmunini tashkil etgan.

Ana shu davrda Fitrat yana maktablar uchun "Muxtasar islom tarixi" (1915), "O'quv" (1917) singari darslik va o'quv qo'llanmalarini ham yaratdi.

Tabiiyki, ushbu asarlar yaratilishida va Fitrat dunyoqarashi, ruhiyatining shakllanishida Usmoniylar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ta'siri katta edi. Shu boisdan ham Fitratdek jadid siymosining nomi 20 asr Vatanimiz tarixida chuqur iz qoldirgan.

Istanbulda tahsil olib Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan ikkinchi siymo Bekjon Rahmon edi. O'zbek jadid adabiyotidagi Fitrat, Cho'lpon kabi siymolarning safdoshi, shuningdek o'z davrida Xorazmdan birinchi bo'lib Usmoniylar davlatida tahsil olgan jadid ziyolisi Bekjon Rahmon bo'lib, u Xorazmda ilk bor "Inqilob quyoshi" gazetasiga asos solgan jurnalist va muharrir, adabiyotshunos va folklorshunos, Ichan Qa'la muzey qo'riqxonasining tashkilotchisi, maktablar uchun darslik, o'quv qo'llanmalari yozgan pedagog sifatida tarixda qolgan.

Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida Bekjon Rahmon hamda Muhammad Yusuf Devonzodalarning asaridan g'oyat ta'sirlanganini yozgan va ushbu kitobning musiqashunoslikda tutgan o'rniga g'oyat yuksak baho bergan edi. Haqiqatdan ham, 1925-yilda Moskvada nashr etilgan "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobi musiqa nazariyasi va tarixiga doir eng e'tiborli manba bo'lgani bois, B.Belyaev hamda G.Former kabi rus va xorij musiqashunoslari ham Bekjon Rahmonov va Devonzodalarning asariga murojaat qilishgan.

Ana shunday dovuqli asar bitgan mualliflardan biri Devonzodaning Chokar taxallusi bilan ijod qilgan mohir sozanda, xonanda bo'lganligi ham ma'lum. Xo'sh, Bekjon Rahmonning-chi? Afsuski, bu shaxsning hayoti hanuzgacha to'la o'rganilmay kelinmoqda. Aslida Bekjon Rahmon Xorazm jadidlarining yetakchilaridan biri, madaniyat va ma'rifat arboblari edi.

"1887-yilda Xivalik xon mahramlaridan bo'lgan Rahmonbergan oilasida tug'ilgan Bekjon bolaligidan ilmu ma'rifatga intilib voyaga yetadi. Otasi Rahmonbergan Xiva xonligi tarixida islohotchi bosh vazir Islomxo'ja (1872-1913)ning yordamchisi edi. U o'z ustozini bilan 20 asr boshlarida Xivada barpo etilgan pochta, telegraf, shifoxona, masjid va minora bunyod etilishida katta xizmat ko'rsatgan, ushbu inshoatlarning qurilish ishlariga boshchilik qilgan. Rahmonbergan jadidlarni qo'llab quvvatlovchi bosh vazir Islomxo'janing maslahatiga ko'ra, g'ayrat-shijoatli o'g'li Bekjonni Usmoniylar davlatiga o'qishga yubordi. Shu tariqa, Bekjon 1909-yilning iyulidan 1913-yilgacha Istanbul universitetida tahsil oldi" (2.87).

Bu davrda Usmoniylar davlatida Ismoil Gaspralining "Dinda, tilda, ishda birlik" shiori ostidagi "Yosh turklar" harakati jamiyatda keng faoliyat ko'rsatardi. Xivadagi madrasani bitirib, Istanbulda o'qiyotgan Bekjon shu harakat ta'siri bilan jadidchilik g'oyalariga berildi. Natijada 1913-yilda Istanbuldan jadid ziyolisi bo'lib qaytgan Bekjon Rahmon Xorazmda ham keng yoyilgan "Yosh xivaliklar" safiga qo'shildi.

1920-yilda xonlik tugatilib, Xorazm xalq respublikasi barpo etilgach, u "Yosh xivaliklar" kabi islohotchi safdoshlari bilan hukumat tarkibiga kirdi. Dastlab madaniyat, so'ngra xalq maorifi noziri, keyin XXR markaziy ijroiya qo'mita ish boshqaruvchisi bo'ldi.

"Bekjon Rahmonning madaniyat noziri sifatida qilgan eng katta ishi 1920-yil 11-aprelda Xorazmning o'tmishdagi madaniyati va osori atiqalarini kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish maqsadida xalq madaniyati muzeyini barpo etgani hamda unga rahbarlik qilganidir. Shuningdek, 1923-yilda Xorazmda ilk bor musiqa maktabini tashkil etib, voha musiqa nazariyasi va tarixi, Xorazm maqomlari hamda usullari, nota yozuvining ixtiro qilinishiga oid "Xorazm musiqiy tarixchasi" kitobini Devonzoda bilan birga yozib, Moskvada nashr ettiradi.

Shuningdek, Bekjon Rahmon 1920-yil 8-martda voha tarixida ilk bor matbuotga asos soldi. Ya'ni, shu sanadan boshlab nashr etila boshlangan "Inqilob quyoshi" gazetasining bosh muharriri sifatida faoliyat ko'rsatdi. Shuningdek, 1920-1924-yillarda vohada nashr etilgan "Qizil Xorazm", "Maorif", "Xorazm xabarleri", "Yordam", "Yoshlar ovozi", "Ishchilar tovushi", "Qopqon" singari gazetalarni ham tashkil etishga bosh-qosh bo'ldi. Ushbu nashrlarda Faqiriy, Komil Devoniy, Mutrib, Rog'ib singari shoirlarning she'ru g'azallarini chop ettiribgina qolmay, ularni tahlil etgan holda adabiy tahliliy maqolalar yozdi" (3.4).

1923-yilda “Otalar so‘zi” nomli kitobini nashr qildirib, unga Xorazmliklar orasida keng tarqalgan maqol, hikmatlarni kiritdi. Kitobda “ertaga osh qolsa-davlat, ish qolsa-mehnat”, “Davlat-og‘zibirchilik”, “Rohat-mehnatning orqasida”, “tek turgan to‘q yurar”, “Bir kun tuz yegan yerga 40 kun salom ber”, “Ota-ona taxt etar-baxt eta bilmas”, “O‘tini kavlasang o‘char, qo‘shnini kovlasang ko‘char”, “O‘g‘ri boyimas, yolg‘onchi yolchimas”, “Onasini ko‘r qizini ol, qirog‘ini ko‘r, bo‘zini ol” singari tarbiyaviy, pand nasihat ruhidagi 580ta maqollar, hikmatli so‘zlar mavjud.

Xalq maorifi noziri bo‘lib ishlagan paytida Bekjon Rahmon vohada yangi maktablar tashkil qilish, uzoq ovullardagi bolalarni maktabga jalb etish, ta‘lim maskanlarini o‘qituvchilar bilan ta‘minlash uchun jonkuyarlik qilgan. Shuningdek, Boboovun Salimov bilan birga maktablar uchun “Alifbe” va “O‘qish kitobi” darsliklarini yozib, chop ettirdi. Darslikga mumtoz va o‘z davridagi sharq hamda Xorazmlik shoirlarning didaktik asalarini ham kiritdi. Shuningdek, Xudoybergan Devonov bilan hamkorlikda Xorazm qog‘oz fabrikasini qurish bo‘yicha ham sa‘yi-harakatlar olib bordi.

“Bekjon Rahmon XXR rahbarlari orasida eng salohiyatli va milliy davlat qurish tashabbuskori bo‘lgani uchun ham 1920-yilda Xorazmga kelgan turkiy xalqlar ozodlik harakatining g‘oyaviy yo‘lboshchisi Zakiy Validiy uning uyida bo‘lgandi. Z. Validiyning 1969-yilda Turkiyada nashr etilgan “Xotiralar” kitobida Bekjon Rahmonning dunyoqarashi, ish faoliyati o‘rin olgan. Muallif bir o‘rinda dolg‘ali davrlarni quyidagicha xotirlaydi: “Mulla Bekjon Xivada zamonaviy madaniyatni rivojlantirish uchun katta fidoyilik ko‘rsatdi. Agar Rusiya xalaqit bermaganida, ular yosh Xiva hukumatiga katta xizmat qilgan bo‘lur edilar. Maorif vakili bo‘lgan mulla Bekjon-Istanbulda o‘qib kelgan bir yigit. Hukumat ishlaridan bo‘sh vaqtlarida madrasadagi hujrasiga kelar, o‘z qo‘li bilan palov pishirar, o‘sha vaqt uzoq suhbatlashar edik. U bir qancha asarlar yozdi”.

Bekjon Rahmon Zakiy Validiy kabi Shafqi Bekto‘ra, Fitrat, Cho‘lpon, Fayzulla Xo‘jayevlar bilan ham do‘st edi. U 1920-yilning avgustida Boku shahrida o‘tkazilgan, 30dan ortiq musulmon davlatlari vakillari ishtirok etgan sharq xalqlari qurultoyida ham faol qatnashgandi. Aynan Cho‘lpon bilan ham Bokuda o‘tkazilgan qurultoyda tanishib do‘st tutingandi. Ma‘lumki Boku qurultoyida Bekjon Rahmonov, Cho‘lpon, Zakiy Validiy, Anvar Poshsholardan tashqari Munavvar qori, G‘ozi Olim Yunusov, Mirmuhsin Shermuhammedov, Sobirjon Rahimiy singari ko‘plab Turkistonlik jadidlar ishtirok etishgandi” (4. 120).

Ayni paytda, Bekjon Rahmon 1920-yil 13-noyabrda Buxoro va Xorazm respublikalari o‘rtasida tuzilgan do‘stona hamda iqtisodiy, madaniy aloqalarga doir shartnoma tuzishga ham rahbarlik qilgan.

“1924-yilda o‘tkazilgan milliy davlat chegaralanishidan keyin XXR tugatilib Xorazm okrugi tashkil etilgach, Bekjon Rahmon 1925-1926-yillarda okrug maorif bo‘limi mudiri vazifasida ishlaydi. Keyin jadid do‘stlaridan, o‘sha vaqtda O‘zbekiston xalq komissarlari sovetining raisi bo‘lib ishlayotgan Fayzulla Xo‘jayevning taklifiga ko‘ra Samarqandda tashkil etilgan Fan qo‘mitasida faoliyatini davom ettiradi.

Shu davrdagi “Alanga”, “Yer yuzi” jurnallarida adabiyotshunoslik, tilshunoslikka oid maqolalarini chop ettirib, respublikaning old ziyolilaridan biri sifatida taniladi. Shu boisdan ham uni 1926-yilning 26-fevral 5-mart kunlari Boku shahrida o‘tkazilgan Birinchi Turkologiya qurultoyida qatnashish uchun O‘zbekiston delegatsiyasi tarkibiga kiritiladi. Ma‘lumki ushbu qurultoyda V.V. Bartold, S.E. Malov, A.A. Miller, S.F. Oldenburg, R.R. Poppe, A.N. Samoylovich, K. Yudaxin, V.B. Tomashevskiy kabi rus, M.F. Ko‘pruluzoda (turk), Paul Vittek (nemis), Bakir Cho‘ponzoda (qrim tatar), A. Boytursun (qozoq) singari dunyodagi mashhur 131 ta olimi qatnashgan. O‘zbekistondan esa Ashurali Zohiriy, Elbek, Rahim Inog‘omov, G‘ozi Olim Yunusov, Nazir To‘raqulov, Shokirjon Rahimiy, I. Sadriy, A. Abdujabborovlar qatorida Bekjon Rahmonov ham bor edi. Qurultoyda turkiy xalqlar adabiyoti va tilshunoslikka oid 38 ta ma‘ruza o‘qilgan va muhokama qilingandi. Muhokamada so‘zga chiqqanlar orasida Bekjon Rahmon ham bor edi. Aynan ana shu qurultoyda Navoiyning 500 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uning ijodini dunyoda ommalashtirish, targ‘ib qilish masalalari ko‘rib chiqilgandi” (5. 90).

Shu tarzda nafaqat O‘zbekiston miqyosidagi madaniy, adabiy tadbirlarda, balki dunyoda bo‘lib o‘tayotgan yetuk olimlar ishtirokidagi anjumanlarda ham faol qatnashayotgan Bekjon Rahmon respublikamizning eng faol ziyolisi sifatida tanilayotgandi. Biroq uning qatag‘on davrda bevaqt vafot etishi, jadid ziyolisi sifatida shakllangan shaxsning ko‘plab orzulari armon bo‘lib qolishiga olib keldi. Bekjon Rahmonning ijtimoiy siyosiy, madaniy, matbuot va adabiyot sohasidagi faoliyatini tadqiq

qilish bugungi istiqlol davri tadqiqotchilari oldidagi dolzarb vazifalardan bo‘lib qolmoqda. Bekjon Rahmon hamda Fitratning do‘stligi va ilmu fan, adabiyot va jamiyatdagi jarayonlardagi faoliyati esa tarixning yorqin sahifasi bo‘lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fitrat. Oila. “Ma’naviyat” nashriyoti. Toshkent.: 1999-yil, 14-bet.
2. U.Bekmuhammad. Xorazm va xorazmliklar. Uchinchi kitob. “Durdona” nashriyoti. Buxoro-2022-yil, 87-bet.
3. U.Bekmuhammad. “Turkiyada tahsil olgan Xorazmlik jadid”. “Hurriyat” gazetasi.2022-yil 30-mart.
4. S.Samandar, U.Bekmuhammad “Xorazm jadidchiligi: islohotlar, ta’lim va adabiyot”, "MILLENIUMUS PRINT" nashriyoti, Urganch.: 2024-yil, 120-bet.
5. U.Bekmuhammad “Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi”, "MILLENIUMUS PRINT" nashriyoti, Urganch- 2024-yil, 90-bet.



FITRAT VA CHO‘LPON IJODIDA G‘OYAVIY MUSHTARAKLIK VA UNING BADIY TALQINLARI

¹Tojiyeva Mushtariy Xolmo‘minova,
O‘zMU Jurnalistika va O‘zbek Filologiyasi fakulteti
Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
tojiyevamushdari@gmail.com

Ilmiy rahbar: Boltaboyev Hamudulla Ubaydullayevich,
filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlarida o‘zbek adabiyotida muhim o‘rin tutgan jadid adabiyoti namoyandalari — Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho‘lpon ijodidagi g‘oyaviy mushtaraklik masalasi tahlil qilinadi. Mazkur asarlarda milliy uyg‘onish, ozodlik, ma‘rifatparvarlik, shaxs va jamiyat munosabatlari kabi umumiy g‘oyalar qanday badiiy shaklda ifodalanishi yoritiladi. Shuningdek, Fitrat va Cho‘lponning ijodiy uslubi va ularning badiiy talqinlaridagi o‘ziga xosliklar ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, milliy uyg‘onish, ozodlik, ma‘rifatparvarlik, badiiy talqin, Fitrat, Cho‘lpon.

Annotation: This article analyzes the issue of ideological affinity in the works of prominent representatives of Jadid literature in early twentieth-century Uzbek literature—Abdurauf Fitrat and Abdulhamid Cho‘lpon. It examines how shared ideas such as national awakening, freedom, enlightenment, and the relationship between the individual and society are artistically expressed in their works. In addition, the study explores the distinctive features of Fitrat’s and Cho‘lpon’s creative styles and highlights the originality of their artistic interpretations.

Key words: Jadidism, national awakening, freedom, enlightenment, artistic interpretation, Fitrat, Cho‘lpon.

Аннотация: В данной статье анализируется проблема идейной общности в творчестве видных представителей джадидской литературы начала XX века в узбекской литературе — Абдурауфа Фитрата и Абдулхамида Чолпона. В работе рассматривается, каким образом такие общие идеи, как национальное пробуждение, свобода, просветительство, а также взаимоотношения личности и общества, находят художественное воплощение в их произведениях. Кроме того, анализируются особенности творческого стиля Фитрата и Чолпона, а также своеобразие их художественных интерпретаций.

Ключевые слова: джадидизм, национальное пробуждение, свобода, просветительство, художественная интерпретация, Фитрат, Чолпон.

KIRISH. Prezident Shavkat Mirziyoyev qarashlarida Fitrat va Cho‘lpon — nafaqat tarixiy shaxslar, balki bugungi va kelajak taraqqiyot uchun ma‘naviy yo‘l ko‘rsatuvchi buyuk siymolar sifatida talqin etiladi. Ularning milliy uyg‘onish, ozodlik va ma‘rifat g‘oyalari bugungi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘li bilan uzviy bog‘liqdir [1.408]. XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan siyosiy va madaniy o‘zgarishlar jadidchilik harakatining shakllanishiga asos yaratdi. Jadid adabiyoti vakillari — Fitrat va Cho‘lpon — xalqni jaholatdan qutqarish, milliy ongini uyg‘otish, ilm-fan va madaniy taraqqiyotga chorlovchi g‘oyalarni ilgari surdilar. Shu ma‘noda, ularning ijodida milliy uyg‘onish, shaxs erki va jamiyatning rivojlanishi g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. Mazkur maqola ushbu g‘oyalarning ikki muallif ijodidagi mushtaraklik jihatlarini aniqlash va ularning badiiy talqin usullarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi — Fitrat va Cho‘lpon ijodidagi g‘oyaviy yaqinlikni aniqlash, ularning badiiy ifoda vositalari orqali qanday shakllanishini ko‘rsatishdir.

MAVZUGA DOIR ABIYOTLAR SHARHI. O‘zbek adabiyotshunosligida jadid adabiyoti, uning yetakchi namoyandalari hamda ularning g‘oyaviy-estetik qarashlari masalasi ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Xususan, Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho‘lpon ijodi milliy uyg‘onish, ozodlik g‘oyalari va ma‘rifatparvarlik harakatining badiiy ifodasi sifatida adabiyotshunos olimlar e‘tiborida bo‘lib kelmoqda. Fitrat ijodi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda uning jadidchilik

mafkrasini shakllantirishdagi o'zni, adabiy-estetik qarashlari hamda dramatik va publitsistik asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalar keng tahlil qilingan. U haqdagi tadqiqotlarda Fitratning milliy ongini uyg'otishga qaratilgan qarashlari, Sharq va G'arb madaniyati uyg'unligini targ'ib etishi, shaxs va jamiyat munosabatlariga doir qarashlari alohida ta'kidlanadi. Cho'lpon ijodiga bag'ishlangan adabiyotlarda esa uning lirikasidagi milliy ruh, erk va ozodlik g'oyalari, inson qalbidagi iztiroblar hamda mustamlaka davri fojialarining badiiy ifodasi asosiy tadqiqot obyekti bo'lib kelgan. Cho'lpon she'riyati va nasrida shaxs erkinligi, vatan taqdiri va ma'naviy qullik masalalari markaziy o'rin egallashi ko'plab olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Shu bilan birga, Fitrat va Cho'lpon ijodini qiyosiy jihatdan o'rgangan tadqiqotlar nisbatan kam bo'lib, mavjud ishlar asosan ularning alohida ijodiy merosini tahlil qilishga qaratilgan. Ayrim adabiyotlarda jadid adabiyotiga xos umumiy g'oyalar — milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik, ozodlik va yangicha tafakkur masalalari umumiy kontekstda yoritilgan bo'lsa-da, Fitrat va Cho'lpon ijodidagi g'oyaviy mushtaraklik va uning badiiy talqinlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqotda o'zbek jadid adabiyotining yetuk namoyandalari Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho'lpon ijodidagi g'oyaviy mushtaraklik hamda uning badiiy talqinlarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida zamonaviy adabiyotshunoslik metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi adabiy tarixiy, qiyosiy-tipologik va tahliliy yondashuvlarga asoslanadi. Avvalo, adabiy-tarixiy metod orqali Fitrat va Cho'lpon ijodi XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy muhit, jadidchilik harakati va milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganildi. Bu metod yozuvchilarning asarlarida aks etgan g'oyaviy qarashlarning shakllanish sabablarini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, qiyosiy-tahliliy metod yordamida Fitrat va Cho'lpon asarlaridagi umumiy g'oyalar — milliy ozodlik, ma'rifatparvarlik, shaxs va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy adolatsizlikka munosabat masalalari o'zaro solishtirildi. Ushbu yondashuv ikki adib ijodidagi g'oyaviy mushtaraklik bilan bir qatorda, ularning badiiy talqinlaridagi farqli jihatlarni ham ochib berishga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida badiiy-estetik tahlil metodi qo'llanilib, asarlardagi obrazlar tizimi, ramziy ifodalar, poetik vositalar hamda uslubiy xususiyatlar tahlil qilindi. Bu metod Fitrat va Cho'lpon ijodida g'oyaning badiiy shaklga aylanish jarayonini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bundan tashqari, manbashunoslik va matnshunoslik elementlari asosida adiblarning tanlangan asarlari, ilmiy-tanqidiy adabiyotlar va tadqiqotchilar qarashlari o'rganildi. Olingan ilmiy xulosalar tizimli umumlashtirish va mantiqiy tahlil asosida bayon qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Abdurauf Fitrat va Abdulhamid Cho'lpon ijodini birlashtiruvchi eng muhim jihat — milliy ozodlik, ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalaridir. Har ikki adib XX asr boshlaridagi murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitda xalqning tanazzul sabablarini badiiy tafakkur asosida tahlil qilib, jamiyatni ma'naviy va ijtimoiy yangilash g'oyasini ilgari suradi. Biroq bu umumiy g'oyalar Fitrat va Cho'lpon ijodida turli badiiy shakl va uslublar orqali talqin etiladi. Fitrat ijodida milliy tanazzul masalasi tarixiy tahlil va falsafiy mushohada asosida yoritiladi. Uning dramatik, publitsistik va ilmiy asarlarida mustamlakachilikka qarshi ruh, milliy g'urur va ozodlik g'oyalari yetakchi o'rin tutadi. Fitrat jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni ochib berishda badiiy obraz va dramatik vaziyatlardan g'oyani aniq va keskin yetkazish vositasi sifatida foydalanadi. Xususan, "Abulfayzxon" dramasi hukmdor va amaldorlar timsoli orqali xalqdan uzilgan, johil hokimiyatning jamiyatni halokatga olib borishi badiiy-falsafiy asosda ko'rsatiladi. Hukmdorning xalq jimligini davlat tinchligi deb bilishi mustamlakachilik mafkrasiga xos qarash sifatida talqin etilib, bu jimlik ezilgan va huquqsiz jamiyat holatini ifodalaydi. Cho'lpon ijodida esa milliy ozodlik va uyg'onish g'oyalari lirizm, poetik obrazlar va hissiy dramatism orqali talqin etiladi. Uning she'riyati va nasriy asarlarida shaxs erki, jamiyat bosimi, insonning ichki iztiroblari va ozodlikka intilishi markaziy mavzu sifatida namoyon bo'ladi. "Kecha va kunduz" romanida xalqning ruhiy holati va mustaqillikka bo'lgan intilishi inson qalbi kechinmalari orqali ifodalanadi. Cho'lpon badiiy talqinda g'oyani bevosita targ'ib etishdan ko'ra, estetik ta'sir va ruhiy kechinmalar orqali o'quvchiga yetkazadi. Cho'lponning "Yurt yo'li" she'ri millatning ozodlik sari mashaqqatli yo'lini ramziy-falsafiy mazmunda ifodalaydi. Asarda yo'l millatning tarixiy taqdiri va taraqqiyot sari intilishini, yo'lchi esa ongli, fidoyi shaxs timsolini ifodalaydi. Yulduz va kunduz obrazlari esa umid, maqsad va yorug' kelajak ramzlari sifatida talqin etiladi. She'rda inson jamiyatdan ajralgan emas, balki uning taqdiri uchun mas'ul va yetakchi kuch sifatida tasvirlanadi. Bu holat Cho'lpon ijodida shaxs va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasining

ustuvorligini ko'rsatadi. Olib borilgan tahlillar natijasida Fitrat va Cho'lpon ijodidagi g'oyaviy mushtaraklik ularning badiiy uslublaridagi farqlarga qaramay, yagona maqsad — milliy ongni uyg'otish va jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilashga xizmat qilgani aniqlandi. Fitratda bu g'oyalari ratsional, tarixiy-falsafiy tahlil orqali ifodalangan bo'lsa, Cho'lpon ijodida lirizm, poetik ramzlar va hissiy tasvirlar orqali badiiy mukammallikka erishadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Fitrat va Cho'lpon ijodini qiyosiy tahlil qilish jadid adabiyotining ichki g'oyaviy yaxlitligini ochib beradi. Har ikki adib shaxs erkinligini millat erkinligi bilan uzviy bog'lab talqin qilgan holda, ongli va ma'rifatli inson jamiyat taqdirini belgilovchi asosiy kuch ekanini badiiy asosda isbotlaydi. Ularning asarlarida milliy uyg'onish g'oyalari turli estetik shakllarda namoyon bo'lsa-da, mazmunan bir-birini to'ldiradi va o'zbek adabiyotida jadidchilik mafkurasining shakllanishi hamda rivojida muhim o'rin tutadi. Fitrat va Cho'lpon ijodi yagona jadid adabiy jarayoni doirasida o'rganish zarur bo'lgan hamda ularning badiiy merosi bugungi adabiyotshunoslik uchun dolzarb ilmiy manba ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA. Har ikki ijodkor asarlarida shaxs va jamiyat munosabatlari muhim o'rin tutadi. Abdurauf Fitrat shaxsni jamiyatni o'zgartiruvchi, tarixiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi kuch sifatida talqin etsa, Abdulhamid Cho'lpon shaxsning jamiyat bosimi, ijtimoiy adolatsizlik va mustamlaka sharoitidagi fojiaiy holatini chuqur badiiy ifodalaydi. Bu farq ularning g'oyaviy mushtarakligini inkor etmaydi, aksincha, jadid adabiyotiga xos badiiy yondashuvlarning rang-barangligi va estetik imkoniyatlarini yanada boyitadi. Fitrat va Cho'lpon ijodida g'oyaviy mushtaraklik jadidchilik mafkurasini bilan chambarchas bog'liq bo'lib, milliy uyg'onish, ozodlik va ma'rifat g'oyalari asosida shakllangan. Har ikki adib mustamlakachilik sharoitida xalqning tanazzul sabablarini ochib berib, milliy ongni uyg'otishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Fitrat bu g'oyalarni asosan ratsional, tarixiy-falsafiy va dramatik yo'sinda talqin etsa, Cho'lpon ularni lirizm, poetik obrazlar va chuqur ruhiy kechinmalar orqali badiiy mukammallikka yetkazadi. Ularning badiiy talqinlari turlicha bo'lishiga qaramay, asosiy maqsad bir — xalqni uyg'otish, milliy ongni yuksaltirish, ma'rifat va taraqqiyot yo'liga chorlash hamda erkin jamiyat barpo etish g'oyasini ilgari surishdan iborat. Shu jihatdan Fitrat va Cho'lpon ijodi o'zbek adabiyotida jadidchilik mafkurasining badiiy ifodasi sifatida muhim bosqichni tashkil etadi. Mazkur tadqiqot natijalari Fitrat va Cho'lpon ijodini qiyosiy o'rganish jadid adabiyotining ichki g'oyaviy yaxlitligini ochib berishini ko'rsatadi. Ularning asarlarida shaxs erkinligi millat erkinligi bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinib, ongli va ma'rifatli inson jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi omili sifatida ilgari suriladi. Bu esa Fitrat va Cho'lpon badiiy merosining bugungi adabiyotshunoslik tadqiqotlari uchun ham dolzarb va muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Natijada, Fitrat va Cho'lpon ijodidagi g'oyaviy mushtaraklik o'zbek adabiyotining taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib, u nafaqat tarixiy-adabiy jarayonni anglashda, balki zamonaviy adabiy tafakkur va milliy ong rivojini tadqiq etishda ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev S. M. *Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari*. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020, 408-bet.
2. Abdurauf Fitrat. Abulfayzxon (dramasi). 2013. <https://www.ziyouz.com>.
3. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. Toshkent: 2010.
4. Fitrat A. Tanlangan asarlar. Toshkent: 1992.
5. Cho'lpon A. She'riy to'plamlar va dramalari. Toshkent: 1995.
6. Qodirov, O. O'zbek jadid adabiyoti tarixi. Toshkent: 2008.
7. Sobirov, M. Milliy uyg'onish va jadidchilik. Toshkent: 2007.

ABDURAUF FITRATNING “CHIN SEVISH” DRAMASIDA MILLIY UYG‘ONISH G‘OYASINING BADIY IFODASI

*Ortiqov Azim Tolib o‘g‘li,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘TA yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar: Xolikova Nodira,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid adabiyotining yorqin vakili – Abdurauf Fitratning “Chin sevish” dramasi misolida millatparvarlik, vatanparvarlik, jaholat uyqusida uxlayotilgan xalqni uyg‘otish g‘oyasi Ovrupa ta’limini olgan hind yoshlari misolida tasvirlangan. Shuningdek, ushbu asar millatning ertangi kuni va umidi bo‘lgan yosh avlodni shunchaki o‘qitishga emas, balki uqishga da’vat etadi. Mazkur asarda ikki siyosiy maslak vakillari to‘qnashadi. Ularning birinchisi, Cho‘lpon ta’biri bilan aytganda, Hindiston o‘zgarishchilaridan bo‘lgan Karimbaxshxon hamda Sarvarxon kabi asar qahramonlarining ingliz mustamlakachilari siyosatiga qarshi munosabati va egriyurak, anglizparast Normuhammadxonning esa, aksincha, ingliz g‘oyalarini ma’qullashi orqali ijodkorning davr voqealarini ijtimoiy-siyosiy va badiiy-estetik jihatdan uyg‘un holda yarata olgani tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: millatparvarlik, Ovrupa, mustamlakachilik, jadidchilik, ziyoli, Olmoniya, demokratik.

Аннотация: В данной статье рассматривается драма «Чин севиш» одного из ярких представителей джадидской литературы Абдурауфа Фитрата и идеи национализма, патриотизма, пробуждения народа, спящего в невежестве, на примере индийской молодёжи, получившей европейское образование. Также это произведение призывает молодое поколение, являющееся завтрашним днём и надеждой нации, не просто обучаться, но и осознавать учёбу. В данном произведении сталкиваются представители двух политических идей. Первая – это, по выражению Чулпана, герои Каримбахшхан и Сарвархан, относящиеся к индийским реформаторам, их отношение против политики английских колонизаторов, а также то, что коварный, сторонник англичанов Нормухаммадхан, наоборот, одобряет английские идеи. Через это анализируется, как творец смог создать события эпохи в социально-политическом и художественно-эстетическом единстве.

Ключевые слова: национализм, Европа, колониализм, джадидизм, интеллигенция, Германия, демократический.

Annotation: In this article, the drama “Chin sevish” by one of the bright representatives of Jadid literature Abdurauf Fitrat, and the ideas of nationalism, patriotism, awakening the people sleeping in the sleep of ignorance are seen through the example of Indian youth who received European education. Also, this work calls the young generation, which is the future day and hope of the nation, not just to be taught, but also to understand learning. In this work, the representatives of two political ideas collide. The first of them, in the expression of Cho‘lpan, is the attitude of the characters of the work, such as Karimbakhshkhan and Sarvarkhan, who were among the reformers of India, against the policy of the English colonizers, and the crooked-hearted, English-inclined Normukhammadkhan, on the contrary, approving English ideas, through which it is analyzed how the creator was able to create the events of the era in social-political and artistic-aesthetic harmony.

Key words: nationalism, Europe, colonialism, Jadidism, intellectual, Germany, democratic.

Millatni uyg‘otish yo‘lida o‘z jonidan kechgan jadid ma’rifatparvari Abdurauf Fitrat dramaturgiyada o‘ziga xos maktab yaratgan. “Fitratning milliy-ozodlik g‘oyalari bilan sug‘orilgan “Chin sevish” va “Hind ixtilolchilari” pyesalarini o‘rganish bugungi kunda, ayniqsa, muhim ahamiyatga molik. O‘zbek milliy dramaturgiyasida birinchi bo‘lib milliy ozodlik g‘oyalarini ifodalagan bu asarlarning Fitrat ijodida egallagan o‘rni juda katta. Ushbu pyesalarni keng va atroflicha tadqiq qilmasdan turib, nafaqat Fitrat ijodini, balki jadid yozuvchilarining 20-yillarda mustaqillik uchun olib borgan kurashlarini ham to‘la tasavvur etish qiyin” [2:4].

“Chin sevish” dramasi to‘liq o‘qib chiqmagan kitobxon, bir qarashda asarda ishq-muhabbat, oshiq-ma’shuqlik mavzusi kuylangan, deb o‘ylaydi. Aslini olganda, bu asar tarixning qora kunlari, mustamlakachilik zulmiga nisbatan nafrat, chirkinlik kabi illatlarni ochib beradi. Begali Qosimov o‘z asarida Fitrat 18 yoshga qadar “Mir Arab” madrasasida va keyinchalik Turkiya, Hindiston hamda Arabiston kabi davlatlarda bo‘lganligini aytadi [3:505]. Bundan shuni anglash mumkinki, Fitrat Angliyaning Hindistonda olib borayotgan mustamlakachilik siyosatidan xabardor bo‘libgina qolmasdan, uni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan edi.

Ushbu asar 1920-yilda yozilgan. Bu pyesada Hindiston xalqining Angliya zulmiga qarshi ozodlik, mustaqillik uchun olib borgan kurashi aks etadi. Fitrat bu dramasi bilan nima demoqchi? Aslida, ijodkor ushbu pyesa orqali Turkistonda bo‘layotgan zulmkor voqealarni Hindiston misolida tasvirlaydi. Shu sababli bu asar o‘z davri uchun benihoya dolzarb asarlar qatorida turadi. Turkiston xalqining erk, ozodlik uchun kurash g‘oyasi XX asr boshlariga kelib yangi pallaga kirdi. Yangi asr boshlarida jadid deb atalgan oqim paydo bo‘ldi. O‘z hayotini, butun borlig‘ini yurt, millat ozodligi, hurli va ravnaqiga baxsh etgan istiqloq darg‘alarning millatni uyg‘otish yo‘lidagi harakatlari kun tartibiga qo‘yildi. Bu davrda Katta Ergash, Kichik Ergash, Madaminbek kabi qo‘rboshilarning qizil armiyaga qarshi olib borayotgan shiddatli janglari avj oldi. Bundan tashqari, bu kabi voqealar nafaqat bizning o‘lkamizda, balki Hind diyorida ham sodir bo‘layotgan edi. Millatni xo‘rlash, uning vatanparvarlik ruhini so‘ndirish hamda botqoqlikka chuqurroq botqizish Fitrat yashagan davr, ya‘ni XX asrda o‘zbeklar ustidan hukmronlik qilayotgan chor Rossiyasining asosiy maqsadi edi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, birinchi jahon urushidan so‘ng Hindistonda ingliz zulmiga qarshi namoyishlar va qo‘zg‘olonlarning avj olishi “Chin sevish” dramasi orqali yoritib beriladi. Aslini olganda, bu asarni sahnaga olib chiqish va ommaga ko‘rsatish mustaqillik, birdamlik uchun da‘vat edi.

Asardagi hurfikr g‘oyalar asarning bosh qahramonlari Karimbaxshxon hamda Sarvarxonning dialogi orqali yorqin ifoda etiladi. Karimbaxshxonning Rahmatullohga *“Adolat tushunchasi Ovrupa yuragiga kirmas bu o‘g‘urli qush, u qorong‘u yerlarda yashirin qolsa ham, bo‘g‘ilib qolar, yashay olmas”* [1:9] jumlasida sho‘ro hukumatining yurtimizga qilayotgan “adolatli” siyosati baribir ko‘pga cho‘zilmasligi hamda bir kunmas-bir kun tugashi nazarda tutiladi. Hindistonda pyesa yozilgan yillarda milliy ozodlik kurashi yanada kuchayadi. Aslida Buyuk Britaniya imperiyaning eng boy qismi bo‘lgan Hindistondan ajralishni xohlamas edi. Bu davrda Hindiston aholisi 320 million kishini tashkil qilgan. Hind xalqi milliy ozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi qudratli siyosiy tashkilot – Hindiston Milliy Kongressi (HMK) partiyasi kurashning kuch ishlatish usuliga qarshi chiqdi. HMKga 1915-yildan boshlab hind xalqining buyuk farzandi Maxatma Gandi boshchilik qiladi. Uning rahbarligi davrida HMKda kurashning kuch ishlatmaslik, faqat tinch, zo‘rliksiz shakliga tayanadigan yo‘li g‘alaba qozondi. Bu yo‘l tarixga kurashning gandicha yo‘li nomi bilan kirgan. M.Gandining tinch kurash yo‘li hind xalqi keng qatlamini milliy ozodlik kurashiga jalb etish imkonini berdi. Gandizm – diniy-falsafiy tizim bo‘lib, idealizm, induizm, jayнизм va xristianlik elementlarini o‘zida birlashtirgan. Uning asosida “haqiqat, ishonch, hech kimga yomonlik qilmaslik” yotgandi.

Fitrat ham yurtni mustaqillik sari da‘vat etadi. Ziyoli qatlam vakillaridan bo‘lgan Karimbaxshxon *“Ovrupa bilimlarini olish kerak o‘rganmak, albatta, kerakdir. Ovrupada o‘qimoq, ovrupalilarni insofli, adolatli deb maqtamoq uchun emas, ulardan o‘zimizni saqlagani, tishli bo‘lmoq uchun kerakdir. Birda shuni bilmoq kerakki, insofsizlik bilimda emas, Ovrupadadir”* [1:10] deb aytgan so‘zlarida Ovrupadan ilm olishimiz lozim, ammo adolatni olish nojoiz, mazmuni anglashiladi. Xususan, 1917-yil Rossiyadagi Oktyabr to‘ntarishidan so‘ng hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar Turkistonda g‘alaba qilgan bu milliy demokratik davlatni ag‘darib, mustamlakachilik siyosatiga asoslangan sovet tuzumini o‘rnatdilar. Turkiston respublikasining Turor Risqulov, Fayzulla Xo‘jayev kabi rahbarlari, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat singari maorif va madaniyat fidoyilari bu mustamlakachilikdan qutulish yo‘llarini izlay boshlaydilar. Ular, birinchi navbatda, o‘sha davrda G‘arbiy Yevropada eng taraqqiy etgan mamlakat – Olmoniya, ya‘ni Germaniya erishgan yutuq va tajribalarni o‘rganish zarur deb bildilar, shu sababli ular yoshlarning o‘qish, yotoq-joy uchun ketadigan harajatlarini qoplab berdilar. Misol qilib oladigan bo‘lsak, xorijdagi turkistonlik talabalarga davlat tomonidan beriladigan stipendiyalaridan tashqari, ularga yordam ko‘rsatish uchun tuzilgan “Ko‘mak” jamiyati orqali xayriya mablag‘lari yuborib turilgan. Turkiston Respublikasi Maorif komissarligi kollegiyasining 1921-yil 7-maydagi majlisida xorijga mahalliy millat vakillaridan

talabalar yuborishning zarurligi ma'qullanadi va Komissarlar kengashi oldiga o'zbeklardan 10, qirg'izlardan 10, turkmanlardan 5 nafar kishini yuborishni so'rash masalasi qo'yiladi. 1922-yil oxirida Turkiston va Buxorodan 70 ga yaqin turli yoshdagi yigit va qizlar Germaniyaning turli shaharlaridagi oliy va o'rta maxsus bilim yurtlariga o'qish uchun yuboriladi. Ular qishloq xo'jaligi, tibbiyot, tekstil sanoati, kimyo, elektrotexnika, konchilik, falsafa, tibbiyot, pedagogika kabi sohalarni o'rganish uchun yuborilgan.

Asarda ma'rifatchilik g'oyalari nafaqat Karimbaxshxon, o'qimishli, Ovrupa ta'limini olgan Sarvarxon tomonidan ham ilgari surilgan. Xususan, uning *"Men har narsani Ovrupadan o'rgandim. Ovrupaning insofsizligini-da o'zidan o'rgandim. Ovrupaning buyuk bir fazilati kuchsizlarni aldab, ularni qonini emmakdir. Ovrupada insof va adolat degan narsa yo'qdir"* [1:12] degan jumlasini orqali o'z aksini topgan. Ammo jamiyatning har bir a'zosi Karimbaxshxon va Sarvarxon kabi yurtparvar shaxslar emasligi, ularning ichida rus millatiga xayrixoh insonlarning bor ekanligi asarda Rahmatullohning *"Mana men Angletariyada shuncha o'qudim, o'quvchilari, o'qituvchilari, yozuvchilari, faylasuflari bilan ko'rishdim, ammo birortasida siz aytgan yovliklarni ko'rmadim"* [1:10] degan e'tirozi orqali o'quvchiga ochib beriladi. Rahmatullohning fikriga javoban Karimbaxshxon *"Ovrupaliklarni eng yomon yovuz bo'la turib, o'zini eng yaxshi do'stimiz kabi ko'rsatishi va Goldstonning Qur'onni ko'rsatib: "Bu bor ekan, biz yashay olmaymiz"* [1:10], degan jumlasini orqali bizning millatimizni, dinimizni kamsitish va dushman sifatida ko'rishi aytiladi. Fitrat tariximizning qora sahifalarini badiiy yo'sinda, ovrupaliklar misolida ochiq-oydin ko'rsatib beradi. Mana, Fitratning millatsevar, xalqparvar, fidoyi inson ekanligining yana bir isboti.

Xulosa qilib aytganimizda, har bir xalqning mustaqilligi va ravnaqi uchun jon-jahdi bilan kurashgan millatparvar fidoyilari bo'lib, ularning g'oyalarini ommaga taqdim qilishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Yozuvchi-adiblar o'z orzularini asarlariga jamlab, xalqqa aytmoqchi bo'lgan so'zlarini o'z personajlari tilidan aytishga harakat qiladilar. Shunday asarlardan biri bu Fitratning "Chin sevis" dramasi ekanini yuqoridagi tahlillar ham tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 3-jild. – T.: Ma'naviyat, 2003. – 256 bet.
2. Davurboyeva N. Fitrat dramalarida milliy ozodlik g'oyasining talqini. Filol.fan.dokt....diss. – T., 1999.
3. Lafasov M., Jo'rayev U. Jahon tarixi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – T.: Turon-Iqbol, 2005. – 368 bet.
4. Qosimov B. Tanlangan asarlari. 3-jild. – T.: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 638 bet.
5. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edi. – T.: Akadem-xizmat, 2006. – 256 bet.
6. www.arxiv.uz sayti



TAQLID SO‘ZLAR USLUBIYATI

¹*Tojimatov Rasuljon G‘anijonovich,*
University of Business and Science oliy ta‘lim muassasi,
Til va adabiyot ta‘limi kafedrası dotsent,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
rasuljontojimatov966@gmail.com

²*Holmurodova Nigora G‘anijonovna*
Andijon viloyati Baliqchi tumaniga qarashli
7-umum ta‘lim maktabi Ingiliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: O‘zbek tilidagi taqlid so‘zlarning uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Taqlid so‘zlarning badiiy, og‘zaki va yozma nutqdagi o‘rni, ularning ekspressivlik va obrazlilikni kuchaytirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, taqlid so‘zlarning fonetik, semantik va stilistik jihatlari misollar asosida ochib beriladi. Tadqiqot natijalari taqlid so‘zlarning nutq ta‘sirchanligini oshirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: taqlid so‘zlar, uslubiyat, nutq ifodaliligi, ekspressivlik, badiiy til, fonetik vositalar.

Annotation: This annotation examines the stylistic features of onomatopoeic words in the Uzbek language. It analyzes their function in literary and spoken discourse, as well as their role in enhancing expressiveness and imagery. The phonetic, semantic, and stylistic aspects of onomatopoeic words are discussed with illustrative examples. The study highlights the significance of these words in increasing the emotional and expressive impact of speech.

Key words: onomatopoeic words, stylistics, speech expressiveness, emotiveness, literary language, phonetic devices.

Аннотация: В данной аннотации рассматриваются стилистические особенности звукоподражательных слов в узбекском языке. Анализируется их роль в художественной и разговорной речи, а также значение в усилении выразительности и образности высказывания. Особое внимание уделяется фонетическим, семантическим и стилистическим характеристикам звукоподражательных слов. Результаты исследования показывают их важность в повышении эмоционального воздействия речи.

Ключевые слова: звукоподражательные слова, стилистика, выразительность речи, экспрессивность, художественный язык, фонетические средства.

Taqlidiy so‘zlar obyektiv olamdagi narsa va hodisalar harakatining tovush tomoniga taqlid etish orqali yuzaga kelgan so‘zlardir. Taqlidiy so‘zlardan ifodalangan tovush jonli va jonsiz tabiatning harakatidan yuzaga keluvchi turli-tuman ovoz va ohanglardan iboratdir. Shunga ko‘ra taqlidiy so‘zlarni ikki katta guruhga ajratamiz: 1) Jonli tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar 2) Jonsiz tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar.

Jonli tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar. Bunday tasviriy so‘zlarning bir guruhi insonlar tovushiga taqlid qilish natijasida vujudga keladi. Bular ikki xil:

Insonlar nutqi va ruhiy holati bilan bog‘lik tovushlarga taqlid: xi-xi-x-xi, xa-xa-xa, pik-pik kabilar: - Lab-bay...xa...xa...a . Qizlar piq-piq qilishdi. Shov-shuv ko‘tarildi, hamma o‘sha tomonga yopirildi. Insonlar harakati va qo‘zgalonidan yuzaga keluvchi tovushlarga taqlid: gurr, gurs-gurs, tap-tap, dir-dir, dag‘-dag‘ .

So‘ridagilar gur etib qo‘zg‘alishdi.

Taqlidiy so‘zlarning bir guruhi qush va parrandalar tovushiga taqlid qilish natijasida vujudga kelgan. Qush va parrandalar ovozigacha taqlid qilinadi: ku-ku-ku, chirq-chirq, ku-ku va boshqalar. Misollar: O‘sha jo‘ja bo‘ynini qimirlata olmay, chiyillab oyisining oldiga keldi: chiy-chiy, churk-churk, voy oyjon...

Qush va parrandalar harakati, uchishi, suzishi, cho‘chishi kabilardan yuzaga keluvchi tovushlarga taqlid qilinadi: Pir-pir, part, viz-viz, gur, pirr. Misol uchun keltiramiz.

Devpechak orasidan “part” etib bedana ko‘tarildi. Cho‘chib tushgan yigit yoqasini ochib tufiladi.

... bir juft tustovuq “parr” etib ko‘kka ko‘tarildi. Hayvonlar ovozigiga hamda ularning harakati bilan bog‘liq tovushlarga taqlid qilinadi. ba, ba-ba, vov-vov, hang-hang, mov-mov, miyo-miyov, uv, u-u-v, xir, xir-xir, ma-ma, mo-mo, dik-dik kabilar. Masalan, allanarsalar chiy-chiy qiladi oy chiqqan payt edi deng, bunday qaragam, daraning o‘rtasidagi ko‘kalamzorda bir gala to‘ng‘iz. (qo‘y) Ma...ma... Salom ovchi ota! (Echki) Em...em... Salom, salom otaxon ! (Sigir) Mo...mo... Salom !

Chayladan nariroqda tumshig‘ini bag‘riga qisib, mudrab yotgan targ‘il dik etib o‘rnidan turib ketdi.

Mayda jonivor hamda hashoratlarning sharpalari va ovozlari taqlid qilinadi: ging –ging, vish, vish-vish, viz-viz, g‘ung-g‘ung va shu kabilar.

Sardor chigirtka birdan dahshatli chirillab yubordi. Shundan keyin atrofda ham “chirr-chirr” degan tovushlar eshitilaverdi.

Jonsiz tabiat tovushlariga taqlid qilingan tasviriy so‘zlar. Bu guruh taqlidiy so‘zlar Har xil jismlarning tovushlariga taqlid qilish natijasida vujudga keladi. Jismlarning bir-biriga urilishi, sinishi, qisilishi, ishqalinishi, uzilishi natijasida hosil bo‘lgan tovushga taqlid qilinadi: tak-tuk, tak, chik, chirt, chirt-chirt, shak, shak-shuk, taraq-turuq, dong-dung, ding-ding, duk-duk, pirs-pirs, kirs, kars-kurs, kirs-kirs, giyk-giyk, giyt-giyt, part va shu kabilar.

Masalan, shipning qayeridir “qirs” etdi, qayerdadir kaltakesak chirqilladi. (A.K) Eshik “g‘iyt” etdi. Bittasining tizzasiga qo‘yib surupni ochgan ham ediki, bir narsa “shiq” etib yerga tushdi. To‘rt yigit bilan to‘rt tarafga shoxlab ketgan quchoq sig‘maydigan yog‘ochlarga chiqib, uzun hoda bilan “qars-qars” qoqa berdi. Navisa uning piyozni g‘arch-g‘urch chaynab non bilan tushirayotganini zavqlanib tomosha qilarkan so‘zlarini mazmunini chaqishga urinardi.

Qattiq jismlarning havoda harakatidan yuzaga keluvchi tovushlarga taqlid qilinadi: ship-ship, chiv-chiv, shuv-shuv, guv-guv va boshqalar. Tepasidan, yonidan shuv-shuv uchib o‘tayotgan qushlar. Tevaragida qushlarning “chiv-chiv”i eshitildi. Shu ondan boshlab u kuzatishdan, o‘ylashdan, tushunishdan ojiz qoldi – yurakni uzib oladiganday mash‘um “uv” bilan bombalar uchdi. Yumshoq hamda elastik jismlarning bosilishi, siqilishi yoki fazodagi harakatidan paydo bo‘luvchi tovushlarga taqlid qilinadi: bilk-bilk, pilch-pilch, ship-ship, chip-chip, sulk-sulk va shu kabilar.

Misollar: Ko‘chaning bu beti erigan: chilp-chilp loy u beti metin o‘tmaydigan to‘ng. Oyog‘ining ostida yopishqoq loy chilp-chilp etadi, bexosdan botib, ko‘lop suv shaloplaydi. Suyuq jismlar harakati – oqimi, chayqalishi, tomishi, to‘lqinlashinishi, sochilishidan paydo bo‘luvchi tovushlarga taqlid qilinadi: lak-luk, lak-lak, lik-lik, kult-kult, shov-shov, vikir-vikir va boshqalar. Misollar: O‘ktam sovuq xushtam choyni qult-qult yutib, qo‘li bilan lablarini artdi ... Soy uncha katta bo‘lmasa ham nihoyatda tez oqar, “kulk –kulk” etgan tovushlar suv ostida katta – katta toshlar yumaloyotganini bildirib turar edi. (A.K). Buloq ham unga qo‘shilib jilmayayotganday jimirlaydi, vikir-vikir qiladi. Boyadan beri davom etayotgan eshkakning “shalp-shalp”iga qushlarning “shilp-shilp” etib suvga qadalishi qo‘shildi.

Gaz holatidagi jismlar harakati va portlashidan hosil bo‘lgan tovushlariga taqlid qilinadi: qars-qars, gup-gup, pis-s, vash-sh, g‘ir, g‘ir-g‘ir, poq, xuv-xuv, guv-guv va shu kabilar. Misollar: Havo dim, g‘ir etgan shabada yuk. (S.A). Silindrda gaz miltiq otganday qars-qurs portlaydi, g‘aldirak pokrishkalari beto‘xtov voshshillaydi:... Porshenlar chekkasida gup-gup-gup aksi sado beradi. (S.A). Shunda shamol ajablanib xuvvi.. sen kimsan ? –deb so‘ragan ekan. Paxta karavot chetiga quyilgan samovar uzoq yo‘l bosib kelgan odamdek pish-pish nafas olardi, halqa-halqa tutun chiqarardi.

Turli mexanizm hamda texnikaviy asbob-uskunalar harakati va singnallaridan vujudga keluvchi tovushlarga taqlid qilinadi: d-u-d, pat-pat, ku-ku, tir-tir, gurr, shaq-shuq, pish, g‘ildir-g‘ildir, g‘ichir-g‘ichir va boshqalar. Misollar: yarim yo‘lga yetganda uzoqda qopqorayib gavdalanib turgan adir tomondan “kuuk” degan cho‘ziq tovush eshitildi (A.Q). Hama yokni “tir...r...r, tir...r...r” bosib ketdi.

Umuman olganda, taqlid so‘zlar borasida qilinishi kerak bo‘lgan, dolzarb ahamiyatga ega jihatlari juda ko‘p. Biz yuqorida uning ayrim qirralarigagina to‘xtalib o‘tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985.
2. Jamolxonov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2008. – 1-kitob. – B.6-12
3. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007. – Б.3.
4. Маҳмудов Н., Бегматов Э. Тилимизнинг кеча ва кундузи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – №5. – Б.11.
5. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – 228 б.
6. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.
7. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
8. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 176 б.
9. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 160 б.
10. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 339 б.



BADIIY MATNNI SOTSIOPRAGMATIK TADQIQ OBYEKTI SIFATIDA O'RGANISH TAMOYILLARI

Mamadaliyeva Manzura Zoir qizi,
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnni sotsiopragmatik yo'nalishda o'rganish masalalari yoritiladi. Sotsiopragmatikaning nazariy asoslari, uning sotsiolingvistika va pragmalingvistika bilan aloqasi, badiiy matndagi ijtimoiy omillar, nutq aktlari, kommunikativ strategiyalar hamda muallif-o'quvchi munosabatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: sotsiopragmatika, badiiy matn, diskurs, nutq akti, ijtimoiy kontekst, kommunikativ strategiya, pragmatika.

Annotation: This article discusses the issues of studying literary texts in a sociopragmatic direction. The theoretical foundations of sociopragmatics, its relationship with sociolinguistics and pragmalinguistics, social factors in literary texts, speech acts, communicative strategies, and author-reader relationships are analyzed.

Key words: sociopragmatics, literary text, discourse, speech act, social context, communicative strategy, pragmatics.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы изучения литературного текста в социопрагматическом направлении. Анализируются теоретические основы социопрагматики, ее связь с социолингвистикой и прагмалингвистикой, социальные факторы в литературном тексте, речевые акты, коммуникативные стратегии и отношения между автором и читателем.

Ключевые слова: социопрагматика, литературный текст, дискурс, речевой акт, социальный контекст, коммуникативная стратегия, прагматика.

Zamonaviy tilshunoslikda matnni faqat struktur-semantik birlik sifatida emas, balki kommunikativ va ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Ayniqsa, badiiy matnni sotsiopragmatik yondashuv asosida tadqiq qilish uning ijtimoiy tabiati, muallif pozitsiyasi va o'quvchiga ta'sir mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Sotsiopragmatik tadqiqot til birliklarining qo'llanishini ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda o'rganadi. Badiiy asar esa muayyan tarixiy davr, ijtimoiy muhit va mafkuraviy sharoit mahsuli bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlar nutq orqali aks etadi.

Badiiy matnning antroposentrik tadqiqida uning ijtimoiyligi xususiyatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnning ijtimoiylik belgisi unda tasvirlangan personajlarning millati, yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, jamiyatda bajaradigan roli, vazifasi, kasb-kori kabi sotsial xususiyatlarining nutqida namoyon bo'lishida yuzaga chiqadi.

Insonga xos ijtimoiylikning nutqqa ta'siri, ayniqsa, badiiy matnda yaqqol ko'zga tashlanadi. Matnning bu tipida ko'pincha turli ijtimoiy sifatlarga ega personajlar ishtirok etishi sababli ularning nutqi ijtimoiylik belgisiga ko'ra bir-biridan farqlanadi.

Badiiy asardagi personajlar nutqini sotsiopragmatik aspektda o'rganish asarning ijtimoiylik xususiyatini ochib berishda ahamiyatlidir. Sh.Safarovning fikricha, "shaxs ijtimoiy mavqeyini farqlash uning kommunikativ faoliyatini o'rganish uchun muhimdir. Ijtimoiy status va rollardagi farqlar, albatta, muloqot birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlarida "iz" qoldiradi"[Safarov Sh. 4:157]. Shunday ekan, badiiy matnda personajlar nutqini ularning ijtimoiy maqomi va roli bilan bog'liq holda tekshirish sotsiopragmatik jihatdan muhim va hatto zarurdir.

O'zbek tilshunosligida badiiy matnni antroposentrik aspektda tadqiq qilgan D.Xudoyberganova badiiy matnni ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan til egalarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida baholab, uni kognitiv-semantik, psixolingvistik, lingvokulturologik aspektlarda tekshirdi. U badiiy matnning kognitiv-semantik xususiyatlarini matn yaratilishi jarayonini tadqiq etish orqali ochib berdi. Badiiy matnning psixolingvistik xususiyatlarini unda shaxs ruhiy holatining ifodalanishini tahlil etish orqali yoritdi. Shuningdek, badiiy matnning lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qilib,

o'xshatish, metafora, jonlantirish va tasavvur asosida yaratilgan matnlarning milliy-madaniy belgilarni o'zida saqlovchi va ularning davomiyligini ta'minlovchi lingvomadaniy birliklar ekanligini asoslab berdi [Xudoyberganova D 6:8].

Badiiy matn tadqiqida olim qayd etgan tahlil yo'nalishlari qatorida sotsiopragmatik aspektdagi yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnda tasvirlangan personajlar dunyoqarashi, kasb-kori, qiziqishlari, jinsi, yoshi, jamiyatda egallagan mavqeyiga ko'ra farqlanar ekan, ularning turli muloqot vaziyati, nutq sharoiti asosida yaratgan nutqini aynan ushbu ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olgan holda o'rganish sotsiopragmatik tahlillarni taqozo qiladi. Umuman, badiiy matnda sotsiopragmatik tamoyillarning voqelanishi masalasini tekshirish ushbu yo'nalishning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Har qanday badiiy matn muayyan sotsial tip, ya'ni yozuvchi tomonidan yaratilib, jamiyat, uning a'zolari, ya'ni kitobxonlar uchun xizmat qiluvchi ijtimoiy voqelik sifatida ahamiyatlidir. Badiiy matn muayyan ijtimoiy shaxs, ya'ni yozuvchi tomonidan yaratilishi va o'quvchi tomonidan mutolaa qilinishiga ko'ra ikkitomonlama yo'nalganlik xususiyatiga ega.

Rus olimasi N.S.Valginaning fikricha, "har qanday matn kimningdir uni idrok etishi uchun mo'ljallanadi: yilnomachi kelajak avlod uchun, mutaxassis olim esa hamkasblariga o'z kuzatishlari va xulosalarini yetkazish uchun yozadi; kundalik kabi matn ham kimdir uchun yaratiladi, u insonning "o'zi uchun" mo'ljallangan bo'lsa-da, bunda "o'zi uchun" tushunchasi ham ma'lum bir o'quvchini anglatadi. Shu o'rinda matnning muallif-ijodkorga (balki jamoaviy mualliflar) va idrok etuvchi o'quvchiga tarzidagi ikkitomonlama yo'nalganlik xususiyati anglashiladi. Bu jihat matnni har tomonlama tavsiflashda ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi" [Валгина Н 7:28].

Badiiy matnda yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi kommunikativ muloqot kitobxonning asarni o'qib, idrok etishi jarayonida yuz beradi. O'quvchi badiiy asarni mutolaa qilar ekan, yozuvchi bilan xayolan muloqotga kirishadi, u bilan beixtiyor bahs-munozaraga kirishadi, zarur o'rinlarda e'tirozini bildiradi yoki muallif qarashlarini qo'llab-quvvatlaydi, asarda bayon qilgan g'oyalarini ma'qullaydi.

Demak, yozuvchi va o'quvchi o'rtasida kommunikativ muloqot kitobxonning badiiy matnni o'qishi, uning mazmunini, g'oyasini idrok etishi jarayonida yuzaga keladi.

Har bir badiiy asar matnida tasvir obyektiga nisbatan muallifning subyektiv munosabati, shaxsiy qarashlari aks etadi. Yozuvchining voqelikka bo'lgan munosabati ijtimoiy-madaniy vaziyatlarga bog'liq holda shakllanishi tabiiydir. U o'zi yashayotgan, tarbiya topgan ijtimoiy muhit, madaniyat doirasidan tashqariga chiqib keta olmaydi. Adib tashqi olam, unda sodir bo'layotgan voqeahodisalarni jamiyatning muayyan sotsial tipi – ijodkor shaxs sifatida idrok etadi va uni asarlarida aks ettiradi. Bu jihatdan ham har qanday badiiy matn sotsiopragmatik aspektga aloqador manba hisoblanadi.

Badiiy matn nafaqat yozuvchi shaxsiga tegishli nutq ko'rinishini, uning voqelikka munosabati kabilarni, balki asarda "harakatlangan" boshqa ijtimoiy guruhlar nutqini, ularning tilga munosabatini namoyish etishiga ko'ra ham sotsiopragmatik ahamiyatga ega matn hisoblanadi. Badiiy matnning pragmatik xususiyatlari va ijtimoiylik belgisi uning sotsiopragmatik ahamiyatga ega manba sifatida baholanishiga imkon beradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, sotsiopragmatikaning tahlil obyekti keng, uning hali o'z yechimini topmagan dolzarb muammolari mavjud. Jumladan, o'zbek tilidagi badiiy matnlarni sotsiopragmatik aspektda tasniflash tamoyillarini ishlab chiqish va bu tamoyillar asosida ularning sotsiopragmatik tiplarini ajratish, til birliklarining badiiy ijtimoiy kontekstda voqelanishida nutq vaziyati, muloqot muhitining o'rni, badiiy matnda tildagi ijtimoiy xoslangan birliklarning faollashuvi, buning o'ziga xos sabab va qonuniyatlari kabi masalalar turli badiiy manbalar misolida o'rganilib, xulosalar umumlashtirilishi lozim. Bu holat o'zbek tilshunosligida mazkur yo'nalishda hali ko'plab izlanishlar olib borilishi lozimligini ko'rsatadi.

Badiiy matn ijtimoiy-pragmatik kontekstda voqelanar ekan, uning yaratilishida yozuvchining tashqi olam haqidagi hissiy-idrokiy qarashlari, badiiy assotsiativ tafakkuri, lisoniy qobiliyati, shuningdek, sotsiopragmatik bilimlari ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 123 б.
2. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
3. Неъматов Ҳ., Жўраева Б. Социоллингвистика. – Бухоро, 2004. – Б. 43-44.
4. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008. – 396 б.
5. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг социопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти., 2007. – 44 б.
6. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.
7. Валгина Н. С. Функциональные стили русского языка: Учеб. пос. – М.: Мир книги. 1994. – 192 с.



MAQOLLARNING MILLIY KO‘RINISHLARI

Anvarjonova Sadiya Alisher qizi,
Andijon davlat universiteti
Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodining maqol janri va ularning lingvistik talqini borasida mulohaza yuritiladi. Ta’kidlash lozimki, maqollar tadqiqida ularning milliy-madaniy xususiyatlariga e’tibor berish ularning xalqimiz ifoda etgan shakllariga e’tibor qaratish maqollarga xos lingvomadaniy jihatlarni ochiqlashga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: maqollar, milliy-madaniy xususiyatlar, lingvistik tahlil, o‘zbek madaniyati, talqin.

Abstract: This article discusses proverbs, a special type of folk oral art, and their linguistic interpretation. It should be noted that in the study of proverbs, paying attention to their national-cultural characteristics, paying attention to their forms of expression in the culture of our people, allows us to reveal the linguistic and cultural aspects inherent in proverbs.

Key words: proverbs, national-cultural characteristics, linguistic analysis, Uzbek culture, interpretation.

Аннотация: В данной статье рассматриваются пословицы, особый вид народного устного искусства, и их лингвистическая интерпретация. Следует отметить, что изучение пословиц, уделяя внимание их национально-культурным особенностям, а также формам их выражения в культуре нашего народа, позволяет выявить языковые и культурные аспекты, присущие пословицам.

Ключевые слова: пословицы, национально-культурные особенности, лингвистический анализ, узбекская культура, интерпретация.

Barchamizga ma’lumki, har bir xalqning tarixi, maishiy turmush tarzi va dunyoqarashi uning tilida, xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalarida o‘zining go‘zal aksini topadi. Ana shunday xalqlarning milliy-madaniy turmush tarzini ifoda etuvchi xalq og‘zaki ijodining maxsus turiga doir janrlardan biri bu – xalq maqollaridir. Maqollar – xalq donishmandligi ramzi bo‘lib, ularni faqatgina jumladan tashkil topgan butunlik deb o‘ylash mutlaqo xato. U xalqimizning asrlar davomida jamlangan, o‘zbek madaniyatiga xos hayotiy tajribalarning ixcham va obrazli ifodasidir.

Antroposentrik tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari, chunonchi, lingvokulturologiya doirasida maqollarning lingvistik tahlilini amalga oshirish, ularning zamirida aks etgan semantik ma’nolarni aniqlash hozirgi kunda dolzarb ahamiyatga ega mavzulardan hisoblanadi [4:55].

Maqollar tilning naqadar boy ekanligini ko‘rsatib beruvchi asosiy vositalardan biri sanalib, ularda milliy madaniyat to‘g‘ridan to‘g‘ri aks etadi. Masalan, o‘zbek xalq maqollarida mehmondo‘stlik, oila, mehnatsevarlik, ilm egallash kabi mavzular qadriyatlar markazidan asosiy o‘rin egallaydi [3:61]. Maqollardan o‘rin olgan har bir so‘z ma’lum bir ma’no tashish xarakteriga egaligi bilan tilshunoslik ilmida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqollarda aks etgan milliy xususiyatlarning talqin etilishiga ko‘ra ularni uch guruhga klassifikatsiya qilish maqsadga muvofiq:

Tarkibida etnografizmlar ishtirok etgan maqollar

Tarkibida milliy onomastik ifodalar qatnashgan maqollar

Hayotiy qadriyatlar aks etgan maqollar

1-chizma. Maqollarda aks etgan milliylik xususiyatlariga ko‘ra klassifikatsion guruhlanishi

Dastlabki guruh tarkibida etnografizmlarning ishtirokiga ko'ra klassifikatsiyalanadi. N. Omonturdiyev etnografizmlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Etnografik tilshunoslik ma'lum millat, elat, urug'ning moddiy va ma'naviy madaniyati hamda uning tildagi ahamiyatini o'rganadi, leksemalarni lug'atlashtiradi. Mana shu lug'atga ko'chgan etnomadaniy birliklar etnografizm deb ataladi". Demak, ushbu turga oid maqollar tarkibida xalqning kiyim-kechagi, taomlari va uy-ro'zg'or buyumlari bilan bog'liq so'zlarning qo'llanilishi ko'zga tashlanadi, masalan, chopon, tandir, osh va hokazo.

T/r	Maqollar	Izoh
1	Ish desa og'riydi oshiq-moshig'im, Osh desa tayyor katta qoshig'im.	<i>Keltirilgan maqolda "osh" madaniy kod vazifasini bajarmoqda.</i>
2	Kambag'alni urma, so'kma, To'nini yirt.	<i>"To'n" – milliy-madaniy xususiyatga ega asos.</i>
3	Non ham non, ushog'i ham non	<i>"Non" – o'zbek xalqi madaniyatida alohida qadrlanuvchi ne'mat.</i>
4	Beshik bolasi – bek bolasi	<i>"Beshik" madaniy kod vazifasida kelgan, qadim davrlardanoq beshikda katta bo'lib ulg'aygan bolalar "bek bola" deb e'tirof etilgan.</i>
5	Nomi ulug', supراسi quruq.	<i>"Supra" – madaniy kod.</i>
6	Tegirmon navbati bilan	<i>"Tegirmon" – madaniy kod.</i>

1-jadval. Tarkibida etnografizmlar ishtirok etgan xalq maqollari

Tarkibida milliy onomastik birliklar ishtirok etgan maqollar klassifikatsiyaning ikkinchi guruhiga oid [2:46]. Bunda muayyan geografik joylar yoki tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq maqollar xalqning madaniy turmush tarzi bilan bevosita bog'liqlik kasb etadi, chunonchi:

*Gap desa qop-qop,
Ish desa Samarqanddan top [1:88].*

Beva ayolga Buxorodagi it ham huradi [1:95].

kabi maqollarda O'zbekiston hududida joylashgan toponimlar (Samarqand, Buxoro) ishtirok etgan bo'lib, bu aynan milliy maqollar sirasiga kiradi. Biroq ushbu maqollar tarkibida nega aynan Samarqand yoki Buxoroning toponimik birlik sifatida qo'llanganligi borasida fikrlar mavhum qolmoqda. Bizning fikrimizcha, dastlabki maqolda qadimgi davrlarda transport vositalari taraqqiy etmagan bir davrda bir shahardan ikkinchiga borish haftalab vaqt olgan. Samarqand tarixda markaziy shahar bo'lishi bilan birgalikda, ko'plab hududlar uchun manzil o'laroq uzoq masofa to'sqinlik qilgan. Maqol mazmuni esa odamlar gap desa ustalik qiladi, ammo ish deganda bahona izlab, uzoqlarga qochib ketgandek g'oyib bo'ladilar tarzida voqelangan.

Uchinchi turga oid maqollar esa bevosita xalqimizning milliy turmush tarzidagi mavjud an'ana, qadriyat, urf-odatlarining aynan maqollarga "ko'chishi" orqali o'z ifodasini topadi, jumladan, "Yosh kelsa – ishga, Qari kelsa – oshga" [1:83] maqolida o'zbek millati orasida qari insonlarning ulug'lanishi, yoshlarning esa hamisha xizmatda shay turishi g'oyasi aks etgan. Yoki "Mehmon – otangdan ulug'" [1:83] maqolida esa elat vakillarining mehmonni e'zozlashlari, mehmonning ota kabi azizligi masalasi e'tirof etiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, xalq maqollarning lingvomadaniy tahlili o'zbek xalqiga xos madaniy kodni ifodalashi bilan birgalikda, xalqimizning madaniyati, tarixiy yondashuvi, maishiy hayoti kabilarni ifodalashda ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Umuman olganda, xalq maqollari – xalq madaniyati, xalq milliyatining o'ziga xos ko'zgidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Fan, 2010. – 512 b.
2. Nasretdinova M. N., Saydikramova U. X., Fuzaylova N. A., Fayziyeva A. K., Jabborova Z. T. Analysis of Stylistic Aspects of the Appearance of Ellipsis in Speech. – South Eastern European Journal of Public Health, 2024. – 1676–1680 s.
3. Qodirov F. O‘zbek folklorining lingvokulturologik talqini. – Buxoro : BDU nashriyoti, 2021. – 180 b.
4. Xusnitdinovna F. A. “Vatan” tushunchasining o‘zbek va ingliz maqollaridagi chuqur ifodasi. – Journal of Innovation in Education and Social Research, 2023. – 23-25 s.
5. Zarifov H., G‘ulomov G‘. O‘zbek maqollari: tahlil va talqin. – Toshkent : O‘qituvchi, 2008. – 240 b.
6. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2004. – 390 с.
7. Маслова В. А. Лингвокультурология. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
8. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва: Слово, 2008. – 262 с.



АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Муслимова Рано Муратовна,

старший преподаватель кафедры узбекского языка и литературы
ТГТУ имени И.А.Каримова.

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikning asosiy muammolari va rivojlanish yo'nalishlarini o'rganadi. Asosiy e'tibor raqamli til transformatsiyasi jarayonlariga, internetning lingvistik normalarga ta'siriga va muloqotning kognitiv va sotsiolingvistik jihatlariga qaratilgan. Muallif global axborot makonida lingvistik hodisalarni o'rganishga fanlararo yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: zamonaviy tilshunoslik, raqamli aloqa, kognitiv lingvistika, media diskursi, sotsiolingvistik, madaniyatlararo muloqot, sun'iy intellekt, til dinamikasi.

Annotation: This article examines the key challenges and development directions of modern linguistics. Focus is placed on the processes of digital language transformation, the influence of the internet on linguistic norms, and the cognitive and sociolinguistic aspects of communication. The author emphasizes the need for an interdisciplinary approach to the study of linguistic phenomena in the global information space.

Key words: modern linguistics, digital communication, cognitive linguistics, media discourse, sociolinguistics, intercultural communication, artificial intelligence, language dynamics.

Аннотация: В данной статье рассматриваются ключевые вызовы и направления развития современной лингвистической науки. Основное внимание уделяется процессам цифровой трансформации языка, влиянию интернета на языковые нормы, а также когнитивному и социолингвистическому аспектам коммуникации. Автор подчеркивает необходимость междисциплинарного подхода к изучению языковых явлений в условиях глобального информационного пространства.

Ключевые слова: современная лингвистика, цифровая коммуникация, когнитивная лингвистика, медиадискурс, социолингвистика, межкультурная коммуникация, искусственный интеллект, языковая динамика.

Лингвистика XXI века представляет собой многогранную дисциплину, выходящую далеко за рамки классического описательного языкознания. В условиях стремительного технологического прогресса и глобализации язык как основной инструмент человеческого взаимодействия претерпевает значительные изменения. Актуальность исследования обусловлена необходимостью фиксации и анализа новых языковых форм, возникающих в цифровой среде.

Интернет-лингвистика и цифровая трансформация. Одной из наиболее острых проблем является трансформация письменной речи в пространстве интернета. Появление « сетевого языка », использование эмодзи, сокращений и мемов меняет структуру коммуникации. Лингвисты сталкиваются с вопросом: являются ли эти процессы деградацией языка или закономерным этапом его адаптации к новым скоростям передачи информации?

Появление сетевого языка (или « нетспика », интернет-сленга) стало одним из самых значимых лингвистических феноменов рубежа XX–XXI веков. Это не просто набор жаргонизмов, а возникновение особой формы коммуникации, которую лингвисты называют « письменной разговорной речью ».

Основные причины появления сетевого языка:

1. Экономия усилий и времени (Принцип экономии речевых средств):

В эпоху первых SMS и чатов (IRC, ICQ) количество символов было ограничено, а скорость обмена сообщениями — высока. Это породило массовые сокращения: «спс» (спасибо), «нзч» (не за что), «imho» (in my humble opinion).

2. Компенсация отсутствия невербалики:

При живом общении мы видим мимику и слышим интонацию. В тексте этого нет. Для передачи эмоций появились смайлики (эмотиконы), а затем эмодзи и стикеры. Капслок (печать заглавными буквами) стал эквивалентом крика.

3. Специфика среды (Игровой элемент):

В начале 2000-х в рунете был популярен «язык падонков» или «олбанский язык» (превед, медвед, аффтар жжот). Это была сознательная игра с орфографией, способ заявить о своей принадлежности к «своим» в цифровом пространстве.

Этапы эволюции:

- Текстовый этап (1990-е – нач. 2000-х): Доминирование аббревиатур и текстовых смайлов :-).
- Мультимедийный этап (2010-е): Расцвет мемов, демотиваторов и гифок. Язык становится визуальным.
- Современный этап (2020-е): Стирание границ. Сетевой язык проникает в деловую переписку и повседневную устную речь (слова «кринж», «рофл», «вайб»).

Лингвистическое значение: сетевой язык сделал письменную речь более гибкой и демократичной. Однако он же породил проблему снижения общей грамотности и «цифрового этикета», когда отсутствие точки в конце сообщения в мессенджере воспринимается как дружелюбие, а её наличие — как агрессия.

Вопрос о том, является ли сетевой язык деградацией или адаптацией, — это центральная дискуссия в современной лингвистике. Большинство учёных (например, Максим Кронгауз, автор книги «Русский язык на грани нервного срыва») склоняются к тому, что мы наблюдаем закономерную адаптацию.

Вот основные аргументы обеих сторон:

1. Почему это АДАПТАЦИЯ (Точка зрения лингвистов-оптимистов)

- Новая функциональная среда: Язык всегда подстраивается под задачи. Раньше у нас было либо четкое *устное* общение, либо строгое *письменное*. Интернет создал гибрид — «письменную разговорную речь». Она требует скорости. Сокращения (спс, ок, кста) — это не безграмотность, а способ достичь темпа живого диалога.
- Компенсаторные механизмы: Отсутствие мимики и жестов в тексте — это огромная потеря информации. Эмодзи, стикеры и намеренное искажение орфографии (например, «кааак?») вместо «как?») восполняют этот дефицит, делая речь более эмоционально точной.
- Языковая игра: Творческое использование сетевого сленга требует хорошего владения базовой нормой. Чтобы «правильно» иронизировать над языком, нужно его знать. Это обогащает экспрессивные возможности языка.

2. Почему это может казаться ДЕГРАДАЦИЕЙ (Точка зрения консерваторов)

- Размывание нормы: Когда человек привыкает писать без знаков препинания и с маленькой буквы в мессенджерах, эта привычка может машинально переноситься в официальные документы и литературу.
- Примитивизация смыслов: Использование готовых мемов и шаблонов заменяет поиск собственных слов. Вместо того чтобы описать сложное чувство, человек ставит один эмодзи, что ведет к обеднению активного словарного запаса.
- Снижение концентрации: Клиповое мышление и сетевой язык заставляют упрощать сложные синтаксические конструкции. Длинные, глубокие предложения (как у Толстого или Достоевского) становятся трудными для восприятия.

Язык — это саморегулирующаяся система. Всё лишнее и временное (как, например, «язык падонков» 2000-х) со временем отсеивается, а полезные инструменты (краткость, эмоциональные маркеры) остаются. Это не смерть языка, а его расширение.

Когнитивный аспект и антропоцентризм: современная лингвистика фокусируется на человеке как носителе языка. Исследование того, как язык отражает мыслительные процессы и формирует картину мира, остается приоритетным направлением. Когнитивная лингвистика позволяет глубже понять механизмы концептуализации и категоризации реальности через призму национально-культурной специфики.

Лингвистические аспекты искусственного интеллекта (ИИ). Развитие больших языковых моделей (LLM) ставит перед наукой новые задачи. Возникает необходимость оценки

качества машинного текста, разработки алгоритмов распознавания естественного языка и изучения взаимодействия человека с нейросетевыми интерфейсами. Проблема «машинного перевода» эволюционирует в проблему «машинного творчества» и понимания контекста.

Социолингвистика и экология языка. Глобализация ведёт к доминированию английского языка и исчезновению малых языков. Сохранение языкового разнообразия и изучение процессов интерференции (смешения языков) в условиях массовой миграции являются критически важными задачами для социолингвистов.

Сохранение узбекского языка в условиях глобализации — это комплексный вызов, с которым сегодня сталкиваются многие национальные языки. Чтобы язык не превратился в «бытовой диалект» и не исчез под давлением английского или русского, необходима стратегия цифровой и культурной модернизации.

В современном мире язык живёт, пока он представлен в цифровом пространстве. Важно, чтобы нейросети, поисковые системы и голосовые помощники понимали узбекский язык так же хорошо, как английский. Чем больше данных на узбекском языке будет в интернете, тем качественнее будут работать модели. Необходимо создание качественных научных и образовательных статей на узбекском языке в Wikipedia и на других платформах. Также необходимо развитие узбекскоязычного сегмента YouTube, TikTok, подкастов и индустрии видеоигр.

Развитие научной терминологии также играет важную роль. Язык деградирует, если он перестаёт обслуживать науку и высокие технологии. Необходимо не просто заимствовать слова (например, «интерфейс» или «блокчейн»), а искать или создавать адекватные эквиваленты на основе тюркских корней, чтобы язык оставался живым инструментом для специалистов.

Современная лингвистика смещается в сторону междисциплинарности, объединяясь с психологией, социологией и информационными технологиями. Решение актуальных проблем требует не только фиксации новых явлений, но и разработки гибких методов их анализа, учитывающих высокую динамику изменений в современном мире.

Использованная литература:

1. Максим Кронгауз «Самоучитель олбанского» Издательство АСТ 2013
2. Дэвид Кристал (David Crystal) «Language and the Internet» 2007
3. eLibrary.ru (РИНЦ)



PHRASEOLOGY IN BELLES-LETTERS

Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna,

Doctor of Philosophy on Philological Sciences (PhD)

Doctoral student (DSc) of Samarkand state institute of foreign languages

<https://orcid.org/0000-0002-5093-5934>

Abstract: *The article examines the role of phraseological units in fiction as a means of interpreting, evaluating, and modeling characters' images. The contextual functions of phraseological units are analyzed on the basis of comparative material of English, Russian and Uzbek literary texts: expressive-evaluative, pragmatic, characterological and culturally identifying.*

Key words: *phraseological units, evaluation, literary text, pragmatic function, linguocultural specificity.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada badiiy adabiyotda frazeologik birliklarning personaj obrazlarini talqin qilish, baholash va modellashtirish vositasi sifatidagi roli o'rganiladi. Frazeologik birliklarning kontekstual funktsiyalari ingliz, rus va o'zbek adabiy manbalaridan olingan qiyosiy materiallar yordamida tahlil qilinadi: ekspressiv-baholovchi, pragmatik, xarakterologik va madaniy identifikatsiya.*

Kalit sozlar: *frazeologik birliklar, baholash, badiiy matn, pragmatik funktsiya, lingvomadaniy o'ziga xoslik.*

Аннотация: *В статье рассматривается роль фразеологических единиц в художественной литературе как средства интерпретации, оценки и моделирования образов персонажей. Контекстуальные функции фразеологических единиц анализируются на основе сравнительного материала английской, русской и узбекской литературной литературы: экспрессивно-оценочная, прагматическая, характерологическая и культурно-идентификационная.*

Ключевые слова: *фразеологические единицы, оценка, литературный текст, прагматическая функция, лингвокультурная специфика.*

Expressions defining social status are widespread in belles-letters. U. Mansurova underlies that ... an interpretation is a striking method in literary work for easily and clearly conveying to the reader a peculiar, complex historical reality, the image of scientific and literary heritage, the content and value of his works, completely unfamiliar to the reader [Мансурова У. 2:210].

According to A. Nasirov, "the fictional text reveals harmony that extends beyond the boundaries of man, nature and society. The connection between the inner essence and the outer image is a guarantee of artistic integrity, in which the harmony of subject and object, the connection of form and content, the commonality of imagination and idea, the conflict of interpretation and analysis finds expression" [Насиров А. 3:169].

According to the authors, interpretation helps the writer clearly convey to the reader a complex historical and cultural reality. In a literary text, this task is often performed by stable expressions, because they quickly evoke the necessary associations and evaluation. Phraseological units show who is in front of us and what place the hero occupies among others. Moreover, a fictional text is valuable for its integrity, where meaning and form support each other. Therefore, phraseology simultaneously helps to understand the situation and strengthens the inner unity of the work.

M. A. Fokina notes that phraseological units, moving the text forward and reflecting the dynamics of the narrative, often find themselves in its strong positions. They participate in the formation and linking of the meanings of an artistic work and make its ideological basis more explicit [Фокина М. 5:80].

Phraseological units in fiction describe the behavior, character, actions, and activities of characters. Let's consider the context for the use of English phraseological units:

The columnist had pointed out ... that the lawyer couldn't be certain whether or not the district attorney would be able to trump his ace [E.S. Gardner E. 6:201]. In the given passage, the idiom "trump somebody's ace" (literally, to beat someone's ace) implies "to beat an ace with a trump", to parry

someone's blow, to be able to resist. The idiom is clearly borrowed from the card game. The expression demonstrates confidence, objection, and argumentation against someone.

Let's look at an Russian example:

Станционное начальство храброе, когда перед ним бесплатный пассажир, - но когда перед ним разъяренная толпа извозчиков с железными ломami в руках, то у этого начальства душа уходит в пятки и оно прячется [Рыбаков А. 4:51]. (Translation: The station authorities are brave when they have a free passenger in front of them, but when they have an angry crowd of cabbies with iron crowbars in their hands in front of them, then their souls sink into their heels and they hide). In this passage, the phraseology “душа уходит в пятки” (lit. the soul sinks into the heels) acts as a means of hyperbolization. Through the ironic characterization of the authorities, the author emphasizes the contrast underlying the episode: bravery – cowardice.

Next fragment is given from Uzbek fiction:

Bundan ellik yil oldin endi o'n olti yoshga kirgan g'o'r bola edim [Ахмад С. 1:89]. (Translation: Fifty years ago, I was just a naive boy who had just turned sixteen). In this fragment, the phraseological unit is “g'o'r bola” (lit. immature child) is used to refer to a very young person — he has just turned sixteen years old. With a touch of irony and self-criticism, the author creates an image of himself in his youth.

Thus, phraseological units in works of art help to reveal the ideological and conceptual meaning of the text more deeply and effectively convey the national and cultural specifics of an ethnic group.

References:

1. Ахмад С. Танланган асарлар: III жилдлик. – Т.: «Шарк», 2000. – Жилд III Хотиралар. Абдий ўйлар. – 336 б.
2. Мансурова У. Маърифий наср тамойиллари // Н.М. Маллаев таваллудига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: Тошкент Низомий номидаги ТПДГУ, 2012. – Б. 210-211.
3. Насиров А. Бадиий матнда фалсафийлик ва ижодий индивидуаллик // Н.М. Маллаев таваллудига бағишланган илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: Тошкент Низомий номидаги ТПДГУ, 2012. – Б.169-171.
4. Рыбаков А.Н. Тяжелый песок. Роман-воспоминание. – М.: Азбука, Серия: Русская литература. Большие книги, 2023. – 640 с.
5. Фокина М.А. Фразеологические единицы в повествовательном дискурсе (на материале русской художественной прозы XIX-XX веков): Дисс. ... докт. филол. наук. – Кострома, 2008. – 467 с.
6. Gardner E.S. The Case of the Nervous Accomplice. – Leeds: House of Stratus, 2010. – 248 p.



ONA TILI TA'LIMIDA WEB 2.0 VOSITALARI ORQALI RAQAMLI KONTENT YARATISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Hamrayeva Shahlo,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
1-bosqich magistranti
+998914692680*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limida Web 2.0 vositalari orqali o'quvchilarning raqamli kontent yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqotda Web 2.0 texnologiyalarining pedagogik asoslari, konstruktiv yondashuv bilan bog'liqligi hamda o'qituvchining raqamli kompetensiyasi tahlil qilingan. Harakatli tadqiqot metodiga asoslangan tajriba jarayonida Canva platformasi vositasida taklifnoma, marketing matni, reklama banneri va tavsifiy matn yaratish kabi amaliy topshiriqlar amalga oshirildi. Natijalar Web 2.0 vositalarining o'quvchilarning yozma nutqi, ijodkorligi, axborotni vizuallashtirish hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayoni ona tili ta'limida raqamli texnologiyalarni tizimli integratsiya qilishning didaktik ahamiyatini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Web 2.0 texnologiyalari, raqamli kontent, ona tili ta'limi, konstruktiv yondashuv, interaktiv ta'lim, Canva platformasi, harakatli tadqiqot, nutqiy kompetensiya.

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития навыков создания цифрового контента у учащихся в процессе обучения родному языку на основе педагогически обоснованной интеграции инструментов Web 2.0. Анализируются теоретические основы технологий Web 2.0, их соотносённость с конструктивистской парадигмой обучения, а также значение цифровой компетентности учителя в организации эффективного образовательного процесса. В рамках методологии педагогического исследования действия (action research) с использованием платформы Canva были реализованы практико-ориентированные задания, направленные на создание приглашений, маркетинговых текстов, рекламных баннеров и описательных материалов. Результаты исследования свидетельствуют о том, что систематическое применение инструментов Web 2.0 способствует развитию письменной речи учащихся, их креативного и критического мышления, а также навыков визуализации информации. В работе обоснован дидактический потенциал цифровых технологий в обучении родному языку и раскрыта их роль в формировании коммуникативной и цифровой компетентности в условиях современной образовательной среды.

Ключевые слова: технологии Web 2.0, создание цифрового контента, обучение родному языку, конструктивистская теория обучения, цифровая компетентность, интерактивная педагогика, платформа Canva, методология action research, коммуникативная компетенция.

Annotation: This article explores the development of students' digital content creation skills in mother tongue education through the pedagogically grounded integration of Web 2.0 tools. The study examines the theoretical foundations of Web 2.0 technologies, their alignment with the constructivist paradigm of learning, and the role of teachers' digital competence in organizing an effective instructional process. Employing an action research methodology, a set of practice-oriented tasks including the creation of invitations, marketing texts, advertising banners, and descriptive texts was implemented through the Canva platform. The findings indicate that the systematic use of Web 2.0 tools significantly contributes to the enhancement of students' written communication, creativity, information visualization skills, and critical thinking abilities. The study substantiates the didactic potential of integrating digital technologies into mother tongue instruction and highlights their role in fostering communicative and digital competences in contemporary educational contexts.

Key words: Web 2.0 technologies, digital content creation, mother tongue education, constructivist learning theory, digital competence, interactive pedagogy, Canva platform, action research methodology, communicative competence.

Raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Internet texnologiyalarining evolyutsiyasi natijasida ta'lim jarayoni an'anaviy modeldan interaktiv va foydalanuvchi markazli modelga o'ta boshladi. Ayniqsa, Web 2.0 vositalari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotni kuchaytirib, ta'lim samaradorligini oshirishga

xizmat qilmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, Web texnologiyalarining rivojlanishi besh toifada baholanadi: Web 1.0, Web 2.0, Web 3.0, Web 4.0 va Web 5.0 [Rani N. 12:16]. Hozirgi kunda web texnologiyalariga asoslangan eng muhim o'qitish elementlaridan biri Web 2.0 vositalaridir. "Web 2.0" atamasi ilk bor 2004-yilda Tim O'Reilly tomonidan qo'llanilgan bo'lib, foydalanuvchilar nafaqat axborot olishlari, balki uni yaratish va ulashishlari mumkin bo'lgan kommunikatsiyaga asoslangan tizim sifatida shakllangan [Conole G. 6:25]. 2004-yildan boshlab turli Web 2.0 texnologiyalari insonlarning kundalik hayotida tez sur'atlarda keng tarqaldi [Luo T. 11:6]

Web 2.0 texnologiyalari internetdan foydalanish odatlarini o'zgartirdi. Web 2.0 vositalari bilan internet axborotni tayyorlash va uzatish hamda tayyor ma'lumotni iste'mol qilish muhiti bo'lishdan chiqdi. U kontent ishlab chiqariladigan, ulashiladigan, birlashtiriladigan va ishtirokchilar o'rtasida uzatiladigan platformaga aylandi [Horzum M. 9:615] Ushbu xususiyatlari bilan Web 2.0 texnologiyalari foydalanuvchilarga kontent ishlab chiqarish va ulashish hamda boshqa foydalanuvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkonini beruvchi texnologiyalar sifatida ta'riflanadi. [Franklin T. 8:20] Web 2.0 vositalari muloqotni osonlashtiruvchi, xavfsiz kontentni ta'minlovchi va onlayn hamkorlikni yo'lga qo'yuvchi veb sahifalarning ikkinchi avlodini ifodalaydi. [Alexander B. 3:38] Ushbu vositalar barcha darajadagi ishtirokchilar uchun sodda va qulay tarzda muloqot, o'zaro ta'sir, axborot almashish, ma'lumotga oson kirish, hamkorlikda kontent yaratish, kontentni saqlash va ulashish, baholash hamda vizuallashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Elmas va Geban (2012) Web 2.0 vositalarini kontent boshqaruv tizimlari, onlayn uchrashuvlar, onlayn saqlash va fayl almashish, onlayn so'rovnomalar, kontseptual xarita va chizma vositalari, animatsiya va video, so'z bulutlari hamda interaktiv taqdimotlar sifatida guruhlariga ajratgan. Foydalanish maqsadlariga ko'ra Web 2.0 vositalari sinfni boshqarish, uchrashuv va konferensiyalarni tashkil etish, sinxron va asinxron muhokamalar, kontseptual xarita va blok-sxemalar yaratish, grafika (posterlar, infografikalar, multfilmlar va xaritalar) tayyorlash, video va interaktiv videolar hamda animatsiyalar yaratish, raqamli hikoyalar tayyorlash, elektron kitob va z-kitoblar yaratish, so'rovnomalar, testlar va boshqotirmalar tuzish, baholash va nazorat qilish, virtual va kengaytirilgan reallik vositalari, taqdimot vositalari, veb-sayt va bloglar yaratish, fayl almashish, onlayn hamkorlik maydonlari yaratish hamda 3D modellashtirish kabi imkoniyatlarni o'z ichiga oladi [Akman E. 2:17].

Web 2.0 vositalarining qo'llanish sohalari va taqdim etayotgan qulayliklari ta'lim uchun ham foydalidir. Foydalanish doiralari nuqtai nazaridan qaralganda, Web 2.0 vositalari vaqt va makon jihatidan qulay, shaxsiy va portativ xususiyatlari sababli o'qituvchilar va o'quvchilarga kontent tayyorlash, ulashish va undan foydalanishda ko'plab imkoniyatlar yaratadi. Ushbu ilovalar o'quvchilar uchun izlanishga asoslangan va tadqiqotga yo'naltirilgan o'rganish muhiti yaratadi va an'anaviy o'quv muhitidan tashqarida hamkorlikka asoslangan va faol o'rganish imkonini beradi [Clements J. 5:42].

Luo (2013) *Web 2.0 vositalarining o'rganishdagi foydalarini quyidagicha ta'kidlaydi*: Effektiv o'rganishni rag'batlantiradi, hamkorlikda o'rganishni kuchaytiradi, o'quv jamoasini shakllantiradi, o'quv samaradorligini oshiradi va metakognitiv o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu xususiyatlari bilan Web 2.0 vositalaridan turli fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin. Balbay va Erkan (2018) esa Web 2.0 vositalari til o'qitishda o'quvchilarning mustaqil o'rganishini qo'llab-quvvatlash mumkinligini ta'kidlaydilar.

UNESCO (2008) "Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha o'qituvchilar kompetensiya standarti" hisobotida shaxslar axborot texnologiyalaridan foydalanish, ma'lumotni izlash, tahlil qilish va baholash, muammo yechish va qaror qabul qilish, samarali hamda ijodiy vositalardan foydalanish ko'nikmalarini egallashga tayyorlanishi kerakligini ta'kidlaydi. Ta'lim muassasalari va o'qituvchilar ushbu ko'nikmalar bilan shaxslarni hayotga tayyorlash uchun mas'uldirlar. Yevropa Komissiyasi (2010) "Ta'lim kelajagi: Yevropa o'qituvchilarining qarashlari" hisobotida texnologiya o'rganishning ajralmas qismiga aylanishini va o'qituvchilar har doim o'rganuvchi bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Maktablarning eng muhim resursi sifatida o'qituvchilar ta'lim standartlarini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ta'lim samaradorligini oshirish ko'p jihatdan o'qituvchilarning yuqori malakali, yetarli resurslarga ega va o'z ishini sidqidildan bajarishga tayyor bo'lishiga bog'liq (OECD, 2009).

O'qituvchilar ega bo'lishi kerak bo'lgan ko'nikmalardan biri bu raqamli kompetensiyadir. 2023-yil Ta'lim Vizyon hujjatida (MoNE, 2018) kelajakdagi o'qituvchilar raqamli kontentdan samarali

foydalanish va uni ishlab chiqish madaniyatiga ega bo'lishi zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish o'qituvchilik kasbining umumiy kompetensiyalari doirasida mezon sifatida belgilangan. Raqamli kompetensiya o'quv dasturlarida asosiy kompetensiyalar qatoriga kiritilgan bo'lib, kompyuter, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetdan foydalanish bilan bog'langan [Bağcı A. 4:169]. Turkiya Ta'lim Assotsiatsiyasi (2009) hisobotiga ko'ra, mavjud malaka oshirish byudjeti bilan har yili o'qituvchilarning atigi 5 foizi qayta tayyorlanishi mumkin. Shu byudjet bilan barcha o'qituvchilar uchun interaktiv veb-asosli o'quv modeli yaratish va undan foydalanish imkoniyati mavjud. Bularning barchasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida bo'lajak pedagoglar internet asosidagi texnologiyalarni bilishi va ularni samarali qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Bu esa Web 2.0 texnologiyalarini o'rganish va o'qitish jarayonida qo'llash zarurligini anglatadi. Ayniqsa til o'qitish kabi asosiy sohalarida ushbu vositalardan foydalanish boshqa fanlarni qo'llab-quvvatlash darajasida muhim hisoblanishi lozim.

Web 2.0 vositalarining pedagogik mohiyati. Web 2.0 vositalari pedagogik nuqtai nazardan konstruktiv ta'lim nazariyasiga mos keladi. Konstruktiv yondashuvga ko'ra, bilim o'qituvchi tomonidan tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchi tomonidan faol jarayonda shakllantiriladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Web 2.0 vositalari o'quvchilarning samarali o'rganish jarayonini kuchaytiradi, o'qitish samaradorligini oshiradi va metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi. Ayniqsa, til o'qitish jarayonida ushbu vositalar kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda samarali hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy kompetensiyalari qatorida raqamli kompetensiya alohida o'rin egallaydi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan AKT kompetensiya standartlarida pedagoglarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishi zarurligi ta'kidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot harakatli tadqiqot (action research) metodiga asoslangan holda tashkil etildi. Harakatli tadqiqot o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, mavjud muammoni aniqlash va uni amaliy tajriba orqali bartaraf etishga qaratilgan yondashuv hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ona tili darslarida Web 2.0 vositalari, xususan Canva platformasi yordamida o'quvchilarning raqamli kontent yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Tajriba jarayoni maktab o'quvchilari orasida olib borildi. Darslar ona tili fanining amaldagi o'quv dasturiga mos ravishda tashkil etildi.

Tajriba jarayonida Canva platformasidan asosiy Web 2.0 vositasi sifatida foydalanildi. Canva tanlanishining sababi – uning foydalanish uchun qulay interfeysga ega ekanligi, vizual materiallar yaratish imkoniyati kengligi va o'quvchilar uchun tushunarli dizayn vositalarini taqdim etishidir. Canva keng qamrovli multimedia resurslari va formatlarni o'zida qo'llab quvvatlaydi hamda ular yordamida raqamli ta'lim resurslarini yaratishga imkon beradi. Ushbu resurslardan taqdimotlar, plakatlar, tasvirli pdf fayllar, video va audio yozuvlar hamda musiqalar yaratish uchun foydalanish mumkin. Shu bilan bir qatorda platformada jamoaviy ishlashni ham tashkil qilish mumkin, bu yerda, o'qituvchilar va o'quvchilar orasida hamkorlikni tashkil qilib o'z ishlarini Google Classroom, Microsoft Team yoki Canvaning o'zida ulashish imkonini ta'minlaydi va jamoaning har bir a'zosi bu imkoniyatlardan onlayn yoki sinf xonasining o'zida foydalanishi mumkin, o'qituvchi esa o'z fikrlarini izoh sifatida qoldirish orqali qilingan ishlarni baholashi mumkin [Kurbaniyazov Sh. 10:55].

Amaliyotdan oldin ishtirokchilarning Web 2.0 vositalariga nisbatan o'zini yetarli emas deb his qilish haqidagi fikrlari tajriba-sinov ishlaridan so'ng o'zgardi. Canva orqali topshiriqlarni bajarish jarayoni o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol yaratuvchiga aylantirdi. Ular tayyor ma'lumotni qabul qilish bilan cheklanmay, uni qayta ishlash, tizimlashtirish va vizual shaklda ifodalashga o'rgandilar. Shuningdek, raqamli kontent yaratish jarayoni o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, o'zini namoyon qilish ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ona tili ta'limida Web 2.0 vositalaridan foydalanish konstruktiv yondashuv tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish imkonini beradi. O'quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni faoliyat jarayonida mustaqil ravishda shakllantiruvchi subyektga aylanadi. Canva platformasi asosida tashkil etilgan topshiriqlar o'quvchilarning yozma nutqi, so'z boyligi, ijodiy tafakkuri, axborotni tahlil qilish va vizuallashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Tajriba davomida kuzatilgan eng muhim jihat – o'quvchilarning

dars jarayoniga qiziqishi va faolligining oshganidir. Raqamli kontent yaratish jarayonida ular mustaqil qaror qabul qilish, til birliklarini ongli tanlash va estetik ifoda vositalaridan foydalanishga harakat qildilar. Bu esa ona tili fanining amaliy va hayotiy ahamiyatini yanada ochib berdi.

Mening fikrimcha, bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida ona tili ta'limi faqat grammatik bilim berish bilan cheklanmasligi kerak. U o'quvchini matn yarata oladigan, axborotni tahlil qila oladigan va uni vizual hamda kommunikativ jihatdan samarali taqdim eta oladigan shaxs sifatida shakllantirishi zarur. Web 2.0 vositalari aynan shu kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni ilgari surmoqchimiz:

1. Web 2.0 vositalarini ona tili darslariga tizimli va metodik asosda integratsiya qilish;
2. Nazariy bilimlarni mustahkamlashda raqamli kontent yaratishga yo'naltirilgan ijodiy topshiriqlardan muntazam foydalanish;
3. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirish orqali ta'lim jarayonining innovatsion salohiyatini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Web 2.0 vositalari ona tili ta'limining interaktivligini oshiradi, o'quvchilarni faol bilish jarayoniga jalb etadi hamda ta'lim samaradorligini ta'minlashning zamonaviy pedagogik omili sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarova H. Ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida samaradorligini oshirish (onlayn o'yinlar) // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2023. – № 9–49. – B. 204–208.
2. Akman E. Öğretim teknolojilerinde web araçları // Web araçları ile Türkçe öğretimi / Ed. K. Tekşan, Ü. Süğümlü. – Ankara: Eğiten Kitap, 2022. – S. 1–28.
3. Alexander B. Web 2.0: A new wave of innovation for teaching and learning? // EDUCAUSE Review. – 2006. – Vol. 41, № 2. – P. 32–44.
4. Bağcı Ayrancı B., Süğümlü Ü. Dijital okuma // Dijital dönüşümde Türkçe öğretimi / Ed. F. Susar Kırımızı. – Ankara: Anı Yayıncılık, 2021. – S. 161–175.
5. Clements J.A., Boyle R. Compulsive technology use: Compulsive use of mobile applications // Computers in Human Behavior. – 2018. – Vol. 87. – P. 34–48.
6. Conole G., Alevizou P. A literature review of the use of Web 2.0 tools in higher education. – The Open University, 2010.
7. Djakbarova M. Ona tili ta'limida raqamli texnologiyalarning o'rni // Ta'lim va taraqqiyot. – 2025. – № 2. – B. 530–537.
8. Franklin T., Van Harmelen M. Web 2.0 for content for learning and teaching in higher education. – JISC, 2007.
9. Horzum M.B. Investigating teachers' Web 2.0 tools awareness, frequency and purposes of usage in terms of different variables // International Journal of Human Sciences. – 2010. – Vol. 7, № 1. – P. 603–634.
10. Kurbaniyazov Sh., Mamatov A. va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va vositalari: Maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va boshqa ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2024. – 130 b.
11. Luo T. Web 2.0 for language learning: Benefits and challenges for educators // International Journal of Computer-Assisted Language Learning and Teaching. – 2013. – Vol. 3, № 3. – P. 1–17.
12. Rani N., Das P., Bhardwaj A.K. Rumor, misinformation among web: A contemporary review of rumor detection techniques during different web waves // Concurrency and Computation: Practice and Experience. – 2022. – Vol. 34, № 1. – P. 1–21.
13. Sharopova F. Ta'lim texnologiyalari. – T.: Navro'z nashriyoti, 2019. – 34b.
14. UNESCO. ICT competency standards for teachers. – Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization, 2008.

SOBIR O'NAR HIKOYALARIDA PORTRET RUHIY TASVIR VOSITASI SIFATIDA

Berdiyeva Zulayxo Ochilovna

Qarshi Davlat Universiteti

Tayanch doktoranti (PhD tadqiqotchisi)

zulayxoberdiyeva1407@gmail.com

ORCID: 0009-0003-0916-7886

Annotatsiya: Maqolada asosan, adabiyotning eng kichik epik janrlaridan biri bo'lgan hikoya janrida portret yaratish sirlari hamda ijodkorning estetik ideali va mahorati masalalari haqida nazariy xulosa va takliflar haqida mulohaza yuritilgan. Ijodkorning asar yaratish jarayonidagi ruhiy-emotsional holati, ideali, zamon va ijtimoiy muhit, davr muammolariga ijtimoiy munosabati kabi tushunchalar nazariy asoslangan. Iste'dodli yozuvchi, mohir hikoyanavist Sobir O'narning "Jinko 'chadagi mushtipar", " hikoyasi syujet tizimi portret tasviri va ijodkor estetik idealiga muvofiq tadqiq qilingan. Bu mulohazalar adabiyot va ilm uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: hikoya, portret, mahorat, uslub, ijodkor, badiiy, obraz, ruhiyat, makon, zamon, komponent, estetik ideal.

Abstract: The article mainly discusses the secrets of creating a portrait in the narrative genre, one of the smallest epic genres of literature, as well as theoretical conclusions and proposals on the issues of the aesthetic ideal and skill of the creator. The concepts of the creator's mental and emotional state in the process of creating a work, his ideal, the time and social environment, and social attitude to the problems of the era are theoretically based. The stories of the talented writer, skilled storyteller Sobir Onar "Fighter in the Alley" is studied in accordance with the plot system of the portrait image and the aesthetic ideal of the creator. These considerations serve as an important theoretical source for literature and science.

Key words: story, portrait, skill, style, creator, artistic, image, spirit, space, time, component, aesthetic ideal.

Аннотация: В статье в основном рассматриваются секреты создания портрета в повествовательном жанре, одном из самых малых эпических жанров литературы, а также теоретические выводы и предложения по вопросам эстетического идеала и мастерства художника. Теоретически обоснованы концепции психического и эмоционального состояния художника в процессе создания произведения, его идеала, времени и социальной среды, а также общественного отношения к проблемам эпохи. Рассматриваются рассказы талантливого писателя, искусного рассказчика Собира Онара «Боец в переулке» в соответствии с сюжетной системой портретного образа и эстетическим идеалом художника. Эти соображения служат важным теоретическим источником для литературы и науки.

Ключевые слова: история, портрет, мастерство, стиль, создатель, художественный, образ, дух, пространство, время, компонент, эстетический идеал.

Kirish. Badiiy adabiyotda roman, qissa, hikoyalar tadqiqida ayniqsa portret tabiati muhim nazariy hodisalardan hisoblanadi. Portret bu badiiy asar qahramonlarini aniq va ravshan tasavvur qilishga xizmat qiluvchi badiiy tasvir vositasidir. Ya'ni yozuvchi yoki ijodkorning badiiy mahoratini, iste'dodini uning portret yaratish mahoratiga qarab ham belgilasa bo'ladi. Epik turning kichik janri bo'lmish hikoyada ko'p hollarda portret, asosan aniq va qisqa holatda chiziladi, ammo bunga qaramay portret qahramon xarakterini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Adabiyotshunoslik ilmida hikoya janrida qalam tebratgan yozuvchi va ijodkorlar o'z asarlarida portret tasviri va ruhiy olami masalalariga alohida e'tibor berganlar. F.f.d. prof. Imomova Gulchehra Muhammadiyevna ilmiy tadqiqotlarida hikoya janri rivojida obraz tanlay olish, xarakter yarata olish mahorati haqida " Ijodkorning baxti o'z xalqining xarakter xislatlarini yagona bir obraz timsolida aks ettira olishi bilan belgilanadi. Chunki u ana shu obraz qiyofasida butun bir xalqning ma'naviy- axloqiy xislatlarini kichik detal orqali ifodalaydi"[Imomova G. 1:1] deb ta'kidlagan.

"Biz odamlarning o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlashda mavjud insonlarga monand va ayni paytda chiroyliroq tarzda ishlaydigan yaxshi portret ustalaridan o'rnak olishimiz kerak"[Arastu 2: 41-b] .

Yuqoridagi tadqiqotlar mohiyatidan kelib chiqib maqolamizda XXI asr adabiyotining serqirra yozuvchisi, mashhur hikoyanavist Sobir O‘narning “Jinko‘chadagi mushtipar” hikoyasini biografik, psixoanalitik, struktur tahlil metodlariga asoslangan holda tahlilga tortdik.

Tahlil va natijalar “Portret” – (fr.portraire- tasvirlamoq) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari) , kitobxon tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli obrazni yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir ko‘rinishidir[Abdullayev N. 3: 12]. Iste’dodli yozuvchi Sobir O‘nar o‘zining “Jinko‘chadagi mushtipar” nomli hikoyasida qahramon ruhiyati uning ichki olami manzaralarini portret tasvir vositasi orqali ta’sirli chizgilarda chizadi. Muallif hikoyada asosan, o‘zining g‘oyalari, qarashlari, estetik ideali hamda jamiyatda yuz berayotgan voqea-hodisalar ta’sirida portret yaratadi. Bir qancha hikoyalar syujet rivojini, asarning kulminatsion nuqtalarini ta’minlab beruvchi asosiy unsurlar qahramonlar ruhiyati tasviri, ularning kayfiyati, o‘y – fikrlari, holatlari hisoblanadi. Shu boisdan ham qahramon portreti muhim hisoblanadi. “ Uni har kuni uchratar edim. O‘sha – jiydaga o‘xshash zahil yuzi, quruqshagan labi, qoqsuyak qo‘llariga emas, balki, bukchayib qolgan bu kampirning ma’sumona boquvchi ko‘zlariga ko‘zim tushmasin uchun, - yoshini yashab, qartayib - mung‘ayib qolgan sho‘rlik shu bechoraga hech mahal yordam berolmasligimni bilib, dunyodagi eng yomon musibatni shuning qiyofasida ko‘rishni istamaganimdan, - hamisha o‘zimni undan olib qochib yurardim. Uning picha qiyshaygan jag‘i angrayishiga juda mos, go‘ya soddaligi bo‘rtib ko‘zga tashlansin uchun, Yaratganning o‘zi atay shunday qilgandek. Jovdiragan ko‘zlarini aytmayisizmi, ko‘zmunchoqning o‘zginasi, ular eski shaharning jinko‘chasidan o‘tuvchilarga mo‘ltirab tikiladi, xuddi bir nima tilayotgandek...” . [O‘nar. S. 3: 157-bet]. Ushbu portret tasvirida mushtipar kampir tashqi va ichki qiyofasi shu qadar jonli tasvirlanganki, beixtiyot hikoyani o‘qiyotgan kitobxon ko‘z o‘ngida qartayib qolgan, so‘lg‘in yuzli, ammo ko‘zlarining tubida murg‘ak qo‘zichoqni eslatadigan mehr yashiringan kampir siymosi gavdalanadi. Obraz ruhiyati juda ham nozik psixologik tahlilga asoslangan hamda realistik uslubda tasvirlangan. “ Kampir erkalabmi, ko‘pincha, “ ha Saritoy ” deyishini eslayman; sariqligim uchun shunday derdi, atay ismimni aytmasdi.” hikoyadan olingan galdagi portret tasvirida mushtipar kampir student bolalarga naqadar mehribonlik ko‘rsatgani, ularni erkalab “Saritoy” deb chaqirgan o‘rinlari beriladi. Bu hol kampir qalbining naqadar bolajon, shavqatli ekanligiga ishora o‘laroq keltirilgan. Talaba yigitlar ijaraga uy qidirib, rosa tentirab yurgan vaqtlarida kampir ularga rahmi kelib uyining to‘ridan joy beradi. “ Hamon esimda u avvaldan bizlarga ilhaq bo‘lib o‘tirganday: “ Kelinglar, kelinglar. Ko‘p ovora bo‘psizlar-da, mayli, sizlar manavi katta uyda turaqolinglar”, degan. O‘zlariga esa katalakdek xona qolgan. Yuqoridagi parchalarni har qaysida mushtipar kampir portreti botiniy va zohiriy holatga ishora tarzida chizilgan.

Xulosa: Tahlilga tortilgan hikoyalar, asar qahramonlari portretlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, Sobir O‘nar iste’dodli va kamtarin, samimiy yozuvchi. Uning hikoyalari qahramonlari, asosan, oddiy qishloq odamlari, soddadil, qalb ko‘zi ochiq insonlar . Yozuvchi portretlarni mohir badiiy, konsentrik uslubda chizadiki, syujet voqealar izchil tartibda rivojlanib boradi. Muallifning psixologik tahlilga asoslangan uslubi va ramzlar orqali fikr bildirish yondashuvi hikoyalarning badiiy va falsafiy ko‘lamini kengaytiradi. Bu esa adabiyotimizda hikoya janrining yangicha qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Imomova G.M. “ O‘zbek hikoyalarida badiiy sintez shakllari va ijodkorning estetik konsepsiyasi.” Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Qarshi-2022-yil
2. Arastu. Poetika. Ritorika. Toshkent- 2011, 41-b.
3. Abdullayev Ne‘mat, Madraimov Abdumajid O‘z.ME – Birinchi jild.- Toshkent, 2000-yil.
4. O‘nar Sobir. Chambilbelning oydalasi, “Read book” nashriyoti, Toshkent – 2004–yil. 57-bet.
5. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. Adabiy-tanqidiy maqola va risolalar. – T.,“Akademnashr”, 2013. -336 bet.

Internet saytlari

6. <https://ziyo.uz.com>
7. <https://kh-davron.uz>
8. <https://kutubxona.uz/>

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA MA'SHUQA OBRAZINING BADIY TALQINI

Majidova Mahbuba Abdurazzoqovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Navoiy ma'shuqaning husnini bir tomonlama emas, har tomonlama ochishga harakat qiladi. U ma'shuqaning jisminigina tasvirlash bilan cheklanmaydi. Agar Navoiy ma'shuqaning faqat yuzi, ko'zi, labi, qaddi-qomati va hokazolarini tasvirlaganda, yor obrazi ancha kambag'al chiqqan bo'lar edi. Navoiyning o'nlab, yuzlab satrlari, hatto ba'zi maxsus g'azallari yorning kiyim kiyishini, bezaklarini tasvirlashga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ideal, ma'shuqa, g'azal, dildor, dilrom, dilrabo, dilkash, dilbar, diloso, moh, mahvash, oy, quyosh, sarvqad, go'zal, yor, mahbub, mahjabin, jon, jonon, gul, gulruksor, gulandom, pari, parivash, pari-paykar, egma qosh, qoshi yo, qora ko'z, sarvinoz, siymtan.

Abstract: Navoi tries to reveal the beauty of his beloved not from one side, but from all sides. He does not limit himself to describing the body of his beloved. If Navoi had described only the face, eyes, lips, height, etc. of his beloved, the image of the beloved would have been much poorer. Dozens and hundreds of lines of Navoi, even some special ghazals, are devoted to describing the beloved's clothing and decorations.

Key words: ideal, lover, ghazal, dildor, dilrom, dilrabo, dilkash, dilbar, diloso, moon, mahwash, moon, sun, sarvqad, gozal, yor, mahbub, mahjabin, jon, jonon, gul, gulruksor, gulandom, pari, parivash, pari-paykar, egma kash, kashi yo, kara koz, sarvinoz, siymtan.

Аннотация: Навои старается раскрыть красоту своей возлюбленной не с одной стороны, а со всех. Он не ограничивается описанием тела своей возлюбленной. Если бы Навои описал только лицо, глаза, губы, рост и т. д. своей возлюбленной, образ возлюбленной был бы гораздо беднее. Десятки и сотни строк Навои, даже некоторые особые газели, посвящены описанию одежды и украшений возлюбленной.

Ключевые слова: идеал, любовник, газель, дилдор, дилром, дилрабо, дилкаш, дилбар, дилосо, луна, махваш, луна, солнце, сарвакад, гозаль, йор, махбуб, махджабин, йон, джонон, гуль, гулруксор, гуландом, пари, париваш, пари-пайкар, egma kash, кашу йо, кара коз, сарвиноз, симымтан.

Navoiy lirikasidagi ma'shuqa obrazi analizida bosh va muhim masala bu obrazning real yoki real emasligi masalasidir. Navoiy g'azallarida yor ko'zining mastligi, shahloligi oshiqni asir qilishi, xolining qoraligi, yuzining anorga o'xshash qizilligi, uning ideal darajada go'zalligi, o'z go'zalligi bilan oshiqni tutqun qilib bog'lashi, lekin unga sevgi bilan javob bermay, undan qochishi, uni kuydirishi-bu obraz va tasvirlarning deyarli hammasi Navoiy lirikasida mavjuddir. Shoir bir o'rinda yor haqida yozadi:

*Qayd aylarga junun ahlini bor ul ikki soch,
Har biri necha tugun, har tuguni necha quloch.
Turklarning qulidurmenki, nigorinning erur –
Qoshi turkona, qabog'i kengu ko'zi qiymoch.*

Bunda o'zbek ayolining tashqi portreti juda real chizilgan: tugun-tugun qilib o'rilgan uzun-uzun ikki soch, turkona (soda, to'g'ri) qosh, keng qovoq, qiymoch ko'z, millati turk. Shoir ma'shuqa tasvirida traditsion-romantik yo'ldan borsada, lekin, uning ko'z o'ngida ko'p vaqt oti boru o'zi yo'q narsa emas, real, dunyoviy ayol obrazi turdi. Shoir qog'ozga shu real ayol tasvirini chizishga intildi.(1)

Navoiy ba'zi o'rinlarda mahbubasini malak va parilarga o'xshatadi:

*Parimu yoki malak, yo'qsa ruhi pokmudur,-
Ki zohir o'lmadi muncha latofat insondin.*

Bu bilan shoir ayolni ulug'lab, o'z sevgilisining husni va martabasini ulug'layapti.

Shoir yorni dunyodagi hamma jonli va jonsiz narsalardan yuqori qo'yadi. Chunki yor uning idealidir. Shuning uchun boshqacha bo'lishi mumkin ham emas. Shoir deydi:

*Kimki oningdek malaksiymo, parivash yori bor,
Odamiy bo'lsa-pari birla malakdin ori bor.*

Ya'ni: kimningki malaksifat, pariga o'xshash yori (shoir o'z sevgilisini ko'zda tutadi) bo'lsa, u agar haqiqiy odam bo'lsa, pari va malaklardan or qilishi kerak. Shoir fikricha, inson dunyoda eng go'zal mavjudotdir. Go'zallikda unga na parilar, na malaklar tenglashadi:

*Ey ko'ngul, huru pari vasfin eshittim go'yo,
Hech qoyisi odamelig'da emas insoncha xo'b.*

Navoiy-haqiqiy inson! U shuning uchun insonni sevadi, insondan bahra oladi. Shoir o'z mahbusasiga murojaat qilib, parining sarvinihol qomatini quchish unga aslo zavq bera olmasligini aytadi:

*Qucharg'a sarvi niholi pari qadingdek emas,
Agar ketursa oni bog'bon quchog'i bila.*

Shoirning sevgilisi ham - haqiqiy inson. Haqiqiy inson bo'lgani uchun yuksak insoniy fazilatlariga ham ega. U o'zining shu insoniy fazilatlarini bilan ham pari va malaklardan yuqori turadi va shuning uchun parilar unga qarab sajda qiladi:

*Odamiliq ko'rguzub qilding parivashlarni qul,
Odam uldurkim, - maloyik oni masjid ayladi.*

Boshqa bir g'azalida shoir yorning oldida o'zini kamsitib: kimki inson bo'lsa, uning sevgani ham inson bo'lishi kerak, men esa unga loyiq emasman! – deydi:

*Ey Navoiy, ul pari o'ltursa ham ozdur seni,
Kimki insondur, aning mahbubi ham inson kerak! (1)*

Shoir yor timsolida odamni naqadar ulug'laganini ko'rsatadi.

Lirikada ma'shuqa go'zalligini shoir ikki yo'l bilan: birinchidan, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, yor go'zalligini tasvirlashga bag'ishlangan maxsus g'azallar yozish yo'li bilan, ikkinchidan, lirik qahramon kechinmalarini tasvirlash, yorning u yoki bu sifatleri, belgilarini va hokazolarini lirik qahramonga eslatish, uning xotirasida ma'shuqa obrazini gavdalanitirish yo'li bilan izchil ocha bordi. Ma'shuqa obrazi Navoiy g'azallarida, xususan ikkinchi yo'l bilan ko'proq va ta'sirliroq ochilgan. Yorning tasviri oshiqning haroratli ichki kechinmalari tasviri bilan qo'shilgan o'rinlarda shoirning poetik tasviridagi mahorati yanada avjiga chiqadi, o'quvchida alohida kuchli hissiyot uyg'otadi.

Navoiy ma'shuqa haqida gapirar ekan yoki uning obrazini qog'ozga tushirar ekan, uning ko'z o'ngida yoki tasavvurida doim ideal, husnda ko'zi ham orzu qilingandek, qoshi ham, qaddi ham, yuzi ham-har tomonlama to'kis ayol turadi.

*Bor aningdekkim kerak ul ko'zu, qoshu, qadu yuz,
Olloh-olloh, kim ko'rubtur, husn bu yanglig' to'kuz...*

Shoir lirikasida yorning go'zalligi tobora aniqlashtirila boriladi. Shoir jononning yuzini tasvirlashga o'zining behisob yaxshi go'zal misra va baytlarini bag'ishlagan. Ko'p vaqt shoir ma'shuqaning yuzini nurli narsaga: goh oyga, goh chiroqqa, goh quyoshga o'xshatadi.

*Dema: "Kunduz!" - qarong'u tun edi. Chun pardadin chiqting,
Jahonni qildi kunduzdek yuzung mehrining anvori.*

Jonon kechasi yuzidan pardani olib, hamma yoqni kunduzgidek qilib yoritib yuborishi shu bahoni taqozo qiladi. Lekin bunda ijodiy fantaziya, yoqimli mubolag'a tasvirga joziba va orginallik bag'ishlamoqda. "Favoyid ul-kibar" dagi g'azallardan birida shoir yozadi:

*Yuzung oldida quyosh vasfini qilmoqlik erur,
Sham' yuzini quyosh o'llig'a qilmoq ta'rif. (6)*

Shoir yor yuzini quyoshdan ham yorug' deyish bilan yana mubolag'aga yo'l qo'ymoqda.

*Yuzungga ulki, quyosh tobi berdi, - yuz ming shukr,
Quyosh kibi meni ham ishqing ichra pok etti.*

Ma'shuqaning yuzi o'zidan shunday kuchli harorat va yorug'lik chiqaradiki, unga faqat quyosh va oshiq tob berishi mumkin. Bunday haroratga oshiqning quyosh kabi chidashining shunisi yaxshiki, uning ishq haroratda yanada pokroq bo'ladi, o'zi yanada toblanadi, chidamli bo'ladi. Jononning nurli yuzi kishidagi hamma ifloslik va yaramasliklarni kuydiruvchi, yaxshi xislatlarni tarbiyalovchi bir zo'r kuch sifatida tasvirlanmoqda.

Shoir ma'shuqa og'zini tasvirlashga kelganda, uning kichikligini maqtaydi, Oshiqning ko'zi shunday o'tkirki, eng kichik bir zarra ham undan yashirinib qololmaydi, lekin shunday o'tkir ko'z ma'shuqaning yuziga tikilib, uning og'zini ko'rolmaydi:

*Yuzung mehri ichinda, ko'z solib og'zingni ko'rmasmen,
Agarchi zarra xurshed oldida ko'z din nihon ermas.*

Bu go'zalning kiprigini shoir xanjarga, goho yoy o'qiga, labini kishilarga tiriklik bag'ishlovchi obi hayotga yoki shirin suv oqadigan buloqqa, nafasini hayotbaxsh Iso nafasiga o'xshatadi. Yorning lablari tepasidagi yangi o'sib chiqayotgan tuklardan esa doim yoqimli hid kelib turadi. Uning tuklari (xat) ham, xoli ham, ko'zi ham, qoshi ham-qop-qora. Chunki ularni oshiqning quyoshga o'xshash haroratli yuzi o'z issig'i bilan kuydirib, qoraytirib qo'ygan:

*Qarodir xolu, xattu, ko'zu qoshing,
Magar borini kuydurmish quyoshing.*

Shoir yorning labini qimmatli qizil tosh-la'lga ham o'xshatadi. Lekin bu o'xshatish Navoiy davrida ancha shablonlashib qolgan edi. Shuning uchun u yo'l-yo'lakay bunday shablon o'xshatishlarni inkor etib, haqiqiy tasvirga intiladi.

*Uchuq labingda, emas reza inju la'l uzra,
Ki bargi gul uza bir qatra bole mish, bildim.*

Demak, yorning labi ustida uchuq ham bor. Shoir bunda labni la'lga emas, gul bargiga, uchuqni bir dona injuga emas, bir tomchi asalga o'xshatmoqda. Navoiy bu bilan tasvirda nihoyatda zo'r jonlilikka, tabiiylikka erishgan.

Navoiy ma'shuqaning og'zini o'nlarча sifat-ot va ot-sifatlar bilan ataganidek, uning u yoki bu a'zosini ham bitta-ikkita sifat bilan emas, o'nlarча sifat va xususiyat bilan tasvirlaydi.

Navoiy she'rlarida, masalan, dildor, dilrom, dilrabo, dilkash, dilbar, diloso, moh, mahvash, oy, quyosh, sarvqad, go'zal, yor, mahbub, mahjabin, jon, jonon, gul, gulruxsor, gulandom, pari, parivash, pari-paykar, egma qosh, qoshi yo, qora ko'z, sarvinoz, siymtan kabi o'nlab so'zlar "ma'shuqa" tushunchasini anglatadi.

Navoiy ma'shuqaning husnini bir tomonlama emas, har tomonlama ochishga harakat qiladi. U ma'shuqaning jisminigina tasvirlash bilan cheklanmaydi. Agar Navoiy ma'shuqaning faqat yuzi, ko'zi, labi, qaddi-qomati va hokazolarini tasvirlaganda, yor obrazi ancha kambag'al chiqqan bo'lar edi. Navoiyning o'nlab, yuzlab satrlari, hatto ba'zi maxsus g'azallari yorning kiyim kiyishini, bezaklarini tasvirlashga bag'ishlangan. Shoir bir g'azalda mahbubaning yashil rang to'n kiygani, to'ning tugmalari esa tilladan ekani va bunday kiyim bilan uning qaddi ko'karib turgan apelsin daraxtiga, tugmalari uning mevasiga o'xshashligini yozadi:

*Yashil to'n birla oltun tugmalardan xebu far anda,
Qading noranji ra'no naxlidur, butgan samar anda.*

Boshqa bir g'azalda esa shoir ma'shuqaning savsan (gulsapsar) rang to'n kiygani va bu bilan u binafsha barglariga burkangan shamshod daraxtga o'xshagani, aytiladi:

*Savsani to'n birla ul qad savsani ozod erur,
Yo binafsha bargidin zeb aylagan shamshod erur.*

Umuman, ma'shuqaga har qanday rangdagi to'n ham yarasha beradi. Chunki uning laqablaridan biri –"oy". Oy ham har xil rangli libosga o'ranadi:

*Qizil yoxud qaro, yo ko'k to'nung har bir erur mabsun,
Nechukkim oy libosi ham shafaq, ham kecha, ham gardun.*

Ammo unga ko'proq qizil rangdagi kiyim yarashadi. U oshig'iga ayniqsa shu qizil to'nda go'zal va yaxshi ko'rinadi:

*Gul sevarsenki, bu rang etgali xil'at ul sho'x,
Ranglar ichra erur ko'nqluma orom qizil.
Otashin gulbargidin xil'atki jononimdadur,
Xil'at ermas, ul bir o'tdurkim, mening jonimdadur.*

Boshqa bir matla'da qizil to'n kiyib, lolazorda yurgan yor tog' kakligiga o'xshatiladi:

*Jilvamu aylar qizil to'n birla har yon ul pari,
Yo magarkim, lolazor ichra kezar kabki dari. (7)*

Ma'shuqa ko'proq gul rang ko'ylak kiyadi. Undan gulga xos yoqimli ko'rinish va hid tarqalib turadi:

*Ko'nglaking bargi gulu ustida gulrang to'shak,
Gul kibi jisming uza o'ylaki, gulgun ko'nglak.
Ko'nglaking bo'yidin o'ldim, atridin topdim hayot,
Qaysi gul bargida bor erkin bu yanglig' rangi bo'.*(7)

Ma'shuqaning oyog'ida ko'p vaqt etik bo'lib, oshiq uning etigini tortib, changini yuzi bilan artib qo'yishga hozir:

Har ayog'idin o'tuk tortib, aritsam yuz bila... .

Yor obrazining ikkinchi muhim tomoni uning ichki dunyosi masalasidir. Navoiy lirikada bu masalaga ham ko'p to'xtaladi. Shoir o'z mahbubasini ba'zi o'rinlarda yaxshi xulqlar egasi qilib, go'zal va mehribon, dilbar va nozanin qilib tasvirlaydi. Bir g'azalda yozilishicha, bunday yaxshi sifat va xulqlarni unga azalda xudoning o'zi inoyat qilgan:

*Zihi azalda karam aylabon sanga xalloq,
Karim xil'at ichinda makorimul axloq.*

"Favoyid ul - kibar" dagi boshqa bir g'azalda ma'shuqaning axloqi husniga monandligi, shirin so'zligi tarannum qilinadi:

*O'xshar axloqinga husnungki, erur
Yaxshilik lozimasi yaxshi qilig'.
Husnunga o'xshadi jonbaxsh so'zung,
Kim bori o'zi silig', so'zi silig'.*

Bir qancha o'rinlarda ma'shuqaning ishq masalasidagi zolimligi uning kiyinishi orqali ochiladi. Masalan, u oshiqlarining qonini to'kmoqchi yoki to'kkan bo'lsa, albatta, urushga chiqqan yoki birovga g'azab qilmoqchi bo'lgan shohlar kabi qizil to'n kiygan bo'ladi:

*Ne uchun kiymish qizil to'n dahr bo'stonida gul,
Gar oqizmoq istamas oshifta bulbul qonini.
Ey Navoiy, qatl uchun gar xud qizil to'n kiydi yor,
Basdur ul to'n rangini muhtoji qatlu kin erur.
To'kti qon gulgun libosin kiygach, ul xo'blar shahi,
Qon to'kar ermish qizil to'n kiysa beshak shohlar.
Telbalar qatli qizil qilmish libosin, ohkim,
Bir yo'li devonalar qoniga kirmish ul pari.*

Quyidagi baytlardan, masalan, yorning boshidagi sochi orasiga gul sanchib olgani, telpagini qiyshiq kiygani, etagini beliga qistirib olganidan uning g'ayratliligi, sho'xliligini anglash mumkin:

*Yorab, bu ne guldurki, boshiga chechak sanchar,
Goh egri qo'yar bo'rkini, goh belga etak sanchar.*

Ammo ma'shuqa xarakteridagi asosiy xususiyat, yuqorida aytganimizdek, uning vafosizligidir. Yorning vafosizligi murakkab masaladir. Bir qarashda Navoiyning uning yaxshi xulqlarini maqtashi bilan salbiy xususiyatlarini qoralashi o'rtasida jiddiy qarama-qarshilik borgan o'xshab ko'rinadi. Haqiqatda esa bunday qarama-qarshilik yo'q. Ma'shuqaning asl tabiatida bunday yomon xususiyatlar yo'q. Uni Olloh har tomonlama tashqi qiyofasini ham, ichki qiyofasini ham ideal ravishda go'zal qilib yaratgan. Lekin ma'shuqa dunyoda, jamiyatda, xalq orasida yashaydi. U yashagan bu dunyoda, uni qurshagan kishilar orasida esa vafo rasm emas. Shoir shunday el haqida yozadi:

*Elda chun yo'qtur vafo, -sahrog'a qildim azmkim,
Xalq ila ko'rguncha kishvar, vahsh ila sahro ko'ray.*

Oshiq – shoir bunday el dastidan sahroga yuz o'girishga qasd qiladi. Mana shu muhitda ma'shuqa tarbiya topgan. Ma'shuqaning xakteri shunday muhit tarbiyalab yetishtirgan ijtimoiy bir hodisadir. Ma'shuqaning odamlarga munosabatlari ham shu muhitning, shu tarixiy sharoitning mevasidir. Hamma odamlar qatori ma'shuqa ham shu muhitga oyoq-qo'li bilan bog'langan. Shuning uchun u yashagan joy va muhitni shoir "dahr bog'i" deb atab, ma'shuqadan shikoyat qiladi.

Navoiy lirikasida ma'shuqa obrazining sifatlari, xakteri, tabiati, hayotiy qarashlari, yuksak darajadagi didi, farosati, yaxshi va yomon fazilatlarini, uning oldidagi vazifalari o'ziga xos tarzda

ochib berilgan. Shoir she'rlarida ma'shuqa obrazi orqali insoniy fazilatlarni ulug'ladi. Ko'plab g'azallari markazida ma'shuqaning o'rni borligiga va uni bosh qahramon sifatida ko'rishga bir nechta dalil va isbotlarni keltiradi. Bunda Navoiy o'xshatishni, qiyoslashni, sifatlashni, ta'rif-u tavsifni, va muallif bundan nima maqsadda foydalanganini, muddaosi ne ekanligini o'z o'rnida yorita bilgan. Demak, Navoiy g'azallari ana shunday baland ruhda bitilgan. Biz birgina ma'shuqa obrazidagi o'ziga xosliklarni ko'rib chiqdik, hali buyuk daho she'riyati qatida qancha mavzular yoritilishi kerak ekanligi ilm ahllari uchun ummon ostidagi gavaharni topishdek barobardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси. – Т.: ФАН, 1961.
2. Алишер Навоий. Бадое ул-бидоя. МАТ. I том. – Тошкент: Фан, 1987.
3. Алишер Навоий. Наводир ун-нихоя. МАТ. II том. – Тошкент: Фан, 1987.
4. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар. МАТ. III том. – Тошкент: Фан, 1988.
5. Алишер Навоий. Наводир уш-шаббоб. МАТ. IV том. – Тошкент: Фан, 1989.
6. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. МАТ. VI-том. – Тошкент: Фан, 1990.
7. Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент. 2007.
8. Шайхзода М. Ғазал мулкининг султони. VI томлик. IV-том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972-й, –372 б.
9. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
10. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965.



CONTEXTUAL MEANING AND IMPLICATURE TRANSFER IN HUMAN AND AI-GENERATED ACADEMIC TRANSLATIONS

Makhmudova Sabohat Adilbekovna,
Republican Education Center
sabomahmudova98@gmail.com

Abstract: *The increasing use of artificial intelligence (AI) in academic translation has raised important questions regarding the quality of meaning transfer beyond surface-level fluency. While AI-generated translations often demonstrate grammatical accuracy and lexical naturalness, less attention has been paid to how contextual meaning and implicature are reconstructed in comparison with human translation. This study investigates contextual framing and implicature transfer in human and AI-generated translations of academic abstracts. Drawing on pragmatic theory and functionalist approaches to translation, the research adopts a qualitative comparative design grounded in linguopragmatic analysis. A corpus of 10–15 academic abstracts was translated independently by human translators and an AI-based system, and instances of implicature were identified and analysed in relation to contextual adequacy.*

The findings reveal systematic differences between translation modes. AI-generated translations frequently exhibit contextual framing shifts, implicature loss, and implicature strengthening through explicitation. Although linguistically fluent, such translations tend to approximate contextual meaning through probabilistic association rather than inferential reconstruction. Human translations, by contrast, demonstrate greater sensitivity to disciplinary positioning, epistemic calibration, and discourse coherence. The study argues that translational adequacy in academic contexts is fundamentally grounded in pragmatic reconstruction rather than formal equivalence. These findings contribute to translation theory and provide critical insight into the limitations and appropriate use of AI-assisted translation in scholarly communication.

Key words: *contextual meaning; implicature; AI-generated translation; academic discourse; pragmatic adequacy.*

Ulug'bek Hamdam o'zbek hikoyachiligiga katta yangilik olib kirdi. U hayotni shunchaki boricha tasvirlab bermay, uni falsafiy mushohada va zamonaviy ruh bilan boyitdi. Uning hikoyalarda shunchaki qiziqarli voqealar emas, balki insonning o'zligini anglashi va ichki kechinmalari birinchi o'ringa chiqadi. Shu sababli, uning asarlarini o'qigan kitobxon shunchaki dam olmaydi, balki o'z hayoti va dunyoqarashi haqida chuqur o'ylay boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hamdam U. Na'matak (Hikoyalar to'plami). – Toshkent: "Sharq" NMAK, 2012. – 128 b.
2. Hamdam U. Uzoqdagi Dilnura (Hikoya). – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2015.
3. Hamdam U. Yaxshiya, sen borsan. (roman va hikoyalar to'plami). – Toshkent: "Akademnashr", 2023
4. O'zbek tili izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.
5. Ziyo.uz elektron kutubxonasi – Ulug'bek Hamdam hikoyalari va ular haqidagi taqrizlar bazasi.



Ҳикматов Ҳикмат Султонович,
ЧДПУ катта ўқитувчиси

Аннотация: Мазкур тезис-мақолада зуллисонайнлик анъанасининг тарихий илдизлари, унинг шаклланиш босқичлари, Шарқ ва Марказий Осиё маданиятидаги ўрни, шунингдек, машҳур зуллисонайн ижодкорлар мисолида ушбу ҳодисанинг моҳияти таҳлил қилинади.

Калим сўзлар: зуллисонайн, адабий муҳитлар, анъана, маданий бойиш, фикрий тараққиёт, илмий кўприк.

Аннотация: В данной диссертационной статье анализируются исторические корни традиции зуллисонайна, этапы её формирования, её место в культуре Восточной и Центральной Азии, а также сущность этого явления на примере известных художников-зуллисонайнов.

Ключевые слова: культура, литературная среда, традиция, культурное обогащение, интеллектуальное развитие, научный мост.

Abstract: This thesis-article analyzes the historical roots of the zullisonayn tradition, the stages of its formation, its place in the culture of East and Central Asia, as well as the essence of this phenomenon on the example of famous zullisonayn artists.

Key words: culture, literary environments, tradition, cultural enrichment, intellectual development, scientific bridge.

Зуллисонайнлик (икки тиллилик) инсоният тамаддуни тарихида муҳим ўрин эгаллаган маданий-ижтимоий ҳодисадир. Турли халқлар, миллатлар ва маданиятлар кесишган худудларда икки ёки ундан ортиқ тилларни билиш, уларда ижод қилиш, давлат ишларини юритиш ва илмий мерос яратиш табиий эҳтиёж сифатида шаклланган. Марказий Осиё худуди, айниқса, қадимдан турли цивилизациялар чорраҳасида жойлашгани боис зуллисонайнлик анъанаси бу ерда ўзига хос ривож йўлига эга бўлди.

“Зуллисонайн” атамаси арабча “зу” (эгаси, соҳиб) ва “лисонайн” (икки тил) сўзларидан ташкил топган бўлиб, икки тилни мукамал билувчи шахс маъносини англатади. [Раҳмонзода А. 4:189]. Бу атама кўпроқ адабиёт ва илм аҳлига нисбатан қўлланилган. Бироқ унинг мазмуни кенг бўлиб, ижтимоий ҳаётнинг турли соҳаларини қамраб олади.

Зуллисонайнлик анъанасининг илдизлари инсоният цивилизациясининг илк босқичларига бориб тақалади. Қадимги Миср, Месопотамия, Юнон ва Рим давлатларида турли тилларда сўзлашувчи халқлар ўртасида иқтисодий ва маданий алоқалар кучайгани сабабли таржимонлар ва икки тилли уламоларга эҳтиёж ортиб борган. Масалан, қадимги Юнон маданиятида юнон ва латин тилларини билган олимлар ва файласуфлар мавжуд бўлган. Кейинчалик Аристотел ва унинг издошлари асарлари юнон тилидан латин тилига таржима қилиниб, Европа илм-фани ривожига катта таъсир кўрсатган. Бу жараён зуллисонайнлик маданиятининг ривожланишига замин яратди.

Шарқ дунёсида эса араб, форс ва туркий тиллар ўртасидаги алоқалар зуллисонайнлик анъанасининг мустақамланишига сабаб бўлди. Айниқса, ислом цивилизациясининг шаклланиши даврида араб тили илм ва дин тили сифатида устувор мавқега эга бўлди. Шу боис кўплаб туркий ва форсийзабон олимлар ўз асарларини араб тилида ёзишга мажбур бўлганлар. Кейинги даврларда академик А. Раҳмонзоданинг ёзишича “баъзида назмда шундай шеърлар учрайдики улар уч тилда тожик, ўзбек ва араб тилларида ижод қилинган” [Раҳмонзода А. 4:189].

VII–XII асрларда ислом оламида илм-фан ва маданият юксак тараққий этди. Аббосийлар халифалиги даврида “Байт ул-ҳикма” каби илмий марказлар фаолият юритди. Бу ерда юнон, сурия, форс ва ҳинд тилларидан араб тилига таржималар амалга оширилди.

Марказий Осиёдан чиққан буюк алломалар, жумладан, Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Беруний ва Ибн Сино араб ва форс тилларини мукамал билган зуллисонайн олимлар эдилар. Улар илмий асарларини асосан араб тилида ёзган бўлсалар-да, миллий маданий муҳит билан узвий боғлиқ эдилар. Масалан, Беруний ҳинд маданиятини ўрганиб, “Ҳиндистон” асарини ёзди. У бир нечта тилни билган ва турли маданиятлар ўртасида илмий кўприк вазифасини бажарган.

Бу ҳол зуллисонайнликнинг фақат адабий эмас, балки илмий анъана сифатида ҳам шаклланишини кўрсатади. Ф.Исомиддиновнинг ёзиши бўйича “Ўрта Осиёда IX-X асрларда айрим адиблар асарларини араб ва форс-тожик тилида ёзганлар. Ўша даврларда араб ва форс-тожик тилларида ижод қилгувчиларни зуллисонайн адиб деб аташган” [Исомиддинов Ф. 6:3].

Марказий Осиё адабий муҳитида туркий ва форсий тиллар асрлар давомида ёнма-ён ривожланган. Форс тили узоқ вақт сарой ва адабиёт тили сифатида етакчилик қилган. Туркий тил эса халқ оғзаки ижоди ва давлат бошқарувида муҳим ўрин тутган. XIV–XV асрларда Темурийлар даврида маданий юксалиш рўй берди. Бу даврда зуллисонайн ижодкорлар етишиб чиқди. XV–XVI асрларда эса форсий ва туркий адабиётларда зуллисонайнлик ҳодисаси анъана даражасига кўтарилди. [Исомиддинов Ф. 6:3].

Уларнинг энг машҳурлари – Абдурахмон Жомий ва Алишер Навоий ҳисобланади. А. Раҳмонзоданинг ёзиши бўйича “Маданий ўзгаришлар ва янгилашнилар бошида Мавлоно Абдурахмон Жомий ва Мир Алишер Навоий туришган”. [Раҳмонзода А. 5:114]. Навоий туркий ва форсий тилларда юксак бадиий асарлар яратган. Унинг туркий тилдаги “Хамса”си туркий адабиётнинг нуфузини оширди. Шу билан бирга, у форсий тилда ҳам девон тузган. Навоий зуллисонайнликни фақат амалий эҳтиёж эмас, балки маданий сиёсат даражасига кўтарди. У туркий тилнинг имкониятларини исботлашга ҳаракат қилди.

Навоий замондоши Заҳириддин Муҳаммад Бобур ҳам зуллисонайн ижодкор эди. У “Бобурнома” асарини туркий тилда ёзган бўлса-да, форсий шеърлар ҳам ижод қилган. Бобурнинг зуллисонайнлиги унинг маданий кенгқамровлигини кўрсатади.

Зуллисонайнлик анъанасининг шаклланишида бир қатор омиллар муҳим рол ўйнаган: сиёсий омил – турли миллатлар яшаган давлатларда расмий ва халқ тили ўртасида фарқ бўлган. Иқтисодий омил – савдо йўллари (масалан, Буюк Ипак йўли) орқали тиллар аралашуви юзага келган. Маданий омил сифатида турли маданиятларнинг ўзаро таъсири назарда тутилган. Диний омил эса араб тилининг ислом дини билан боғлиқ нуфузи саналади. Марказий Осиёда форсий ва туркий тилларни билиш зиёлилар учун табиий ҳол эди. Бу ҳолат зуллисонайнликни маданий меъёрга айлантирди.

Зуллисонайн ижодкорлар икки маданиятни уйғунлаштирган. Улар бир тилда миллий руҳни ифода этган бўлсалар, иккинчи тилда халқаро майдонга чиққанлар. Масалан, Навоий форсий адабиёт анъаналарини туркий шеърятга татбиқ этди. Шу тариқа у икки маданий макон ўртасида кўприк бўлди. Бобур эса туркий тарихий насрни юксак даражага кўтарди. Бу эса зуллисонайнлик ижодкорга кенг фикрлаш, услубий ранг-баранглик ва маданий мулоқот имконини беради. Бу ҳолат адабиёт ривожига ижобий таъсир кўрсатган. Шу ўринда таъкидлаш ўринлики Р.Ҳодизоданинг “Адабиёти тоҷик” (олий мактаблар учун дарслик, 1988) дарслигида ёзилишича “XIX аср бошларида Хўқанд адабий доирасида қарийб барча шоирлари икки тилда–тожик ва ўзбек тилларида асарлар ижод қилишган”. [Ҳодизода Р. 6:232].

XIX–XX асрларда миллий уйғониш даврида ҳам зуллисонайнлик муҳим аҳамият касб этди. Жаҳид маърифатпарварлари туркий ва рус тилларини билган ҳолда янги маориф тизимини шакллантирдилар. Бу эса маданий модернизация жараёнида муҳим омил бўлди. Собиқ шўролар даврида ҳам кўплаб ўзбек зиёлилари ўзбек ва рус тилларида ижод қилдилар. Бу ҳолат адабиёт ва илм-фан ривожига янги босқични бошлаб берди. “XX аср бошларида ва октябр инқилоби даврининг авваларида С. Айний ва Ҳ. Ниёзий ўзбек ва тожик адабиётининг шўро давридаги ривожига улкан ҳиссаларини қўшган”. [Сайфуллаев А. 3:223].

Зуллисонайнликни фақат икки тилни билиш деб тушуниш етарли эмас. У маданий идентификация, мулоқот маданияти ва фикрий кенгликни англатади. Икки тилли шахс икки маданий манзарани англайди ва уларни уйғунлаштира олади. Замонавий глобаллашув шароитида зуллисонайнлик янада долзарб аҳамият касб этмоқда. Чунки халқаро ҳамкорлик, илм-фан ва технологиялар ривожига кўп тиллиликни талаб этмоқда.

Зуллисонайнлик анъанасининг тарихий илдизлари қадимги цивилизацияларга бориб тақалади. Ислом цивилизацияси даврида у илм-фан ривожига хизмат қилди. Темурийлар даврида эса адабий юксалиш билан боғланди. Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби зотлар бу анъананинг ёрқин намунасидир. Зуллисонайнлик маданиятлар ўртасида кўприк вазифасини бажаради. У миллатлараро ҳамжиҳатлик, маданий бойиш ва фикрий тараққиётнинг

муҳим шарт ҳисобланади. Шу боис бу анъана нафақат тарихий мерос, балки замонавий ҷамият учун ҳам муҳим қадриятдир.

Адабиётлар рӯйхати:

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
2. Абу Райҳон Беруний. Ҳиндистон (Китоб ал-Ҳинд). – Тошкент: Фан нашриёти, 1960 (ва кейинги нашрлар).
3. Атахон Сайфуллоев, “Садбарги адабиёт ва ҳунар”, Хўчанд, “Нури маърифат”, 2013.
4. Раҳмонзода А. “Ҳаёт, адабиёт, воқеият”(китоби дуюм) –Душанбе, “Душанбе Принт”, 2024, саҳ. 189
5. Раҳмонзода А. “Дўстлик пайғоми”, Тошкент, “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2023
6. Фарҳод Исомиддинов, Жонмирзо Мирзоев, “Зуллосонайн адиблар”, Тошкент, “Нурли истиқлол”, 2013
7. Ҳодизода Р, Каримов У, Саъдиев С; “Адабиёти тоҷик” –Душанбе, “Маориф”, 1988.



ABDURAUUF FITRAT “SHARQ” SHE’RINING NASHRLARARO QIYOSIY-TEKSTOLOGIK TAHLILI

*Giyosova Xilola Normaxamat qizi,
O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat
adabiyot muzeyi tayanch doktoranti
hilolagiyosova0405@gmail.com
Tel: +998 97 784 72 31*

Annotatsiya: Maqolada Abdurauf Fitratning “Sharq” she’ri 1922-yilgi “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plami, 1987-yilgi “O‘zbek adabiyoti va san’ati” gazetasi (№50), 2000-yilgi “Tanlangan asarlar” hamda 2011-yilgi “Saylanma” nashrlari asosida qiyosiy-tekstologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda leksik, fonetik, morfologik, sintaktik hamda g‘oyaviy o‘zgarishlar aniqlanadi. Matn variantlaridagi tafovutlar o‘zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyoti va sovet davri senzura siyosati bilan bog‘liq holda izohlanadi. Ilk nashr poetik keskinlik va g‘oyaviy aniqlikni saqlab qolganligi ilmiy dalillar asosida ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Fitrat, “Sharq”, matnshunoslik, jadid adabiyoti, variant, senzura, matniy tahlil.

Аннотация: В статье проводится сравнительно-текстологический анализ стихотворения «Sharq» Абдурауфа Фитрата на основе изданий 1922, 1987, 2000 и 2011 годов. Выявлены лексические, морфологические, синтаксические и идеологические изменения текста. Показано влияние редакционной политики советского периода и исторического развития узбекского литературного языка на трансформацию произведения. Доказано, что ранняя версия текста сохраняет большую художественную экспрессию и идейную остроту.

Ключевые слова: Фитрат, «Sharq», текстология, вариант текста, джадидизм, цензура.

Abstract: This article presents a comprehensive textual analysis of the poem “Sharq” by Abdurauf Fitrat based on editions published in 1922, 1987, 2000, and 2011. The study identifies lexical, morphological, syntactic, and ideological transformations in the text. The findings demonstrate the impact of Soviet editorial policy and the historical development of the Uzbek literary language on the evolution of the poem. The earliest edition preserves stronger poetic intensity and ideological sharpness.

Key words: Fitrat, “Sharq,” textual criticism, jadid literature, censorship, variant analysis.

XX asr boshlarida jadid adabiyoti milliy uyg‘onish harakatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu jarayonning yetakchi namoyandaligidan biri — Abdurauf Fitratdir. Fitratning 1922-yilda “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamida e‘lon qilingan “Sharq” she’ri mustamlakachilikka qarshi ruh, milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Bu she’r keyinchalik 1987, 2000 va 2011-yillarda ham qayta nashr etilgan. Tahlil uchun aynan shu yillardagi nashrlardan foydalandik. She’r tahlilidan avval 1922-yilda nashr etilgan “O‘zbek yosh shoirlari” to‘plamidan o‘rin olgan “Sharq” she’rining asl variantini berib ketishni lozim topdik.

“O‘zbek yosh shoirlari” /1922 “O‘zb adabiyoti va san’ati” jur. 1987/№50 “Saylanma”/2011
Tanlangan asarlar/2000

uchmox	ujmoh	uchmoh	uchmoh				
evrilishlar	emilishlar	evrilishar	evrilishar				
daxi dohiy	dahi dahi						
tengizlardan	dengizlardek	tengizlardan	tengizlardan				
daxi muzdan	dohiy muzdan	dahmuzdan	dahi muzdan				
bunda qurdi	har ulusning	har nasi	bunda turdi	har ulusning	har sasi	bunda turdi	har ulusning
harnasi bunda turdi har ulusning har sasi							
ham munda	o‘q yashadi	ham shunda	o‘q yasadi	ham munda	o‘q yashadi	ham munda	o‘q yashadi
o‘q yashadi							
talanalar	omonsiz	talanalar	omonsiz	talanadir	omonsiz	talanadir	omonsiz
qush boqishi	qush boqishi	qush boqish-la	qush boqish-la				
ko‘kragini,	eri bo‘lg‘an	yigitning	ko‘kragini,	eri bo‘lg‘an	yigitning		
—	ko‘kragini,	eri bo‘lg‘an	yigitning				
Sho‘r	suvlardan	chiqib kelgan	bir maymun	Sho‘r	suvlardan	chiqib kelgan	bir maymun
—							

—
Tulki, ilon, shayton, aldovchi mal'un
—
—
—

Angliz! Ingliz! — —
Hamda uning quyrug'ini tutqonlar Hamda uning quyrug'ini tutganlar
—
—

Shoirning turli yillar va turli nashrlarda chop etilgan “Sharq” she’rini qiyosiy tahlil qilish jarayonida eng avvalo fonetik va imloviy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Har bir grafik tizim fonetik hodisalarni turlicha ifodalaganligi sababli matnning tashqi ko‘rinishida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga kelgan.

Fonetik va imloviy tafovutlar

1922-yilgi nashrda uchraydigan “uchmox” shakli eski o‘zbek adabiy tilidagi fonetik va morfologik xususiyatlarni saqlagan. Bu yerda x undoshi arab yozuvida “خ” harfi orqali ifodalangan. 1987-yilgi nashrda esa bu so‘z “ujmoh” tarzida beriladi. Fonetik nuqtayi nazardan “ch” → “j” almashinuvi turkiy tillarda ba’zi shevalarda uchrasa-da, Fitrat matnida bu o‘zgarish muallif uslubiga xos emas, balki tahririy talqin mahsuli sifatida ko‘riladi.

1922-yilgi matnda uchraydigan “tengiz” shakli qadimgi turkiy til qatlamini aks ettiradi. Ma’lumki, O‘rxun-Enasoy bitiklaridan boshlab “teñiz” shakli qo‘llangan. Bu yerda so‘z boshidagi “t” undoshi tarixiy fonetik norma bo‘lgan. Keyingi nashrlarda esa so‘z “dengiz” tarzida beriladi. Bu hodisa turkiy tillarda kuzatiladigan jaranglashish (t → d) jarayonining natijasidir. O‘zbek adabiy tilining keyingi taraqqiyot bosqichida “dengiz” shakli me’yorlashgan va lug‘aviy norma sifatida mustahkamlangan. Shuningdek, aynan shu so‘zning “tengizlardan” va “dengizlardek” shaklida ifodalanishi ham she’r ma’nosini o‘zgartirib yuborgan.

So‘zlardagi o‘zgarishlar

“Sharq” she’ri variantlarini qiyoslash jarayonida fonetik tafovutlardan tashqari, so‘zlardagi o‘zgarishlar ham alohida e’tiborni tortadi. Bunday o‘zgarishlar matn shaklidan ko‘ra mazmuniga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ayrim so‘zlarning boshqa so‘z bilan almashtirilishi yoki grammatik shaklning o‘zgartirilishi poetik ohang va g‘oyaviy urg‘uni sezilarli darajada o‘zgartiradi. Shunday o‘zgarishlardan biri 1922-yilgi nashrda uchraydigan “daxi” so‘zi eski o‘zbek adabiy tiliga xos bo‘lib, “yana”, “tag’in”, “ham” ma’nolarini bildiradi. Bu birlik matnda qo‘shimcha kuchaytirish, takroriy urg‘u yoki mantiqiy davomiylilik vazifasini bajaradi. Masalan, “daxi muzdan” birikmasida “yana muzdan”, “yana sovuqdan” kabi ma’no yuzaga keladi. 1987-yilgi nashrda esa bu so‘z “dohiy” tarzida berilgan. “Dohiy” jumlası mutlaqo boshqa so‘z bo‘lib, “buyuk iste’dod sohibi” degan ma’noni anglatadi. Bu o‘zgarish matn mazmunini butunlay o‘zgartirib yuboradi va mantiqiy bog‘lanishni buzadi. Ehtimol, bu arab yozuvidagi grafemik o‘xshashlik (خ va ة harflarining noaniq o‘qilishi) yoki noto‘g‘ri transliteratsiya natijasidir. Har holda, “dohiy” varianti muallif uslubiga mos kelmaydi va kontekstual jihatdan asoslanmaydi.

She’r mazmuniga ta’sir qiluvchi yana bir muhim tafovut “talanalar omonsiz” shaklining keyingi nashrlarda “talanadir omonsiz” tarzida berilishidir. 1922-yilgi variantdagi “talanalar” shakli harakatning ko‘plik shakli ma’nosida dramatismni kuchaytiradi: jumlada jarayonning to‘xtovsiz, ommaviy tus olgani seziladi. Keyingi variantdagi “talanadir omonsiz” esa fe’lning hozirgi zamon umumlashma shakliga yaqinlashadi, ko‘plik va takroriylik ma’nosini yo‘qotadi. Natijada ma’no jihatdan ta’sir kuchi pasayadi. “Talanalar”dagi ko‘lam va ko‘p qirralilik “talanadir”da umumiy hukm shakliga aylanadi. Bu o‘zgarish she’r ritmiga ham ta’sir ko‘rsatadi: ko‘plik qo‘shimchasi (-lar) misra vaznini to‘ldirib, fonetik ohangdorlikni ta’minlagan bo‘lsa, “talanadir” shakli uni soddalashtiradi.

So‘zlardagi bunday chalkashliklarni ko‘plab o‘rinlarda uchratish mumkin. Misol uchun, 1922-yildagi nashrda “ulusning har sasi” birikmasi, yuqoridagi nashrlarda “ulusning har nasi”, “ulusning harnasi” shaklida ham kelib, matn mazmunini butunlay o‘zgartirib yuborgan.

Matndagi grammatik darajadagi tahririy o‘zgarishlar

Yuqoridagi she’r variantlarini qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, matnda nafaqat fonetik va leksik, balki morfologik hamda sintaktik darajadagi o‘zgarishlar ham yuz bergan. Bunday tafovutlar ko‘pincha

tarixiy grammatik shakllarning zamonaviy adabiy til me'yoriga moslashtirilishi natijasida paydo bo'ladi. Natijada matnning grammatik ko'rinishi soddalashadi, biroq ayrim hollarda uning tarixiy-uslubiy xususiyatiga putur yetadi.

1922-yilgi variantda uchraydigan "tutqonlar" shakli eski o'zbek adabiy tiliga xos bo'lgan sifatdosh qo'shimcha orqali yasalgan. Bu qo'shimcha qadimgi turkiy til davridan boshlab faol qo'llanib kelgan bo'lib, harakatning bajarilganini bildirgan: Demak, "tutqonlar" shakli tarixiy-morfologik qatlamni aks ettiradi va jadid davri yozma nutqida tabiiy hisoblangan. Keyingi nashrlarda esa bu shakl "tutganlar" tarzida beriladi. Bu o'zgarish o'zbek adabiy tilining XX asr o'rtalaridan boshlab me'yorlashgan grammatik tizimi bilan bog'liq. Mazkur o'zgarish she'r shakli yoki mazmunini o'zgartirmaydi, biroq matnning tarixiyligini susaytiradi va jadid davri tiliga xos ohangni soddalashtiradi.

She'rning ayrim variantlarida uchraydigan "boqish-la" shakli ham matnshunoslik nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Bu yerda "-la" qo'shimchasi qadimgi vosita kelishigi yoki bilan ko'makchisi o'rnida kelgan: "boqish bilan", "boqish orqali" ma'nosini bildiradi. U barmoq vaznida qo'shimcha urg'u hosil qilib, misra vaznini to'ldiradi va fonetik ohangdorlikni kuchaytiradi. Uning tushirib qoldirishi esa she'r ma'nosiga ta'sir qilib, misraning ohangdorligini susaytiradi. "Tutqonlar" va "boqish-la" shakllaridagi o'zgarishlar tarixiy shakllar matnda murakkabroq, qadimgi yozma uslubga xos shakl hosil qilgan bo'lsa, keyingi variantlar soddaroq va zamonaviy she'riyatga yaqinlashadi. Bu esa matnni o'qish uchun qulaylashtirsa-da, uning uslubiy bo'yoqdorligini kamaytiradi. Shunga o'xshash tavofutlar yuqoridagi jadvalda batafsil berilgan.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitratning "Sharq" she'ri turli yillardagi nashrlari qiyosiy o'rganilganda, asar murakkab matniy tarixga ega ekani yaqqol namoyon bo'ladi. Variantlardagi o'zgarishlar shunchaki imlo yoki tahrir masalasi emas, balki o'zbek adabiy tilining tarixiy taraqqiyoti, yozuv tizimlarining almashinuvi hamda muayyan siyosiy-mafkuraviy muhit bilan bog'liq jarayonlarning aksidir. Umuman olganda, mazkur she'rning turli variantlari bitta badiiy matnning turli davrlarda qanday talqin va tahrirga uchrashini ko'rsatuvchi yorqin misoldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фитрат А. Ўзбек ёш шоирлари. – Тошкент, 1922.
2. "Ўзбек адабиёти ва санъати" журнали. – 1987. – № 50.
3. Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000.
4. Фитрат А. Сайланма. – Тошкент: Akademnashr, 2011.



CHET TILI IXTISOSLIGI TALABALARI OG‘ZAKI NUTQ KO‘NIKMALARINI BAHOLASH MEZONLARI VA TAMOYILLARI

*Ummatkulova Charos,
Samarqand davlat chet tillar instituti
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tili ixtisosligi talabalari og‘zaki nutq ko‘nikmalarini baholash mezonlari va tamoyillarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qiladi. Og‘zaki nutq talabalarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Maqolada CEFR (Common European Framework of Reference) standartlari, rubrikalar va formativ baholash vositalari asosida baholash mezonlari aniqlanadi. Baholash jarayoni ravonlik (fluency), aniqlik (accuracy), muloqot qobiliyati (interaction), talaffuz va intonatsiya hamda kommunikativ kontekstga moslik kabi indikatorlar bo‘yicha tizimlashtiriladi. O‘zbekiston sharoitida talabalarning nutq ko‘nikmalarini baholashda formativ yondashuv va rubrikalardan foydalanish pedagogik foydalilik, shaffoflik va ishonchlilikni ta‘minlaydi.

Kalit so‘zlar: og‘zaki nutq, baholash mezonlari, CEFR, rubrikalar, formativ baholash.

Аннотация: Статья рассматривает критерии и принципы оценки устной речи студентов, изучающих иностранный язык, с теоретической и практической точек зрения. Устная речь играет центральную роль в формировании коммуникативной компетенции студентов. В статье определяются критерии оценки на основе стандартов CEFR, рубрик и инструментов формативного оценивания. Процесс оценки систематизирован по показателям: беглость, точность, коммуникативная способность, произношение и соответствие коммуникативному контексту. В условиях Узбекистана использование формативного подхода и рубрик обеспечивает педагогическую целесообразность, надежность и прозрачность оценки.

Ключевые слова: устная речь, критерии оценки, CEFR, рубрики, формативное оценивание.

Abstract: This paper analyzes the assessment criteria and principles for speaking skills of students in foreign language programs from both theoretical and practical perspectives. Speaking skills play a central role in developing students' communicative competence. The study identifies assessment criteria based on CEFR standards, rubrics, and formative assessment tools. The evaluation process is systematized according to fluency, accuracy, interaction, pronunciation, and alignment with communicative context. In the context of Uzbekistan, the use of formative assessment and rubrics ensures pedagogical effectiveness, transparency, and reliability of evaluation.

Keywords: speaking skills, assessment criteria, CEFR, rubrics, formative assessment.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalari chet tili ta‘limining ajralmas qismi bo‘lib, talabalarga o‘z til bilimlarini amaliy suhbatlarda qo‘llash imkonini beradi. Chet tili ixtisosligi talabalari uchun og‘zaki nutqni baholash jarayoni faqat grammatik va leksik bilimni emas, balki nutqning ravonligi, aniqligi, muloqotga moslashuvchanligi va talaffuz sifatini ham qamrab oladi. Oliy ta‘limda baholash asosan talabani kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, buning uchun formativ va summativ baholash vositalaridan foydalaniladi. CEFR (Common European Framework of Reference) standartlari va rubrikalar baholash mezonlarini aniq, tizimli va shaffof tarzda belgilashga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan, maqolada O‘zbekiston sharoitida og‘zaki nutq ko‘nikmalarini baholash mezonlari va tamoyillarining nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Og‘zaki nutq ko‘nikmalari chet tili ta‘limining asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, talabalarning til kompetentsiyasini shakllantirish va real muloqot vaziyatlarida o‘z fikrini aniq ifoda eta olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, chet tili ixtisosligi talabalari uchun og‘zaki nutqni baholash nafaqat ularning bilim darajasini aniqlash vositasi, balki pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Baholash jarayoni talabani nutq ravonligi, aniqligi, muloqot qobiliyati va talaffuzini kompleks tarzda kuzatish imkonini beradi, bu esa o‘qituvchiga individual yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi¹. Shu nuqtai nazardan,

¹ Fulcher, G., & Harding, L. (2022). The Routledge Handbook of Language Testing (2nd ed.). Routledge.

maqolada og‘zaki nutq ko‘nikmalarini baholash mezonlari va tamoyillarining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Baholash jarayonining samarali tashkil etilishi bir nechta asosiy tamoyillarga tayangan bo‘lishi kerak: baholash vositalari talabani til ko‘nikmalarini haqiqatan aks ettirishi (**ya’ni validlik**), natijalar turli baholovchilarda ham barqaror bo‘lishi (**ishonchlilik**), pedagogik jarayon uchun foydali va amaliy bo‘lishi (**pedagogik foydalilik**) va talabalar uchun tushunarli va shaffof bo‘lishi (**shaffoflik**). Shu bilan birga, og‘zaki nutqni baholash jarayoni faqat grammatik va leksik bilimlarni o‘lchash bilan cheklanmaydi, balki talabani nutq ravonligi, muloqot qobiliyati va kommunikativ kontekstga moslashuvchanligini ham kompleks tarzda aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv o‘qituvchiga har bir talabani individual yutuq hamda kamchiliklarini aniqlash va shunga mos pedagogik choralar ishlab chiqish imkonini beradi². Og‘zaki nutqni baholash mezonlari

CEFR asosida yondashuv

Og‘zaki nutqni baholashda CEFR tizimi xalqaro standart sifatida talabalarning til kompetensiyasini aniqlash imkonini beradi³. Tizim talabalarning ravonlik (Fluency), aniqlik (Accuracy), muloqot qobiliyati (Interaction), talaffuz (Pronunciation) kabi ko‘nikmalarini baholash mezonlarini belgilaydi⁴.

O‘zbekistonda CEFR tizimi so‘nggi bir necha yilda maktab va oliy ta’lim muassasalarida joriy qilinib⁵, baholashning obyektiv va tizimli bo‘lishini ta’minladi. Bu tizim orqali talabalar xalqaro standartlarga mos keladigan til ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Amaliyotda tizimning yutuqlari: baholash mezonlari bir xilda qo‘llanilishi, til ko‘nikmalarini tizimli rivojlantirish va xalqaro testlarga tayyorgarlikni osonlashtirish⁴.

Shu asosda, CEFR tizimi O‘zbekiston sharoitida talabalarning og‘zaki nutqini baholashda asosiy standart sifatida xizmat qilmoqda.

Og‘zaki nutqni baholashda qo‘llaniladigan vositalar

Og‘zaki nutqni baholash bir nechta asosiy vositalar yordamida amalga oshiriladi. *Birinchi vosita* — **rubrikalar** bo‘lib, talabani nutq elementlarini 0–4 ball tizimi orqali baholash imkonini beradi. Rubrikalar yordamida **mavzu barqarorligi, leksika mosligi, grammatik aniqlik va talaffuz** kabi indikatorlar bo‘yicha talabani nutqi strukturaviy tarzda baholanadi⁶. Bu yondashuv baholashning obyektivligini oshiradi va talabaga o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. Har bir indikator uchun oldindan belgilangan deskriptorlar (0 = juda past, 4 = juda yuqori) yordamida baholash amalga oshiriladi, bu esa rubrikalarni tahliliy vosita sifatidagi ahamiyati ko‘rsatadi. Rubrikalar talabani nutq ko‘nikmalaridagi o‘shishni vaqt o‘tishi bilan kuzatishga va individual rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, ular o‘qituvchilarga baholashning shaffofligini ta’minlab, subyektivlikni kamaytirishga yordam beradi. Rubrikalar pedagogik nazorat vositasi sifatida talabani zaif tomonlarini aniqlash va kurs hamda dars rejasini uning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi.

Ikkinchi vosita — **rating scales** bo‘lib, u talabani nutqini umumiy ballga aylantiradi va ko‘pincha CEFR standartlari bilan uyg‘un ishlaydi⁷. Ballar orqali talabani nutqi **mavzuga mosligi, muloqotga faol jalb etilishi va fikrlarni yetkazish aniqligi** kabi ko‘rsatkichlar yig‘ma tarzda baholanadi. Shu orqali baholovchi individual indikatorlar bo‘yicha umumiy natijani aniqlab, uni CEFR

² Hughes A. *Testing for Language Teachers*. 2-ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2003, pp. 26–35.

³ Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment (CEFR)*. Cambridge University Press, 2001.

⁴ Little, D. & Perclová, R. “The CEFR in Practice: Promoting International Language Standards.” *Language Teaching Research*, 2011.


⁵ O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi. *Chet tili o‘qitish milliy dasturi va CEFR integratsiyasi*, 2019

⁶ Ismailia, Titik. (2021). “Performance Assessment Using Rubric to Improve Students’ Speaking Skill.” *Journal of Applied Linguistics and Literacy*, Vol. 5(2):65–82.

⁷ Jing, T. (2025). A review on the application of language proficiency scales in speaking tests. *Education Insights*, 2(11), 127–134. DOI: <https://doi.org/10.70088/jgtstk54>.

darajalariga moslashtirishi mumkin, bu esa baholashni xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi (1-jadvalga qaralsin).

1-jadval



Uchinchi vosita — **performance tasks** boʻlib, u real vaziyatlarda talabaning kommunikativ kompetensiyasini sinashga yoʻnaltirilgan. Performance tasks orqali talaba **real suhbatlar, monologlar, rolli oʻyinlar va intervyu vazifalarida** oʻz nutqini namoyon etadi⁸. Bu yondashuv til bilimlarini faqat grammatik jihatdan emas, balki muloqot strategiyalari, moslashuvchanlik va nutqning mazmuni jihatidan ham baholash imkonini beradi. Masalan, real suhbatlar talabaning kundalik muloqotdagi qobiliyatini, monologlar mustaqil fikrni strukturaviy ifodalash qobiliyatini, rol oʻyinlari va intervyular esa talabaning kontekstga moslashuvchanligini va muloqotga faol jalb etilishini sinovdan oʻtkazadi. Shunday qilib, rubrikalar, rating scales va performance tasks vositalari birgalikda talabaning ogʻzaki nutqini baholashda **kompetensiya yondashuvini, baholashning obyektiv va shaffof boʻlishini** hamda **amaliy yoʻnaltirilganlikni** taʼminlaydi. Rubrikalar va rating scales baholashning aniq mezonlarga tayanishini, performance tasks esa real vaziyatlarda til koʻnikmalarini qoʻllash imkoniyatini beradi. Shu bilan CEFR asosida baholash Oʻzbekiston universitetlarida talabalarning ogʻzaki nutqini tizimli va samarali baholash uchun metodik jihatdan asoslangan tizim sifatida tatbiq etilmoqda.

Oʻzbekiston sharoitida ogʻzaki nutqni baholash jarayoni CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standartlariga asoslangan holda amalga oshiriladi va bu tizim talabalarning kommunikativ kompetensiyasini tizimli, shaffof va ishonchli ravishda aniqlash imkonini beradi. Rubrikalar va rating scales yordamida talabaning nutq koʻnikmalari — ravonlik, aniqlik, muloqot qobiliyati va talaffuz — aniq mezonlar boʻyicha baholanadi, shuningdek, individual zaif va kuchli tomonlar aniqlanadi. Performance tasks esa real vaziyatlarda talabaning nutqini amaliy jihatdan sinashga xizmat qiladi, bu esa nafaqat grammatik bilim, balki muloqot strategiyalari, moslashuvchanlik va nutq mazmunini baholash imkonini beradi. Shu tarzda rubrikalar, rating scales va performance tasks vositalari birgalikda kompetensiyaga yoʻnaltirilgan, amaliy va xalqaro standartlarga mos baholash tizimini taʼminlaydi.

⁸ Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment — Companion Volume with New Descriptors*. Strasbourg: Council of Europe, 2020.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi. Chet tili o'qitish milliy dasturi va CEFR integratsiyasi. — Tashkent, 2019. — 78 b.
2. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment — Companion Volume with New Descriptors. — Strasbourg: Council of Europe, 2020. — 200 s.
3. Fraga-Viñas L., Bobadilla-Pérez M. Comparative Study on Speaking Assessment Rubrics in Trinity and Cambridge Language Certificates: Adaptation to the Common European Framework Guidelines // Acta Universitatis Sapientiae, Philologica. — 2022. — Vol. 14, No. 2. — P. 50–67. — DOI: 10.2478/ausp-2022-0015.
4. Jamil E., Ishak N.A., Abdullah A.D., Hashim Z., Saaban P.S. Designing and Validating a CEFR-Aligned Speaking Rubric for Rural Primary ESL Learners // EDUCATUM Journal of Social Sciences. — 2026. — Special Issue:100. — DOI:10.37134/ejoss.vol12.Sp.12.2026.
5. Rahimberdiyeva M.R. Ta'lim metodikasi va baholash tizimida talabalarning baholashida innovatsion metod va usullardan foydalanish (ingliz tili misolida) // Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. — 2025. — № 1.
6. G'aybulloyeva F.B. Formativ baholash jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini tekshirish mazmuni va tartibi // Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. — 2022.
7. Umirzaqova Z., Jakbarova M. Boshlang'ich ta'limda matn vositasi orqali o'quvchilarda og'zaki nutq ko'nikmasini rivojlantirish // Zenodo.org. — 2025.
8. Djordjevic J. Rubrics in the Assessment of EAP Speaking Skills Supported by MALL // ESP Today Journal. — 2025. — Vol.13, №1.
9. Rubrics as tools for speaking assessment / Sired Udenar. — Colombia: Universidad de Nariño. — 2017.
10. North B., Schneider G. Relating language examinations to the Common European Framework: Manual. — Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2018. — 99–183 s.



XUDOYBERDI TO‘XTABOYEVNING “SHIRIN QOVUNLAR MAMLAKATI” ROMANIDA JAMIYATDAGI ILLATLARGA QARSHI KURASHISHNING NAMOYON BO‘LISHI

*Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“O‘zbek va rus tillari” kafedrasida o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Shirin qovunlar mamlakati” romani misolida bolalar adabiyotida sarguzasht janrining ijtimoiy-axloqiy funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yozuvchining real hayotdagi poraxo‘rlik, byurokratiya va loqaydlik kabi illatlarni badiiy obrazlar (Sehrgar Iblis, Shar Manda va b.) hamda satirik usullar (grotesk, personifikatsiya) orqali ochib berish mahorati ko‘rsatilgan.

Maqolada yozuvchi qo‘llagan fantastik elementlar G‘arb ilmiy fantastikasidan farqli ravishda, milliy folklor va axloqiy muammolarga yo‘naltirilgan ilmiy asoslangan. Xulosada asarning yosh avlodga tanqidiy fikrlashni shakllantirish va jamiyatdagi illatlarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otishdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, sarguzasht, fantastika, satira, grotesk, ijtimoiy illatlar, korrupsiya, axloqiy tarbiya, badiiy psixologizm.

Abstract: This article explores the socio-ethical functions of adventure and fantasy genres in children's literature, focusing on the novel "The Land of Sweet Melons" by the People's Writer of Uzbekistan, Khudoyberdi Tukhtabaev. The study highlights the author's skill in exposing real-life vices such as corruption, bureaucracy, and indifference through fantastic characters (Wizard Iblis, Shar Manda, etc.) and satirical techniques (grotesque, personification).

The article argues that Tukhtabaev's fantastic elements, unlike Western science fiction, are rooted in national folklore and focused on moral and ethical issues. The conclusion emphasizes the pedagogical significance of the novel in fostering critical thinking and a sense of intolerance toward social injustices in the younger generation.

Keywords: children's literature, adventure, fantasy, satire, grotesque, social vices, corruption, moral education, artistic psychologism.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-нравственные функции приключенческого и фантастического жанров в детской литературе на примере романа Народного писателя Узбекистана Худойберди Тухтабаева «Страна сладких дынь». В исследовании раскрывается мастерство писателя в изобличении таких реальных пороков, как коррупция, бюрократия и безразличие, через фантастические образы (Волшебник Иблис, Шар Манда и др.) и сатирические приемы (гротеск, персонификация).

В статье обосновано, что фантастические элементы Тухтабаева, в отличие от западной научной фантастики, опираются на национальный фольклор и ориентированы на духовно-нравственные проблемы. В заключении подчеркивается педагогическое значение романа в формировании критического мышления у подрастающего поколения.

Ключевые слова: детская литература, приключения, фантастика, сатира, гротеск, социальные пороки, коррупция, нравственное воспитание.

Sarguzasht asarlar bolalar ongida tasavvur va orzu dunyosini kengaytirish bilan birga, ularni ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashni anglashga tayyorlaydi. Pedagogik nuqtayi nazardan, fantastik obrazlar va g‘ayritabiiy voqealar yordamida bola o‘zini qahramonlar o‘rniga qo‘yadi, ularning axloqiy tanlovlarini his qiladi. Shu sababli sarguzasht adabiyot tarbiyaviy vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev qahramonlarining aksariyati Hoshimjon, Akrom, Zafar, Orifjon tabiatan soddadil, rostgo‘y, ammo ijtimoiy hayotdagi murakkabliklar bilan to‘qnash kelgan bolalardir.

Ular real dunyodagi ijtimoiy illatlar: poraxoʻrlik, soxtakorlik, beparvolik, dangasalik va rasmiyatchilikka qarshi turadi. Bu kurashning barchasi sarguzashtlar orqali ifodalanadi. Masalan, “Shirin qovunlar mamlakati”da Sehrgar Iblis ijtimoiy illatlarning timsoli boʻlib, u real shaxs emas, jamiyatdagi yomonliklarning badiiy siymosidir.

Xudoyberdi Toʻxtaboyev sarguzashtni faqat romantik yoki ertakona ruhda emas, balki satira (satira — ijtimoiy nuqsonlarni kulgili, kinoyaviy shaklda fosh etuvchi badiiy uslub) va grotesk (grotesk — gʻayritabiiylik va kulgililikni uygʻunlashtiruvchi tasvir usuli) bilan uygʻunlashtirib qoʻllaydi. Ayniqsa, “Shirin qovunlar mamlakati” romanida Shar Manda, Chinor Chinoriy, Nari Beri kabi obrazlarning nomlanishidayoq satirik maʼno mujassam. Bu obrazlar orqali yozuvchi byurokratiya, poraxoʻrlik va amaldorlik illatlarini keskin hajv qiladi.

Misol uchun, “Dadasi amaldorlar tajriba fakulteti” sahnasi groteskning klassik namunasi hisoblanadi: amaldorning oʻgʻli issiq kunda terlamasligi uchun yonida yelpib turuvchi ayollar, 14 xil sharbat, navbatchi massajchi bilan “imtiyozli talaba” sifatida koʻrsatiladi. Bu tasvir gʻayritabiiylik orqali real hayotdagi korrupsion muhitni ochib beradi.

Yozuvchi jamiyatdagi jiddiy illatni bola koʻzi bilan kulgili, ammo fosh etuvchi shaklda tasvirlaydi.

Xudoyberdi Toʻxtaboyevning fantastikasi gʻarb adabiyotidagi ilmiy fantastikadan tubdan farq qiladi. U ilmiy texnologiyalarga emas, balki axloqiy-maʼnaviy muammolarga yoʻnaltirilgan, folklor unsurlari bilan sugʻorilgan fantastikani yaratadi. Sehrli qalpoqcha, dori, hid biluvchi burun, Sehrgar Iblis — bularning barchasi xalq ertaklaridagi sehrli predmet va yovuz kuchlarning zamonaviy ijtimoiy kontekstdagi talqinidir. Shu bois bu asarlar milliy bolalar adabiyotining oʻziga xos fenomeni sifatida qaraladi.

Xudoyberdi Toʻxtaboyevning “Shirin qovunlar mamlakati” romanida jamiyatdagi ijtimoiy illatlar bolalar qahramoni Akrom tilidan bayon etiladi. Bu uslub orqali yozuvchi murakkab ijtimoiy hodisalarni soddalashtirgan, ammo chuqur maʼno yuklangan shaklda koʻrsatadi. Illatlar bir tomondan real hayotdagi nuqsonlar, ikkinchi tomondan esa fantastik obrazlar orqali ifoda etiladi. Bu ikki qatlam realistik va fantastik qatlam asarning badiiy-falsafiy kuchini belgilaydi.

Romanning dastlabki boblaridayoq yozuvchi taʼlim tizimi va maʼmuriy boshqaruvdagi korrupsion illatlarni ochib beradi. Akrom maktabdagi baholarning oʻquvchilarning bilimiga emas, balki paxta dalasidagi mehnatiga qarab qoʻyilayotganini ochiq aytgani uchun maʼmuriyat eʼtiborini tortadi. Bu epizod oʻz vaqtida keng tarqalgan “mehnat koʻrsatkichlari”ni taʼlim sifatidan ustun qoʻyish muammosini ochib beradi. Oʻquvchilarning attestatdagi baholari daladagi mehnatiga bogʻliq boʻlishi byurokratik rasmiyatchilikning bolalar taqdiri bilan toʻqnashgan koʻrinishidir.

Shuningdek, Akromning otasi mudir boʻlib ishlaydigan magazinda revizorning pora talab qilishi, omborchi Hamdam choʻloqning fakturadagi tovarlarni yashirishi, sudyaning esa 3000 soʻm pora evaziga jazoni kamaytirishi — bularning barchasi jamiyatdagi poraxoʻrlik, mansabni suiisteʼmol qilish va qonun ustuvorligining zaifligini koʻrsatadi. Yozuvchi bu holatlarni felyetonnavislik tajribasiga tayanib, hayotiy detallar bilan ifodalaydi: revizor aktlarni ikki nusxada tuzadi, omborchi tovarlarni choʻntakka uradi, sudya esa “kamlik qiladi” deb koʻproq pora talab qiladi.

Bu epizodlarda hech qanday fantastik vosita yoʻq — ular realistik badiiy tahlil sifatida romanning ijtimoiy poydevorini yaratadi. Aynan shu poydevor keyinchalik Sehrgar Iblisning yaratilishiga sabab boʻladi.

Asardagi eng muhim badiiy yechim ijtimoiy illatlarning ramziy obrazga, yaʼni Sehrgar Iblisga aylanishidir. Akrom tasodifan 17 xil “sarqitli qon”ni spirt bilan aralashtiradi va natijada yovuzliklarning birlashgan kuchi — Sehrgar Iblis dunyoga keladi. Bu hodisa oddiy sehrli tasvir emas; u ijtimoiy nuqsonlarning insonlar oʻz qoʻli bilan yaratayotgan yovuz kuchga aylanishining badiiy modelidir. Shu oʻrinda Xudoyberdi Toʻxtaboyev asarlariga xos boʻlgan element – voqea-hodisalarning jadal oʻzgarib ketishi koʻrinadi.

Sehrgar Iblisning “araq ichib voyaga yetishi” detali yozuvchining chuqur ijtimoiy kinoyasidir: ichkilikbozlik ko‘plab illatlarning ildizida yotganini ko‘rsatadi. Iblisning “Men sarqitlar sardoriman” degan gapi esa jamiyatdagi nuqsonlar o‘zaro qo‘shilib, yangi sifat — tizimli yovuzlik darajasiga o‘tishini ifodalaydi.

“— Menmi? — gulduragan tovush eshitildi qulog‘imga. — Ha-ha-ha, men sarqitlar sardoriman. O‘zing dunyoga keltirding meni. Maqtanchoq ustozing ikkoving bizni, ya’ni odam bolasini bir-biridan yiroqlashtiradigan, dilini xufton qiladigan illatlarni birlashtirib, yaxlit vujudga aylantirdinglar. Mana, men paydo bo‘ldim...”

Bu epizodda yozuvchi metafora (ko‘chma ma’no orqali ifoda) va personifikatsiya (insonsimonlashtirish) usullaridan foydalanadi. Jamiyatdagi illatlar “qon” ko‘rinishida moddiylashadi, so‘ngra inson qiyofasida Iblisga aylanadi. Bu badiiy yechim fantastika janrining ijtimoiy tanqidga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

Romanda illatlar ko‘pincha satira va grotesk (grotesk — kulgili va g‘ayritabiiylikni birlashtiruvchi uslub) orqali ochiladi. “Rostgo‘ylik va halollik tajriba instituti” sahnasida uch fakultetning nomi — “Dadasi amaldorlar tajriba fakulteti”, “Cho‘ntagi chuqurlar tajriba fakulteti”, “Bilimdonlar tajriba fakulteti” — bu jamiyatdagi korrupsiya tizimining badiiy kulgili modeli hisoblanadi.

“Erkatoy qo‘zichoq” sifatida tasvirlangan amaldorning o‘g‘liga issiq kunda yelpuvchi ayol, 14 xil sharbat, massajchi tayinlanadi. O‘qituvchini urish bilan tahdid qilgan Shar Manda esa jamiyatni “sharmanda” qilayotgan obraz sifatida ko‘rsatiladi.

“Cho‘ntagi chuqurlar tajriba fakulteti”da o‘qish uchun talabgor abituriyentning o‘zi emas, otasining chemodanidagi pullar “imtihon” topshiradi. Pulning kuchi tufayli uyda o‘tirgan talabgor eng yuqori ballni to‘playdi.

Bu tasvirlar grotesk va satiraning birlashmasidir: tasvir g‘ayritabiiy darajada bo‘rttirilgan, ammo tagida aniq real hodisa — imtiyozli tabaqa vakillarining bilimga emas, mansab va pulga tayangan kirish tizimi yotadi.

Shu tarzda yozuvchi fantastik elementlardan foydalanib, jamiyatdagi illatlarni bolalar ongiga yaqin, kulgili, lekin tanqidiy shaklda yetkazadi. Bu uslub ochiq tanqidni ramz orqali berish imkonini yaratgan.

Romanda ko‘rsatilgan illatlar shunchaki badiiy fon emas, balki aniq tipologiyaga ega:

<i>Illat turi</i>	<i>Badiiy obraz</i>	<i>Reallikdagi prototip</i>	<i>Tasvir usuli</i>
<i>Korrupsiya, poraxo‘rlik</i>	<i>Revizor, sudya, Shar Manda</i>	<i>Mansabdorlarning poraxo‘rligi</i>	<i>Satira, grotesk</i>
<i>Byurokratiya</i>	<i>Nari Beri, “fakultetlar”</i>	<i>Idoralar rasmiyatchiligi</i>	<i>Ism tanlash, komik vaziyat</i>
<i>Ig‘vogarlik</i>	<i>“Ig‘vogarning qoni” epizodi</i>	<i>Ma’naviy zarar yetkazuvchilar</i>	<i>Simvolik “zahar” tasviri</i>
<i>Dangasalik, mas’uliyatsizlik</i>	<i>Sehrgar Iblis tomonidan sehrlangan ishchilar</i>	<i>Ish unumdorligining sun’iy pasayishi</i>	<i>Folklor motivlari</i>
<i>Molparastlik</i>	<i>Tuman ayollari suhbatlari, “quloqsizlar tumani”</i>	<i>Molparastlik, ko‘z-ko‘z qilish illati</i>	<i>Dialoglar orqali satira</i>

Bu tipologiya yozuvchining illatlarga yuzaki emas, tizimli yondashganini ko‘rsatadi. Har bir illat alohida obrazga yoki fantastik hodisaga aylangan.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Shirin qovunlar mamlakati” romanining eng original jihatlaridan biri — unda jamiyatdagi illatlarga qarshi kurash jarayoni shunchaki qahramonlik yoki sehrli predmetlar orqali emas, balki ilmiy izlanish, tahlil, tajriba va ijtimoiy tashkiliy choralar bilan olib borilishidir. Bu jihatdan asar fantastik janrga mansub bo‘lsa-da, uning g‘oyaviy asosida ilmiy va axloqiy konsepsiyalar uyg‘unlashgan.

Romandagi professor Dar Daraja obrazi yozuvchining axloqiy-ilmiy qarashlarini mujassamlashtirgan markaziy figuradir. U insonlarning fikrini o‘qiy oladigan noyob qobiliyat sohibi (fikrni o‘qiy olish qobiliyati ham Xudoyberdi To‘xtaboyevning orzularidan biri bo‘lib, qahramonga singdirilgan), shu bilan birga fidoyi olim va kamtar ustozdir. Uning ishlaydigan “Inson instituti” laboratoriyasi inson umrini uzaytirish, jamiyatni illatlardan xalos etish bo‘yicha ilmiy ishlar olib boradigan maskan sifatida tasvirlanadi. Bu institut o‘z mohiyatiga ko‘ra ideal jamiyatning ilmiy markazi bo‘lib xizmat qiladi.

Dar Darajaning obrazida yozuvchi ilm va halollikning uyg‘unligini ko‘rsatadi. Professor nafaqat ilmiy yechimlar yaratadi, balki ularni shaxsiy manfaat uchun emas, jamiyat manfaati uchun qo‘llaydi. Dar Daraja o‘zining buyuk ixtirolarini e‘lon qilishni xohlamaydi, ularni “xalqning kashfiyoti” deb ataydi. Bu holat ilmiy halollikning yuksak namunasi sifatida beriladi:

“— Qani, menga ayt-chi, yovvoyi sigirni ushlab birinchi marta sog‘gan odamning nomi tarixda qolganmi? — Yo‘q. — Demak, bo‘talog‘im, ikkalamiz yaratayotgan kashfiyotni ham biz yaratganligimizni hech kim bilmay qo‘yaqolgani yaxshi. Xalq yaratdi, tamom-vassalom!”

Bu parcha orqali yozuvchi individual shon-shuhratga emas, jamoaviy ezgulik va ilmiy xolislikka asoslangan kurash modelini ilgari surganining guvohi bo‘lamiz.

Akrom qahramoni dastlab bolalarcha sho‘x, ayrim hollarda mas‘uliyatsiz sifatida ko‘rsatiladi. Ammo asar davomida u tahlil qilish, kuzatish, tajriba o‘tkazish va xulosaga kelish bosqichlarini bosib o‘tadi. Uning hid bilish qobiliyati oddiy sehrli unsur emas; bu qobiliyat jamiyatdagi illatlarni ajratib ko‘ra olish, ularni tanib olish qobiliyatining ramziy shaklidir.

“Ig‘vogarning qonidan sassiq qo‘ng‘izning hidi keladi, poraxo‘rning qoni sariqqa moyil bo‘lib, palag‘da tuxumning sasigan hidi bor, byurokratning qoni rangsiz, aynigan mol go‘shinikiga o‘xshash hid tarqatadi”.

Bu ilmiy kuzatuv va tasnif orqali Akrom jamiyatdagi illatlarni tashxislashning o‘ziga xos “metodologiyasini” yaratadi. Uning qobiliyati keyinchalik dori yaratish, illatlarni aniqlash va davolash ishlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Romanda yaratiladigan eng muhim ilmiy yangilik — bu illatli qon uchun maxsus doridir. Dori — bu oddiy kimyoviy modda emas, balki jamiyatni axloqiy-psixologik jihatdan sog‘lomlashtirish konsepsiyasining badiiy metaforasidir.

Dar Daraja va Akrom tomonidan tayyorlangan dorining ta’siri aniq bosqichlarga ega:

- birinchi bosqichda dori poraxo‘r yoki ig‘vogarning qonidagi “mikroblarni” aniqlaydi va peshonasida “PORAXO‘R” yozuvini paydo qiladi;
- ikkinchi bosqichda inson o‘z aybini tan olishi va tavba qilishi kerak;
- uchinchi bosqichda yana bir tomchi dori orqali inson tozalikka qaytariladi.

Bu jarayon aslida jamiyatdagi illatlarga qarshi kurashning tizimli modelini aks ettiradi: diagnostika → iqrornoma → rehabilitatsiya. Bu model zamonaviy sotsiologik yondashuvlarga yaqin bo‘lib, illatlarni jazolashdan ko‘ra ularni aniqlash va tuzatishga urg‘u beradi.

Asar qahramonlari Sehrgar Iblisga qarshi yakka tartibda kurashmaydi. Akrom Komitetga sekretar etib tayinlanadi va shundan so‘ng kurash institutsional shakl oladi. Komitet faoliyati davomida poraxo‘rlar, ig‘vogarlik bilan shug‘ullanuvchilar, dangasalar aniqlanib, dori yordamida “davolanadi”.

Bu jarayon yozuvchi tomonidan ijtimoiy hamkorlik, tashkilotchilik va tizimli chora-tadbirlar zarurligini badiiy tarzda ko'rsatishdir. Fantastik voqealar fonida ham bu tashkilot real hayotdagi korrupsiyaga qarshi komissiyalar, ijtimoiy nazorat organlari funksiyasini bajaradi.

Romanda illatlarga qarshi kurash bir necha bosqichli tizim sifatida shakllangan bo'lib, bu holat ilmiy yondashuvga juda yaqin:

Bosqich	Mazmuni	Badiiy vosita	Natija
Tashxis	Illatning sarguzasht obraz	Iloltilish qobilyoti, qorabildi	Illat turlari tanqisnadi
Tahlil	Illatning sarguzasht obraz	De Darguzasht sarguzasht	Ijtimoiy illatlar ochiladi
Tashkiliy kurash	Komitel faoliyati	Ijtimoiy tashkilot	Illatlar tizimi yengiladi
Axloqiy g'alaba	Iloltilish sarguzasht obraz	Tavba, qabul	Ezgulik va yovuzlik qorabildi

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Shirin qovunlar mamlakati" romanida fantastik obraz va motivlar shunchaki sarguzasht yaratish uchun emas, balki ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirishning badiiy vositasi sifatida qo'llanadi. Bu unsurlar bolalar ongida ezgulik va yovuzlik, halollik va illat o'rtasidagi kurashni tasavvur qilish, baholash va unga munosabat bildirish imkonini beradi. Shu bois fantastik obrazlar pedagogik va axloqiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov, A. (2008). G'aroyib saltanat. "Jahon adabiyoti" jurnali, 6-son.
2. Rasulova U. CHANGES IN LITERARY CRITICISM //Science and Innovation. – 2023. – T. 2. – №. 5. – C. 39-41.
3. Sayfullayeva D. THE ROLE OF MONOLOGUE AND DIALOGUE IN KHUDOYBERDI TOKHTABAEV'S NOVEL" MUNGLI KOZLAR" //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. C10. – C. 154-158.
4. To'xtaboyev X. Jannati odamlar. Cho'lpon nashriyoti, 1995.
5. To'xtaboyev X. Sariq devning o'limi. Yangi asr avlodi, 2017.
6. To'xtaboyev X. Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi" //T.: Yangi asr avlodi. – 2006.
7. Tulabayeva, R.S. 2022. Yozuvchi biografiyasi va bola ruhiyati o'ziga xosligi. O'zbekiston: til va madaniyat. 2(2): 54-62.
8. Umarali Normatov. Sarguzasht sardori. "Sharq yulduzi", 2012–4



FITRAT- MA'RIFATPARVAR ZIYOI

Abdukarimova Charos Yaxshiboy qizi,

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti

Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: O'ZJOKU dotsenti.T.R. Dusanova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning ma'rifiy qarashlari va milliy uyg'onish yo'lidagi xizmatlari yoritiladi. Ijodkorning "Adabiyot qoidalari" hamda "Tilimiz" asarlari asosida adabiyotning ijtimoiy-estetik vazifasi, tilning milliy o'zlikni shakllantirishdagi roli va ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy jihatdan yoritiladi. Fitratning qarashlari milliy uyg'onish mafkurasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Tayanch so'zlar: Abdurauf Fitrat, ma'rifat, "Adabiyot qoidalari", til, milliy uy -g'onish, ta'lim.

Abstract: This article analyzes the educational views of Abdurauf Fitrat within the context of the Jadid movement. Based on his works "Rules of Literature" and "Our Language", the socio-aesthetic function of literature, the role of language in shaping national identity, and the importance of education in social development are examined from a scholarly perspective. Fitrat's views are interpreted in connection with the ideology of national awakening.

Keywords: Abdurauf Fitrat, enlightenment, Rules of Literature, language, national awakening, education.

Аннотация: В данной статье просветительские взгляды Абдурауфа Фитрата анализируются в контексте джадидского движения. На основе произведений «Правила литературы» и «Наш язык» научно освещаются социально-эстетическая функция литературы, роль языка и формировании национальной идентичности и значение образования и развития общества. Взгляды Фитрата интерпретируются в тесной связи с идеологией национального возрождения.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, просвещение, «Правила литературы», язык, национальное возрождение, образование.

XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy va adabiy - madaniy hayotida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Mustamlakachilik siyosati, savodsizlik va jaholat millat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan bir davrda jadid ma'rifatchilari xalqni ilm-ma'rifat orqali uyg'otishga harakat qildi. Ana shunday fidoyi ziyolilardan biri Abdurauf Fitratdir. Fitrat qomusiy ilmlar egasidir. U - o'zbek dramachiligiga munosib hissa qo'shgan ijodkor. Jadid adabiyotining yetuk namoyondalaridan bo'lgan Fitrat asarlarida asosiy g'oya ma'rifat, xalqni baxtli ko'rish edi.

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda

Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.

O'ylashingda, turishingda hamda o'zungda

Bu yurt uchun qutulishning borlig'in ko'rdim.[Fitrat A, 1993:11]

Uning ma'rifiy qarashlari tasodifiy emas, balki chuqur nazariy asosga ega bo'lib, u adabiyot, til va ta'limni milliy taraqqiyotning strategik omillari sifatida talqin qiladi. Fitratning ma'rifiy qarashlari adabiyotning tarbiyaviy va ilmiy ahamiyatiga qaratilgan. U "Adabiyot qoidalari" risolasida adabiyotga quyidagicha ta'rif beradi: "Adabiyot – fikr va tuyg'ularimizdagi to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir. Adabiyotning ikkinchi bir tarifi, bir turli tartibga solinib yozilgan butun asarlardir. Bu tarifga qaraganda, bir tilda yozilgan butun asarlar shu tilning adabiyoti bo'ladi. Shunday qilib adabiyot fikr va tuyg'ularni chiroyli va ta'sirli ifoda etish san'atidir." [A.Fitrat.1:13]. Bu ta'rif faqat estetik mazmun bilan cheklanmaydi. Fitrat adabiyotni jamiyatning ruhiy hayotini shakllantiruvchi kuch sifatida ko'radi. Uning nazarida adabiyot inson tafakkurini o'stiradi, axloqiy mezonlarni mustahkamlaydi va ijtimoiy ongini uyg'otadi. Demak, adabiyot Fitrat uchun passiv kuzatuvchi emas, balki faol tarbiyaviy va ma'rifiy vositadir.

Fitratning ma'rifiy qarashlarida til muammosi markaziy o'rin tutadi. U o'z davridagi aksar ziyolilar tomonidan turli shakllarda bayon qilingan "Tilimizni arab-fors unsurlaridan tozalashning imkonsizligi" borasida juda keskin da'volarning zamini bo'sh ekanligini ko'rsatib beradi. Masalan,

1919-yildagi “Tilimiz” nomli maqolasida e’tirozchilarning “Turkcha arab, fors tillaridan qutulolmas, chunki tilimizda ko‘p narsalarning oti yo‘qdir” qabilidagi iddaolariga shunday javob qiladi: “Javobimiz: bu so‘zdan tilagingiz nimadur? Shul choqda tilingizdagi arab, fors so‘zlarining turkchasi topilmaydur demoqchi bo‘lsangiz, so‘zingiz yanglishdir. Turkchani bilmas ekansiz. O‘rganing. Hozirgi so‘zlarimizdagi arabcha, forschalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir, desangiz to‘g‘ridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Qoidaning turkchasi yo‘qdir. Sarfning turkchasini topolmadik. Ikkisin dahi olurmiz. Lekin, siz kabi qavoidi sarfiya demasdan, sarf qoidalari dermiz. Chunki ilmiy istilohlarning turkchasi yo‘qdir. Kim dedi buni? Shamsning turkchasi quyoshdir. Kavokibning turkchasi yulduzdir. Manorning turkchasi olov, o‘tdir. Sahobi munavvar – yorug‘ bulut, handasa – o‘lchov xat chiziq, zoviya – burchak, puchmoqdir. Kavokibi sobita – turg‘uchi yulduzdir. Kavokibi zu zamb – quyruqli yulduzdir”[H.Boltaboev.2:48].

Fitrat mazkur maqoladagi fikrlarini no‘to‘g‘ri talqin qila boshlagan ayrim “tilshunos”larga ayni sarlavhali boshqa maqola bilan javob bergan, maqsadining mag‘z-u mohiyatini ikki karra ikki to‘rtday aniq bayon qilgan. Uning ushbu so‘zlaridagi bir qadar og‘rig‘-u o‘kinchni ilg‘amaslik mumkin emas: “ Men turk ulusig‘a o‘z boshli (mustaqil) bir til va shu tilde yozilgan “ilm” istayman. Turkchani boylig‘i, kengligi va to‘lg‘unligini bilganim uchun bu ishni qulay deb ishonaman. Tilimizning o‘z boyligi (mustaqil) bo‘lib turushi uchun gaplarga va yozuvlarimiz aro kirib qolg‘an yot so‘zlarning o‘zbekchalarini ilkimizdan kelgancha oxtarib topib ishlaylik. Tilimizdag‘i yozilg‘an “ bilim”ni ko‘rmak uchun “ilmiy istilohlar” dedigimiz “bilim so‘zlari” ning ilkimizdan kelgancha turkchalarini topib olmoq yo‘linda tirishmakni har bir turk yozuvchisi uchun “vojib” deb bilaman. Turkchasi topilmag‘an so‘zlar va istilohlar qolsun, biroq turkchani buyrug‘i ostinda kirib qolsun; boshqacha turli aytqanda, Fransa(Fransiya)da yashag‘an bir turk kabi bo‘lundig‘i turkchani qonunlarig‘a bo‘ysunib yashasun; turkchda turg‘an bir fransuzdek “kapitulatsion” asrori ostida turmasun”[H.Boltaboev.2:48].

Uning bu va boshqa qaydlari bilan tanishganda olim zabardast tilshunos sifatida o‘zbek tilining sofligi va rivoji uchun nechog‘lik muntazam qayg‘urganligiga, mazkur masalaga chinakam ilmiy mantiq va teran hassosiyat bilan yondashganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Fitrat nazarida milliy uyg‘onishning eng muhim sharti – ta‘lim tizimini isloh qilishdir. U eski usuldagi ta‘limni zamon talablariga javob bermaydi deb hisoblaydi, shu sababli yangi usul maktablari orqali yosh avlodga zamonaviy fan, texnika va dunyoqarash asoslarini singdirish lozimligini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, jaholat – taraqqiyotning asosiy dushmani. Ilm esa ozodlikka eltuvchi vositadir. Shu ma‘noda uning ma‘rifiy qarashlari faqat madaniy emas, balki siyosiy ahamiyat ham kasb etadi, chunki ilmiy jamiyat mustaqil va sog‘lom fikrlay oladi.

Abdurauf Fitratning ma‘rifiy qarashlari jadidchilik mafkurasining nazariy asosini tashkil qiladi. U adabiyotni- ma‘naviy tarbiya vositasi, tilni – milliy o‘zlik asosi, ta‘limni esa- jamiyat taraqqiyotining bosh omili sifatida talqin qiladi. Uning g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Globallashuv jarayonida milliy tilni asrash, ma‘naviy qadriyatlarni mustahkamlash va ilm-ma‘rifatni ustuvor qilish masalalari hanuz dolzarbdir. Shu bois Fitrat merosi nafaqat tarixiy hodisa, balki zamonaviy tafakkur uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.А.Фитрат. Танланган асарлар. 4-жилд. “Тилимиз” мақоласи. www.ziyouz.com
2. А.Фитрат. Адабиёт қоидалари.-Т;Маънавият,2006.-336-б.
- 3.А.Фитрат. Шеърлар. “Маънавият” нашриёти. www.ziyouz.com
- 4.Х.Болтабоев.Фитна санъати-2.-Т: Фан,1993.-154 б.



MAQSUD QORIYEV IJODIDA TARIXIY SHAXS OBRAZI TALQINI

Anvar ALLAMBERGENOV,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotasiya: Maqola Maqsud Qoriyevning "Ibn Sino" romanidagi Beruniy obrazi talqinining tahliliga bag'ishlanadi. Romanda Beruniy yordamchi obraz sifatida tasvirlangan bo'lsa ham tarixiy shaxs va ulug' alloma ekanligi roman janri imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: epizodik obraz, muallif tili, personajlar tili, davr, tarixiy haqiqat, badiiy mahorat.

Abstract: The article analyzes the interpretation of the episodic image of Beruni in the novel by Maqsud Koriev "Ibn Sino". Despite the fact that the image of Beruni in the novel is episodic, the author managed to reveal, within the limits of the novel's capabilities, his characteristic features as a historical personality and a great scientist.

Key words: episodic image, author's language, character language, historical period, historical truth, artistic skill.

Аннотация: В статье анализируется трактовка эпизодического образа Беруни в романе Мақсуда Қориева "Ибн Сино". Несмотря на то, что образ Беруни в романе является эпизодическим, автору удалось раскрыть в пределах возможностей романа его характерные особенности как исторической личности и великого учёного.

Ключевые слова: эпизодический образ, авторский язык, язык персонажей, исторический период, историческая правда, художественное мастерство.

Maqsud Qoriyevning "Ibn Sino" romani o'zbek adabiyotidagi Abu Rayhon Beruniy obrazi qatnashgan asarlardan biri. Romanda Beruniy obrazi epizodik qahramon sifatida keltirilgan. Qomusiy olimning salobati va salohiyatini yozuvchi mahorat bilan ochib bera olgan. Roman nomidan anglashilganidek buyuk bobokalonimiz, tib ilmining bilimdoni Abu Ali ibn Sino hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan bo'lsa-da, asarda uning zamondoshi Beruniy obrazi ham o'z aksini topgan. Epik turning salmoqli janri bo'lmish romanda bir zamon va bir makon farzandlari bo'lgan bu ikki ulug' zotning biri haqida so'z yuritilib ikkinchisi haqida to'xtalmaslik, albatta, mumkin emas edi. Ilmiy faoliyat qamrovi bir-birining o'ta yaqinligi, bir-biri bilan do'stona munosabatda bo'lganligi, bir ilmiy dargoh (Ma'mun akademiyasi)da faoliyat olib borganligi va shunga o'xshash bir qator omillar bu ikki daho obrazlarining yonma yon tasvirlanishiga sabab bo'lgan. Maqsud Qoriyev o'z Ibn Sinoning birinchi navbatda buyuk hakimligini, odamiyligini, insonparvarligini, ilmga hamisha ishtiyoqmandligini, ijodda shiddatkorligini boshqa bir usul va boshqa bir vositalar yoki bo'lmasa to'qima obrazlar orqali ham ko'rsatishi mumkin edi. O'z davrida ilm-fan sohasida Ibn Sino bilan bo'yilasha oladigan yagona shaxs Abu Rayhon Beruniy bo'lganligi boisdan muallif ulug' alloma obrazini epizodik qahramon sifatida bo'lsa ham kiritish vositasida Ibn Sino shaxsining ilmiy salohiyatini mukammal darajada ko'rsatib berishga erisha olgan.

"Roman voqeligiga kiritilayotgan har bir personaj goho sezilarli, goho ko'zga ko'rinar-ko'rinmas iplar bilan o'zaro bog'lanadi. Ular asarda muallifning badiiy niyati ijrosida muhim rol o'ynab, bosh konsepsiyaning amalga oshuviga xizmat qiladi. Har bir obrazning asardagi ishtiroki qay darajada qiymatga ega bo'lishidan qat'iy nazar bir-biri bilan chanbarchas bog'liq. Biri ikkinchini taqozo qiladi. Ularning barchasi asosiy maqsad sari jamlanadi, shu yo'lda jiplashadi. Ya'na romandagi har bir unsur, jumladan, har bir personaj, vaqt yagona markazga intiladiki (sentrostremitelnost), o'sha markaz sifatida muallif konsepsiyasini ko'rsatish mumkin."⁹Filologiya fanlari doktori Sanobar To'laganova ta'kidlagan "ko'rinar-ko'rinmas iplar"ning romandagi robitasini Ibn Sino va Beruniylarning yozishmalari, savol-javoblarda ko'rishimiz mumkin. Tarixdan ham ma'lumki, bu allomalar bir-birlarini ko'rmasdan oldin asarlarini o'qishgan, bir-birlari haqidagi ovozalardan boxabar bo'lib turganlar maktublar yozishib, o'zaro savol-javoblar orqali ilmiy muloqotga kirishgan. Savol-javoblardan bugungi kunimizga qadar o'n sakkiztasi yetib kelgan. Yozuvchi shu tarixiy faktdan ijodiy foydalanadi, ular faoliyatidagi bu ijodiy hamkorlikni roman

⁹ Тўлаганова С. "Бадий асар морфологияси" Т.: 2016 "Турон замин зиё" 83 бет

syujeti zamiriga singdirib, yedirib yuboradi. Shu tariqa tarixiy voqelik, ikki buyuk olimning ijodiy faoliyatidagi mushtarak nuqtalar asarda o'zining badiiy ifodasini topadi.

Asarning "Majlisi ulamo" deb nomlangan ikkinchi bobida tarixdan ma'lum va mashhur bo'lgan Xorazmshoh hukmdor Abul Abbas Ma'mun tashabbusi bilan 1004 yili uning saroyida tashkil qilingan "Dorul hikma va maorif" deb nomlangan ilm maskani, undagi ilmiy hayot, ulamolar olib borayotgan tadqiqotlar, ular orasidagi bahs-munozaralarning jonli tasvirini ko'ramiz. Shu o'rinda adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning quyidagi gaplari yodimizga keladi. "Bashariyat qadim Sharqdan har qancha minnatdor bo'lsa arziydi. Sharq barcha buyuk dinlarga beshik. Jahondagi eng mushtarak madaniyat, ilm-fan koshonalari dastlab Sharqda bino etilgan. Adabiyot, san'at, musiqa orqali o'zini tanishni inson ilk bora mashriqzaminda amalga oshirgan. Xullas, aytsa aytgulik haqiqat va hodisotlar ko'p. Ularga erishish qanday kechgan? Deyarli birortasi ham yengil va oson bo'lmagan. Hammasining ortida mashaqqat, fidoiylik, azob-uqubat va shijoat yashirindir."¹⁰

"Majlisi ulamo"ga Abu Rayhon Beruniy rais bo'lganligi tarixdan ma'lum. Muallif asarda buni shunchaki xabar sifatida ta'kidlab qo'ymaydi. Beruniyning hatti-harakatlari, gap-so'zlari, boshqalarning unga bo'lgan munosabati va shu kabi ko'plab omillarni keltirib o'quvchida Beruniyning o'z davrida ilm-fanning yetakchi arbobi, boshqa olimlarning ustози ekanligiga o'quvchini ishoniradigan badiiy lavhalar, hayotiy tasvirlar yaratadi. Shuni unutmazlik kerakki, romanning bosh obrazi Ibn Sinodir. Yozuvchining mohirligi shundaki, bosh qahramon bilan bog'liq voqealar fonida Beruniy shaxsiga xos xususiyatlarni, u bilan bog'liq voqealarni ham tasvirlagan bunda bir voqeaning zamiridan chiqadigan xulosalar boshqa personaj (bu o'rinda Beruniy) va u bilan bog'lik voqealar xususida ham xulosalar chiqarishga imkon beradi. Ulug' hakim hazratlarining bag'ri keng inson ekanligidan dalolat beruvchi quyidagi voqeadada Beruniyning olimlar peshvosi sifatidagi xususiyatlarini ko'rsatuvchi harakatlar va holatlar namoyon bo'ladi.

"Ibn Sino ulamoga murojaat etdi:

- Muhtaram Beruniy hazratlari shogirdingiz deb aytgan mana shu qarshingizda turgan inson mening qulim bo'lur, ijozatingiz bilan va sizlarning guvohligingizda shu daqiqadan boshlab uni ozod eturmen, agar rozi bo'lsa shogirdlikka olmoqchimen...

Ibn Sino Beruniyga, allomalarga nima deysizlar degandek qarab turdi.

-Bisyor savob ish qilg'an bo'lursiz, aytmasangiz ham barchamiz shogirdingiz deb o'ylaganmiz, - dedi Masihiy viqor bilan.

- Hazrat Ibn Sinoning takliflari ma'qul etilsin, - dedi Beruniy masalaga yakun yasaganday"¹¹

Olingan parchada ibn Sinoning ilmga ixlosmand qulini ozod qilishi tasvirlanadi, agar u rozi bo'lsa uni o'ziga shogird qilib olish fikrida ekanligi ta'kidlanadi. Bu o'rinda hakimning ilmga va ilm ishtiyoqidagilarga bo'lgan alohida bir mehri va g'amxo'rliги o'zining badiiy ifodasini topadi. Va shu asnoda orqa plandagi Beruniy obrazining biz yuqorida ta'kidlagan qirralarini ko'rsatadi, uning olimona salmoqli so'zini, boshqaruvchilarga xos bo'lgan yakunlovchi gapini keltiradi. Shu o'rinda o'ylashga, mulohaza qilishga chorlovchi bir fikr paydo bo'ladi. Shu davrada Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masiyhiy, Abu Xayr Hammor kabi ustoz allomalar bor edi. Nega endi muallif masalaga yakun yasaydigan so'zni Beruniy tilidan beradi? Chunki mana shu oddiy holat tasviri Beruniyning mavqeyini, uning ayrim karakter xususiyatlarini ko'rsatadi va ayni paytda bizning yuqorida ta'kidlagan fikrlarimizga bir dalil bo'la oladi. "Ba'zan badiiy asar syujetida shunday vaziyat vujudga keladiki, ikkinchi darajali qahramonlar bosh qahramonlarga ergashib qolmasdan voqealar tizginini o'z qo'liga olib, asardagi boshqa ishtirokchilarni o'z ortidan ergashtirishi mumkin".¹² Roman syujeti taqozosiga ko'ra aynan "Majlisi ulamo" bobida voqealar rivojida Beruniy obrazi oldinlab ketganday tuyuladi. Bu muallifning bosh qahramon Ibn Sino borasidagi maqsadini amalga oshirish uchun bir vositadir. Asar boshidan Beruniy epizodik karakterdagi personaj sifatida birda eslanib, birda eslanmay kelayotganiga bo'lsa, ayni bobda unga salmoqli badiiy funksiya yuklanib, u faollashadi. Bu funksiya Ibn Sinoning ilm olamidagi mavqeyini ko'rsatishdan iborat. Har qanday narsaning yutug'i, oshig'i-yu, kami qiyosda, taqqosda yaqqol ko'rinadi. Ibn Sino bilan shu davrda faqatgina Beruniygina tenglasha olishi mumkin edi. Asarning bosh qahramoni sifatida Ibn Sino shaxsi tanlanib, birinchi

¹⁰ Иброхим Хақкул "Мушоҳада ёғдуси" Т.: "Тафаккур" нашриёти 2019 й. 17-18 бетлар

¹¹ Қориев М. "Ибн Сино" "Шарқ" нашриёт-матбаа контсерни бош таҳририяти Т.: 2000 й. 112 бет

¹² Тўлаганова С. "Бадий асар морфологияси" Т.: 2016 "Турон замин зиё" 94 бет

planga olib chiqilganidan keyin tarozu posongisi Beruniy tarafiga emas, hakim tarafiga ko'proq og'adi. Muallifning so'zda saxiyiligini bugungi kunimizga qadar boshqa bir mualliflar asarlari orqali faqat ismlariyu asarlarining nomlari yetib kelgan ulamolar ta'rifidan sezamiz. "Yozuvchining badiiy voqelikni xolisona tasvirlash tamoyillari tarixiy shaxslarni tanishtirish yoki ma'lum bir ijtimoiy-maishiy masalani bayon qilish jarayonida yaqqolroq ko'zga tashlanadi."¹³ Buni biz Majlisi ulamodagi olimlarni qator sanashida ko'rishimiz mumkin. U yerda o'n bitta olim birma-bir tilga olinadi. Sanoqdan so'ng allomalarning mubohasasi-yu munozarasi boshlanadi. Yozuvchi Beruniyning o'quvchi ko'z oldida xolis fikr yurtuvchi shaxs, ilmi insonlarni qadrllovchi olim, yaxshi do'st, mohir notiq sifatida gavdalantiradi. Muallif asl maqsadi ham bizningcha shunday. Yuqoridagi bir misolda Ibn Sino faolroq tasvirlangan bir parchani keltirgan edik. Unda Beruniyning o'quvchi uchun yashirin qirralari namoyon bo'lgan bo'lsa, quyida Beruniy faolroq qatnashgan parchada Ibn Sinoning olimlik qiyofasi yorqinroq ko'rinadi:

"Ibn Sino javob uchun og'iz juftlagan ham ediki, uning o'rniga Beruniy javob qildi:

- Ibn Sino hammadan burun faylasuf, kimyo, al-jabr, tabiat ilmidan ham xabardor, ilmning ko'p qirralariga oid yozgan risolalari qo'llardan qo'llarga o'tib yurur, tabobat sohasida hozir uning oldiga tushadurg'oni yo'qdur, desam yanglish bo'lmas. Bu qiyosdan Masihiy hazratlari xafa bo'lmas, deb o'ylayman. Nima qilsa ham Ibn Sino sodiq shogirdlari-ku?!

- Juda oshirib yubordingizlar, sizlar o'ylagancha ermas, - dedi biroz xijolat chekib Ibn Sino."¹⁴

Yozuvchi kenglik va tenglik, kingadir imkon berish, ba'zi o'rinlarda o'zini chetga olish va kerak joyida sukut saqlay bilish kabi fazilatlarini qisqa ko'rinish, oniy bir tasvirlar, qahramonlarning imo-ishora harakatlari orqali Beruniy obraziga singdirib yuboradi. Romanning 117-sahifasida Ibn Sinoning Xorazmshoh saroyida ilm majlisidagi ilk daf'a qatnashishi tasviri beriladi. Shoh Ma'munning o'rta tashlagan savoli va unga Ibn Sinoning javob berishigacha bo'lgan lahzalik vaziyat yuqoridagi so'zlarimiz tasdig'idir. Bag'oyat siqqlik bilan, ixcham tarzda orqa fonda turgan qahramonning, qahramon bo'lganda ham uncha-muncha qahramon emas dunyo tamaddunida o'z nomini oltin harflar bilan yozib qoldirgan shaxsning ulug'vorligini ochib berishga harakat qilgan va buning uddasidan imkon qadar chiqqan. Maqsud Qoriyev tarixiy davrni tasvirlashga bel bog'lab, o'ta ma'suliyatli ishni o'z zimmasiga olgan ekan, tarixiy shaxslar, ulug' allomalar, daho zotlarning hayotini yoritish kabi mashaqqatli ish bu ma'suliyat yukini yana ham zalvorli qiladi. Ibn Sino obrazini tarixiy shaxs Ibn Sino darajasida yoritishga roman janri imkoniyatlari bimalol yetadi. Asarni diqqat bilan o'qir ekanmiz, unda biz tarixdan bilgan alloma Abu Rayhon Beruniyning ham ko'ramiz, qolaversa, Abu Ali ibn Sino uchun jonkuyar bir do'st bo'lganligini ham o'zimiz uchun kashf etamiz. Jahon olimlari tomonidan "Dunyo fani tarixida XI asrning birinchi yarmi Beruniy davridir"¹⁵ degan e'tiroflarni, uning ilm fan sohasidaga qo'shgan ulushini ham esdan chiqarmagan yozuvchi buni ikki daho diologlarida bir-biriga aytilayotgan xabar tarzida, ma'lumot tarzida asar qatiga kiritib yuboradi. Masalan, Beruniyning yer shari shaklini ilk bor yasagan olim ekanligi haqidagi fikrni quyidagi suhbat asnosida obrazlar tilidan ta'kidlab ketadi.

- "Siz quyosh og'ishi uzoqligini aniqlashda Yunon va Sharqdagi boshqa ilmdorlardan ancha oldinga o'tib ketibdursiz, - dedi Ibn Sino allomaga tan berganday.

- Men sizga yo'lingiz tushub qolsa rasadxonamizda turgan ona yerimizning ko'rinishini ifoda etuvchi kurrani ko'rsaturmen, shogirdlarim birlan birga yasadik uni. Ha, bu birinchi bor qilg'on ibratomuz ishimizdir."¹⁶

Oddiy suhbatday tuyulishi mumkin bo'lgan yuqoridagi diolog zamirida katta ma'no mujassam. Birinchidan Beruniyning kuzatishlarini Ibn Sino tomonidan e'tirof etilishi, uning Yunon va Sharqdagi boshqa ilmdorlardan ancha ildamlab ketganligining ta'kidlanishi Beruniyning yordamchi qahramon ekanligidan qat'iy nazar, bari bir o'z darajasidan tushirilmaganligini ko'rsatadi. Obraz yaratishda tarixiy shaxs shaxsiyati va maqomiga putur yetkazilmagan. Ikki daho zot kechinmalari ichki monologlar orqali berilgan o'rinlar ham g'oyat latif, nihoyatda ta'sirli. Bu ichki monologlar haqiqiy e'tirof, chin xavas tarzida yangraydi. Asardagi bu monologlar muayyan maqsadlarga xizmat qiladi.

¹³ Каримов Б. "Янгиланиш соғинчи" Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси "Адабиёт жамғармаси" нашриёти Т.: 2004 й. 40 бет

¹⁴ Қориев М. "Ибн Сино" "Шарк" нашриёт-матбаа контсерни бош тахририяти Т.: 2000 й. 115 бет

¹⁵ То'ғайев В. "Абу Райхон Беруний" "Тafakkur" nashriyoti Toshkent 2015-yil 11-bet

¹⁶ Қориев М. "Ибн Сино" "Шарк" нашриёт-матбаа контсерни бош тахририяти Т.: 2000 й. 151 бет

Ular o'quvchiga chin do'stlik, olimning olimga e'tirofi, bir kishi ikkinchisining mehnatini qadrlashi, xavas qilishi singari ijobiy fazilatlarni singdiradi. Ikkinchidan, romandagi bunday lavhalar tarixiy shaxslar obrazlarini o'quvchilarga yaqinlashtiradi, kitobxonlarda mazkur ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissini uyg'otadi ularga nisbatan hurmat va mehr tuyg'usini shakllantiradi. Ibn Sinoning quyidagi ichki monologiga diqqat qilaylik: "Beruniyning iste'dodiga tan bermay bo'lmas. Xorazm shohining kutubxonasidagi barcha kitoblarni shimirib o'qigan. Arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon, hind qadimiy yahudiy tillarini biladi, o'qiydi, yozadi. Demak, uning o'qig'onlari menikidan ko'p. Ayniqsa, yunon zabonini bilishi, Arastu, Aflotun, Jalinus risolalarini o'sha tilda o'qiy olishi hayratlidir. Yulduzshunos, mingdan ortiq yulduzning joylashishi, hajmini aniqlagan. Buning uchun aql, zehn, daholik darkor. Ofarin, Beruniy!"¹⁷

Umuman olganda, Maqsud Qoriyev romanida Abu Rayhon Beruniy obrazini epizodik xarakterda ekanligi uning to'laqonli tarixiy shaxs sifatida tasvirlanishiga to'sqinlik qilmagan. Uning ulug' olimligini, chin do'st ekanligi, ochiqko'ngil insonligi, fasohat va farosat bobida o'ziga xos shaxsligi, teran tafakkur egasi ekanligini qahramonlar va muallif tilidan, aytilgan so'zlar, obrazlarning hatti-xarakatidan, turli xil vaziyatlar va holatlardan kelib chiqqan holda ko'rsatib bera olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qoriyev M. Ibn Sino. "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent 2000-yil.
2. To'laganova S. Badiiy asar morfologiyasi. Toshkent-2016-yil "Turon zamin ziyo"
3. Haqqul I. Mushohada yog'dusi. Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti 2019-yil
4. Karimov B. Yangilanish sog'inchi. O'zbekiston yozuvchilari uyushmasi "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti, Toshkent 2004-yil.
5. To'rayev B. Abu Rayhon Beruniy. Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti 2015-yil



¹⁷ Qoriyev M. "Ibn Sino" "Sharq" nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati T.: 2000 й. 126 бет

Kurbanbayeva Munavvara Kozibayevna, Urganch davlat universiteti o'qituvchisi, O'zMU mustaqil tadqiqotchisi

A NEW STAGE OF CIVIL SOCIETY DEVELOPMENT

Kurbanbayeva Munavvara Kozybayevna, teacher at Urgench State University, independent researcher at the National University of Uzbekistan

НОВЫЙ ЭТАП РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Курбанбаева Мунавара Козыбаевна, преподаватель Ургенчского государственного университета, независимый исследователь Национального университета Узбекистана

Annotatsiya: Maqolada mustaqillik davrida bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish borasidagi sa'y-harakatlar va amalga oshirilgan ishlar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, davlat, hukumat, huquq, erkinlik, adolatli jamiyat.

Annotation: The article analyzes the efforts and work done to build a free democratic state based on a market economy, form a solid foundation for civil society, and build civil society during the period of independence.

Keywords: civil society, civil society institutions, state, government, law, freedom, just society.

Аннотация: В статье анализируются усилия и работа, проделанная для построения свободного демократического государства на основе рыночной экономики, формирования прочного фундамента для гражданского общества и построения гражданского общества в период независимости.

Ключевые слова: гражданское общество, институты гражданского общества, государство, правительство, право, свобода, справедливое общество.

KIRISH. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, Turkiston o'zining 2 ming yillik tarixi davomida 800 yildan ortiq mustamlakachilik zulmi ostida bo'lgan. Xususan, Ahamoniylar – 200 yil, Grek-Makedoniyaliklar – 180 yil, Arab xalifaligi salkam – 200 yil, mo'g'ul bosqinchilari – 150 yil, Chor Rossiyasi va Sovet davlati – 130 yil o'lkamizni o'z asoratida ushlab turgan. Bunday zulm va istibdodlarni boshidan o'tkazgan xalqning eng muqaddas orzusi, niyati albatta fuqarolik jamiyatini qaror toptirishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. 130 yillik rus istibdodi qaramligidan keyin, mustaqillikka erishgan O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini fuqarolik jamiyatini barpo etishda deb bildi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov 1992-yil 2-iyulda O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq X sessiyasida "Istiqloq yo'li: muammolar va rejalar" mavzusidagi nutqida "Bizning ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o'z yo'limiz bor", deb e'lon qildi. 1992-yil avgust oyida Mustaqillikning 1 yillik tantanalari arafasida Prezident Islom Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" asari e'lon qilindi, bu asarda O'zbekistonda demokratik davlat barpo etish asoslab berildi. I.A.Karimov mustaqillikning ilk davridayoq "Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat"[1] degan g'oyani ilgari surdi.

Shuningdek, I.Karimov fuqarolik jamiyatining O'zbekiston sharoitida qanday ahamiyatga ega ekanligini ham aniq-ravshan bayon qildi: "Biz uchun fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqozo etadi... Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi

lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so‘zsiz rioya qilishlari shart”[2]. “Ma‘rifatli dunyoda “fuqarolar davlati” deb gapirilmaydi. “Fuqarolik jamiyati” deyiladi. Davlat – boshqa narsa, fuqarolar jamiyati boshqa narsa. Bunday jamiyatda davlat tashkilotlaridan ko‘ra jamoat tashkilotlarining qadri balandroq turadi. Kuch ishlatuvchi tuzilmalar, vazirliklar, mahalliy hokimiyat davlat tashkilotlari tizimiga kiradi. Jamoat tashkilotlari esa fuqarolarning ixtiyoriy birlashishi asosida tashkil topadi. Biz bunga erishga harakat qilmog‘imiz lozim”[3].

MUHOKAMA. Yuqoridagilardan kelib chiqib, O‘zbekiston o‘z mustaqil yo‘liga chiqqan dastlabki davridanoq shaxs erkinligi ulug‘langan hamda ushbu erkinlik qonun bilan asoslangan va qonun bilan tartibga solinadigan fuqarolik jamiyati qurishga kirishganini qayd etmoq lozim. 130 yillik qaramlik va totalitar tuzum sharoitida yashagan O‘zbekiston uchun ushbu ulkan qadam jamiyat qurilishini batamom yangilash, sovet davlatining o‘z qaramligida bo‘lgan respublikalardagi fuqarolik jamiyati unsurlarini deyarli yo‘q qilib tashlagani bois ularni noldan barpo etish, butun jamiyat a‘zolarining tafakkur tarzini, dunyoqarashini o‘zgartirish, avval mutlaqo tajribada ko‘rilmagan yangi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni shakllantirishni anglatar edi.

2016-yilning so‘nggi choragidan boshlab mamlakatimizga davlat rahbari sifatida o‘z faoliyatini boshlagan Sh.M.Mirziyoyev mamlakatda fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun huquqiy asoslar va jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishi natijasida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati qurish islohotlari yangi pallaga kirdi. U Prezidentlikni bajarish uchun kirishishi bilanoq quyidagi konseptual g‘oyani ilgari surdi: “Mustaqil taraqqiyot yillarida Konstitutsiyamiz yurtimizda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun tinch, obod va farovon hayot barpo etish, O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”[4].

Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekistonda boshlangan fuqarolik jamiyatini barpo etish ishlarini nafaqat davom ettirish, balki bu jarayonni sifat va sur‘at jihatidan butunlay yangi pog‘onaga olib chiqish uchun qat‘iyat bilan harakat boshladi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish uchun keng ko‘lamli, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy, ijtimoiy islohotlar yangicha mazmun, yangicha yondashuv bilan boyitildi va yo‘lga qo‘yildi. Albatta, bunday keng ko‘lamli islohotlar muvaffaqiyati ilm, ma‘rifatga tayanishni taqozo qiladi. Fuqarolik jamiyati va uning institutlari tabiati, vazifasi, qurilishi kabi jihatlari, yangi O‘zbekiston sharoitida rivojlanishining g‘oyaviy-siyosiy masalalari bo‘yicha ilmiy ishlar, konsepsiyalar yaratish davr taqozosi bo‘lib maydonga chiqdi. Mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyati va uning institutlari to‘g‘risida bir qancha ilmiy ishlar yoqlangan, monografiyalar, o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar, maqolalar chop etilgan. Ularda taniqli siyosatshunos olimlarimiz bu borada o‘z fikrlarini bayon etganlar. Ushbu ilmiy qarashlar Yangi O‘zbekistonda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilk bor “Fuqarolik jamiyati institutlari” nomli bob va ibora kiritilib, ushbu institutga konstitutsiyaviy maqom berilgan tarixiy davrda ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda o‘zining ilmiy-amaliy qimmatini to‘la saqlab qolganini, ular fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning yangi bosqichidagi yangi qarashlar rivojiga asos bo‘la olishini ta‘kidlamoq lozim.

NATIJARLAR. Fuqarolik jamiyatining nazariy va amaliy jihatlari qadimgi davrlardanoq G‘arb va Sharq mutafakkirlari diqqatini o‘ziga qaratib, ular uchun o‘rganish obyekti bo‘lib kelgan. Jumladan, G‘arbda Suqrot, Platon, Aristotel, Sitseron, Sharqda Konfutsiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Nizomulmulk, Alisher Navoiy, Amir Temur[5] kabi mutafakkirlar va davlat arboblarning davlat boshqaruvida adolat, haqiqat, qonun ustuvorligi, jamiyat farovonligi, el-yurt tinchligi kabi kategoriyalar ko‘tarilgan, ularning tabiati, qaror topish va rivojlanish qonuniyatlari o‘rganilgan. O‘rta asrlar va undan keyingi davrlarda ham G‘arb va Sharq mutafakkirlari adolatli jamiyat konsepsiyasini takomillashtirib borganlar. Jumladan, o‘rta asrlardagi N.Makiavelli, J.Boden, T.Gobbs, Sh.Monteske kabi olimlarning ishlarida fuqarolik jamiyati konsepsiyasi ancha takomillashtirilgan.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari davlatni boshqarishda, jamiyatda adolat, tenglik, tinchlik, farovonlik, ilmu ma‘rifat qaror topishini orzu va umid qilganlar. Adolatli jamiyat haqidagi orzuniyatlar keyingi asrlarda ham o‘zbek millatparvarlarini bir zum tark etgan emas. Turkistonda chorizm mustamlakachilari siyosati tufayli ro‘y bergan fojiali voqea-hodisalarga qarama-qarshi ravishda XIX asr oxiri XX asr boshlarida ma‘rifatparvarlik, jadidchilik harakati dunyoga keldi. Bu harakat tepasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon,

Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Tavallo, So‘fizoda kabi xalqimizning asl farzandlari turdilar. Faoliyatlarining dastlabki davrlarida jadid ma‘rifatparvarlari xalqni milliy istibdod, zulm va qoloqlikdan qutqarishning birdan-bir yo‘li ma‘rifatdir, deb bilgan bo‘lsa, keyinchalik esa bu najot – milliy istiqlolda deb tushundilar. Jadidlar fuqarolik jamiyatining asosiy prinsiplari bo‘lgan adolat, tenglik, qonun ustuvorligi, inson sha‘ni, millat manfaati, shaxs erkinligi uchun kurashib, qurbon bo‘ldilar.

O‘rta Osiyo xalqlari, xususan o‘zbek xalqiga ham fuqarolik jamiyati g‘oyalari begona emas, asrlar davomida millatimizning taraqqiyparvar va vatanparvar vakillari ushbu g‘oyalar uchun kurashib kelganlar. Lekin yurtimizni parokandalikka uchratgan obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra, so‘nggi XVI-XIX asrlarda dunyo taraqqiyotidan orqada qolgan qoloq o‘lka sifatida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati kurtaklari paydo bo‘lishi ham imkon tashqarisida edi.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy-madaniy, falsafiy jihatlarini M.Qirg‘izboyev, F.Musayev, S.Abduxolliqov, B.Aliyev, S.Mamashakirov, E.Yusupov, A.Fayzullayev, B.To‘ychiyev, A.Fayzullayev, E.Yusupov, N.Shermuhamedova, D.Norqulov, X.Shayxova, T.Qo‘yliyev, Q.Nazarov, G.Najimov, Q.Xonazarov, U.Qoraboyev kabi olimlar o‘rgandilar [7].

XULOSA. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, fuqarolik jamiyati tushunchasi avvalboshdan siyosiy va axloqiy falsafa doirasida shakllangan. U insonning shaxsiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlari bilan bog‘liq bo‘lib, davlatning roli, chegaralari va fuqarolarning erkinlik darajasini belgilashga qaratilgan. 2023 yilda qabul qilingan Yangi Konstitutsiyada ham fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi mustahkamlandi. Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida katta yutuqlar bilan birga, hal etilishi lozim bo‘lgan qator muammolar ham mavjud. Eng avvalo, huquqiy ongni oshirish, fuqarolarning NNTlarda faol ishtirokini rag‘batlantirish, jamoatchilik nazorati institutlarini chuqurroq joriy etish, moliyaviy mustaqillikni ta‘minlash zarur. Bu sohada davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali barqaror fuqarolik jamiyati shakllanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: O‘zbekiston. 2000. 8-jild. B-331.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari. T., 1998. B.139-140.
3. Karimov I.A. Maqsadimiz – tinchlik, barqarorlik, hamkorlik. //Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. –T.: O‘zbekiston, 1996. 80-bet.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza.//Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. B.102-103.
5. Kurbanbayeva, M.K. Fuqarolik jamiyati g‘oyalarning milliy davlatchiligimizdagi o‘rni. //Tamaddun nuri. 2024-y, 7-son. <https://doi.org/10.69691/23z46z25>
6. Kurbanbayeva, M. (2024). Fuqarolar vatanparvarligi – fuqarolik jamiyati institutlari shakllanishida muhim omil. Tamaddun nuri jurnali, 9 (60), 23-25.

